


43  
J11

U.JO'RAYEV



WEBGA YO'NALTIRILGAN  
DASTURLASH

78  
J11


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Amaliy matematika va informatika” kafedrası**

**Jo'rayev U.S.**

**“WEBGA YO'NALTIRILGAN DASTURLASH”  
fanidan**



**World Wide Web**

**O'quv-metodik majmua**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI  
637.2

**Guliston - 2011**

U. S. Jo'rayev, «Webga yo'naltirilgan dasturlash» fanidan o'quv – metodik majmua, Guliston sh., 2011 y., 138 bet.

Ushbu o'quv – metodik majmua amaldagi dasturlar asosida tayyorlangan bo'lib, 5480100 – «Amaliy matematika va informatika» bakalavriat yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimiga asoslangan holda nazariy materiallar, amaliy ishlarni bajarish uchun uslubiy talablar va topshiriqlar, bilimlarni nazorat qilish uchun savollar majmuasi kabilar keltirilgan.

O'quv – metodik majmua Guliston davlat universiteti O'quv – metodik Kengashi tomonidan («\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 201\_\_ y. dagi, № \_\_\_\_\_ sonli bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrirlar: H.Q. Qarshiboev, Guliston davlat universiteti-ning o'quv ishlari bo'yicha prorektori, biologiya fanlari doktori, professor.

D. E. Toshtemirov, Gul DU «Amaliy matematika va informatika» kafedrasida katta o'qituvchisi.

Taqrizchilar: Sh. Nazirov, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professori, texnika fanlari doktori.

S. P. Allayorov, Gul DU «Amaliy matematika va informatika» kafedrasida dotsenti, texnika fanlari nomzodi.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	4
«WEB GA YO'NALTIRILGAN DASTURLASH» FANI BO'YICHA TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI.....	8
1-Mavzu: Internet xizmati rivojining xolati va kelajagi.....	10
2-Mavzu: Word Wide Web (WWW) ning tashkil etish tamoyillari.....	17
3-Mavzu: Internet-saxifani Word vositalari bilan yaratish.....	29
4-Mavzu: Microsoft Front Page web muharriri bilan tanishish.....	40
5-Mavzu: Front Page da master va shablonlari yordami bilan Web-uzel yaratish.....	62
6-Mavzu: Front Page muharririning qo'shimcha imkoniyatlari.....	73
7-Mavzu: HTML belgilash tili to'g'risida umumiy tushuncha.....	82
8-Mavzu: HTML da gipermatn xujjatlarni, giperbog'lanishni (sso'lka), ro'yxatlarni va grafiklarni yaratish.....	89
9-Mavzu: HTML da jadvallar, freymmlar va formalar bilan ishlash.....	101
10-Mavzu: Dreamweaver web muharriri va unda ishlash.....	113
Amaliyot va laboratoriya mashg'ulotlari.....	118
GLOSSARIY.....	134
Foydalanilgan adabiyotlar.....	136

## KIRISH

Bugun kompyuter texnologiyalari dunyoda jadallik bilan rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Kompyuterlar asta-sekin insonlar hayotiga kirib bormoqda. Yani, faol ish yurituvchini internet global tarmog'isiz, intellektual ishchini esa ish joyida kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Kompyuter texnologiyalari inson hayot tarzida, kichik va katta korxonalarda, kompaniyalarda, o'quv dargohlarida, davlat muassasalarida behad ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi vaqtda har bir tashkilot qaysi soxada ish olib bormasin, dunyo bozoriga chiqish uchun o'z faoliyatida internetdan foydalanish zarurligiga katta etibor qaratmokda.

Internetda axborotni joylashtirish uchun uning ekrandagi ko'rinishi qulay bo'lishiga, ya'ni Web-sahifasiga e'tibor berish zarur, chunki saxifadagi foydalanuvchi axborot har tomonlama bo'lishi mumkin va u Web-saytga joylashtiriladi. Aql bilan yaratilgan sayt, qoida bo'yicha, informatsion yagona bus-butun bo'lishi va joylashtirilgan axborotning ahamiyatiga qarab, ma'lum standartga ega bo'lishi kerak.

Yuqorida keltirilganlardan Web-saytni yaratish va uni loyihalash jarayonlarini o'rganib chiqish muammolarining kundalik zarurligi va dolzarbliligi kelib chiqmoqda. Bu o'quv-metodik majmua internetda ishlash bo'yicha ma'lum bilim va tajribaga ega bo'lgan talabalar uchun mo'ljallangan.

"Webga yo'naltirilgan dasturlash" o'quv-metodik majmuasining maqsadi Web-sahifasini yaratish misolida amaliy dasturlashtirishning nazariy asoslarini va tamoyillarini, ularning funksional va strukturaviy tashkil etilishini, maxsus dasturlashtirish tillarini ishlatgan holda dinamik Web-sahiflari yaratish usullarini va uslubiyatlarini o'qitishdan iborat.

Shu sababdan, ushbu yo'nalish mutaxassislariga, ularning informatsion intellektual faoligi va zamonaviy texnologik madaniyatligiga yuqori talablar qo'yilmoqda. Tashkilot va muassasalarning samarali ishlashi mutaxassis va umuman, jamoaning muvaffaqiyati tadqiqodchi va foydalanuvchilarning zamonaviy kompyuter va Web-texnologiya uslublari va instrumental vositalarini qanday darajada o'zlashtirib olganliklariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun "Webga yo'naltirilgan dasturlash" o'quv-metodik majmuasi informatsion texnologiyaning yangi va samarali yo'nalishini o'rganishga yo'naltirilgan, shaxsan, Web-texnologiya va WWW butun dunyo cho'lg'aming ishlab turish asoslarini, Web-sahifa-saytlarini yaratish va rejalashtirishni va ularni internetga joylash va reklama qilishning ahamiyati beqiyos katta desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

## I. Fanni o'qitishdan maqsad va vazifalar:

1.1. Web ga yo'naltirilgan programmalash fanining maqsadi mutaxassis talabalarga Web texnologiyalar, Web xujjatlar bilan ishlash xaqida dastlabki ma'lumotlar berishdan iborat.

1.2. Fanning asosiy vazifasi – Web xujjatlar bilan ishlay olish va ularni yaratishga ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iborat.

1.3. Talabalar bilimiga qo'yiladigan talablar: Talabalarda fanni o'rganish natijasida Web sahifalar yaratish, tahrirlash, Web taxrirlagichlari bilan ishlash, internetda ma'lumotlarni joylashtirish tartiblarini hamda Web texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish malakasi hosil bo'lishi kerak.

1.4. Fanni o'rganishda Informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan olingan bilim va ko'nikmalardan foydalaniladi.

## II. Fanning mazmuni:

### 2.1. Va'z mavzulari, ko'riladigan masalalar va vaqt.

№	Mavzu	Ko'riladigan masalalar	Vaqt, soat
1	Web ga yo'naltirilgan programmalash fanining predmeti	Web ga yo'naltirilgan programmalashga kirish, fanning maqsad va vazifalari. Web sahifa tushunchasi. Web sayt tushunchasi. Web xujjat.	2
2	Web (WWW) ning tashkil etish tamoyillari	Internet protokollari. "Klient – server" arxitekturasi va brauzerlar. Web sayt yaratishning eng sodda ko'rinishlari.	2
3	MS Wordda Web sahifalar yaratish	MS Wordning Web parametrlari Web xujjatda giperaloqalarni tashkil etish. Fayllarga giperaloqalarni bo'lash.	2
4	MS Front Page 2003 Web muxarriri	MS Front Page oynasining tashkil etuvchilari Front Page mohiyati va u bilan tanishib chiqish. Ish rejimlari. Front Page da web sahifaga matn jihozlanish, jadval, grafiklar, audio va video ma'lumotlarni joylashtirish imkoniyatlari.	2
5	MS Front Page 2003 dasturida master va shablonlar asosida Web uzal yaratish	Shablonlardan foydalanish tartiblari. Sahifalarni yaratishda tayyor shablonlardan foydalanish. Web-uzel strukturasi loyihalash printsiplari. Web-saxifani kengaytirish texnologiyasi. Front Page da master va shablonlar yordami bilan Web-uzel yaratish	2
6	MS Front Page muharririning qo'shimcha imkoniyatlari	MS Front Page dasturida Web sahifa yaratishda multimedia elementlaridan foydalanish. Freym tuzilmali saxifalar. Web – saxifaning aktiv boshqaruv elementlari. Formalar – axborotni tashrif buyuruvchilar bilan kiritish uchun vosita.	2
7	HTML tili	HTML tili to'g'risida tushuncha. HTML tili buyruqlari.	2
8	HTML da gipermatn xujjatlarini, giperbog'lanishni (sso'lka), ro'yxatlarni va grafiklarni yaratish	HTML teglaridan foydalanib, oddiy sahifalar yaratish. Giperbog'lanishlarni qo'yish. Ro'yxatlar va grafiklar bilan ishlash. HTML imkoniyatlaridan foydalanib murakkab ko'rinishlari sahifalar yaratish.	2
9	HTML da jadvallar, freymlar va formalar bilan ishlash	Web sahifada jadvallar xosil qilish. Jadvallarni taxrirlash. Ko'rinishlar xosil qilish. Formalar yaratish. Freymlardan foydalanish.	2
10	Drimviwer dasturi	Drimviwer dasturi oynasining tuzilish. Drimviwer dasturi imkoniyatlaridan foydalanib Web xujjatlar tayyorlash.	2
	Jami:		20

2.2. Avaliyot mash/ulotlari mavzulari, bajariladigan ish mazmuni va vaqt.

№	Mavzu	Bajariladigan ish mazmuni	Vaqt, soat
1	MS Word da Web sahifalar yaratish	1. Word ning Web imkoniyatlari bilan tanishish. 2. Word ning Web komponentlarini o'rganish. 3. Guruh uchun bosh sahifa yaratish.	2
2	MS Front Page dasturi bilan ishlash	1. MS Front Page dasturini o'rnatish. 2. MS Front Page dasturini ishga tushirish. 3. MS Front Page dastur oynasi tashkil etuvchilari bilan tanishish.	2
3	MS Front Page dasturi Web xujjatlar yaratish	1. Oddiy ko'rinishda Web sahifa yaratish. 2. kafedra Web saytining bosh sahifasiga yaratish. 3. Bosh sahifaga logotip va obe'ktlarni joylashtirish.	2
4	MS Front Page dasturida animatsiya elementlarini qo'llash	1. Web xujjatga animatsiya elementlarini joylashtirish. 2. Web xujjatda matn effektlaridan foydalanish. 3. Sahifada yugiruvchi satrlarda foydalanish.	2
5	MS Front Page dasturida freymrlar bilan ishlash	1. Sahifalarni yaratish freymrlardan foydalanish. 2. Freymrlarni qo'llash usullarini ko'rsatish. 3. freymrlardan foydalanib menyular hosil qilish.	2
6	HTML tili teglar bilan ishlash	1. Sarlavha qo'yish. 2. Abzats o'rnatish. 3. matni formatlash. 4. mantga rang berish.	4
7	HTML tilida jadval va freymrlardan foydalanish.	1. Xujjatda jadval tashkil etish. 2. Sahifalarni yaratish freymrlardan foydalanish. 3. Freymrlarni qo'llash usullarini ko'rsatish.	2
8	Shaxsiy Web – sayt yaratish	1. Shaxsiy ma'lumotlarni to'plami. 2. Grafik, audio, video ma'lumotlari to'plami. 3. Dreamweaver Web taxirlagichi yordamida shaxsiy Web saytni yaratish.	2
	JAMI		18

2.3. Laboratoriya mash/ulotlari mavzulari, bajariladigan ish mazmuni va vaqt.

№	Mavzu	Bajariladigan ish mazmuni	Vaqt, soat
1	MS Word da Web sahifalar yaratish	1. Word ning Web imkoniyatlari bilan tanishish. 2. Word ning Web komponentlarini o'rganish. 3. Guruh uchun bosh sahifa yaratish.	2
2	MS Front Page dasturida master va shablonlardan foydalanib Web xujjatlar yaratish	1. Master va shablonlar yordamida Web sahifa yaratish. 2. kafedra Web saytining bosh sahifasiga yaratish. 3. Bosh sahifaga logotip va obe'ktlarni joylashtirish.	2
3	MS Front Page dasturida animatsiya elementlaridan foydalanish	1. Web xujjatga animatsiya elementlarini joylashtirish. 2. Web xujjatda matn effektlaridan foydalanish. 3. Sahifada yugiruvchi satrlarda foydalanish.	2
4	HTML tilida saxifaga fon berish va grafik elementlarni joylashtirish.	1. Sahifaga fon qo'yish. 2. Sahifaga rasmlar joylashtirish. 3. matni formatlash.	2
5	HTML da jadval va freymrlar bilan ishlash. Formalar xosil qilish.	1. Jadval va formalar bilan ishlash 2. Freym tuzilmali sahifalar yaratish 3. Murakkab sahifalarni yaratish.	2
	JAMI		10

#### 2.4. Mustaqil ish topshiriqlari.

1. MS Front Page oynasining tashkil etuvchilari.
2. Freymlar bilan ishlash.
3. Gipermurojaat.
4. Jadval va formalar (ko'rinishlar) yaratish.
5. HTML tilida sahifalar yaratish.
6. DHTML effektlaridan foydalanish.
7. MS Front Page da veb-sayt yaratish.
8. Elektron darslik yaratish texnologiyasi.
9. Veb-sahifa yaratish texnologiyasi.
10. MS Office dasturini o'qituvchi elektron darslik yaratish.
11. Tanlangan mavzular bo'yicha elektron darslik yaratish.
12. Fakultet uchun veb-sahifa yaratish.
13. Shaxsiy veb-sahifa yaratish.
14. Elektron darslik yaratishda animatsiya effektlarini qo'yish.
15. Elektron darslik yaratishda audio effektlarini qo'yish.
16. Elektron darslik yaratishda video effektlarini qo'yish.
17. Grafik, audio, video ma'lumotlar.
18. Web taxrirlagichlar yordamida shaxsiy Web saytni yaratish.
19. MS Front Page ning web komponentalari
20. Freym tuzilmali veb sahifalar yaratish
21. Web sayt yaratuvchi muharrirlar
22. Dreamweaver dasturi imkoniyatlari

#### Asosiy adabiyotlar

1. M.Aripov, Yu.Pudovchenko, K. Aripov «Onovo' Internet» Tashkent 2002, NUUZ.
2. I. Shaposhnikov «Web-sayt svoimi rukami» Moskva 2000
3. D. Kirsanov. «Veb-dizayn» S.Peterburg 2001.
4. D. Leshev. «Sozдание interaktivnogo veb-sayta» M. «Piter» 2004.
5. S.Simonovich, G.Evseev, V. Muraxovskiy. Internet. AST PRESS M., 2001.720.

#### Qo'shimcha adabiyotlar

6. A.Levin. «Samouchitel raboto' na kompyutere». M, 1995.
7. Ed. Krol. Vsyo ob INTERNET.
8. Microsoft Office 97: naglyadno i korrektno. Illyustrirovanno'y spravochnik. M., 1997.
9. Simonovich S. i dr. Spetsialnaya informatika. Uchebnoe posobie. M., 1999.
10. Denisov A., Vixarev I. «Samauchitel Internet 2-izd.» M. «Piter» 2004.
11. M. Djorj «Kompyuternaya animatsiya personajey» M. «Piter» 2004.
12. [www.exponenta.ru/](http://www.exponenta.ru/)
13. <http://kampi.bancorp.ru/do/>
14. <http://informica.ru/>
15. <http://hp.visitcom.ru/>
16. <http://www.pedagog.uz/>
17. <http://www.ziyonet.uz/>
18. <http://www.htmlbook.ru/>
19. <http://www.web-palette.ru/>
20. <http://www.wmaster.ru/redactors/>



## «WEB GA YO'NALTIRILGAN DASTURLASH» FANI BO'YICHA TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI

Bilim olish jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar: darsni yuqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg'ulotlar o'tkazish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka yo'naltirish, erkin muloqotga kirishishga, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustuvorligini ta'minlaydi. Ta'lim samaradorligini orttirishda fanlar bo'yicha ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishning kontsepsiyasi aniq belgilanish va unga amal qilishi ijobiy natija beradi. Fanni o'qitishning maqsadi va ta'lim berish texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy kontseptual yondashuvlar quyidagilardan iborat.

**Fanning maqsadi.** Webga yo'naltirilgan dasturlash fanining asosiy maqsadi talabalarda web hujjatlar bilan ishlash, web saytlarni yaratish, ularni taxlil qilish, asosiy sifat ko'rsatkichlari bo'yicha baxolash va aksincha, berilgan talablarga javob beruvchi web hujjatlarini yaratish uchun zarur bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalarni xosil qilishga qaratilgan

**Fanni o'qitishning vazifalari.** Webga yo'naltirilgan dasturlash fanini o'rganish natijasida talabalar web sahifalarni yaratish printsiplari, internetda axborotlarni ifodalash, web hujjatlarini loyihalash, web muharrirlar imkoniyatlaridan to'laonli foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** O'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshishga e'tibor qaratishni amalga oshiradi. Har bir talabning shaxs sifatida kasbiy takomillashuvini ta'minlaydi. Ta'limning markaziga bilim oluvchi qo'yiladi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi bilim olish va kasb egallashning mukammal bo'lishiga hissa qo'shadi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini jadallashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida barcha qobiliyat va imkoniyatlarni, tashabbuskorlikni ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi. Egallangan bilimlarning ko'nikma va malakaga aylanishi, amaliyotda tatbiq etilishiga sharoit yaratadi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o'quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. O'qituvchi va talabning hamkorlikdagi ta'limiy faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi sub'ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi. Ta'lim jarayonida "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlari tarkib topadi.

**Muammi ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni ta'minlaydi. Muammoli savol, vazifa, topshiriq va vaziyatlar yaratish va ularga echim topish jarayonida ongli, ijodiy, mustaqil fikrlashga o'rgatiladi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash** - hozirgi axborot kommunikatsiya texnologiya vositalari kuchli rivojlangan sharoitda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish, axborotlarni tanlash, saralash, saqlash, qayta ifodalash ko'nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda kompyuter savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

**O'qitishning metodlari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid vizuallash, taqdimot, bahs) muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, loyiha va amaliy ishlash usullari. Interfaol usullarni mavzuning mazmuniga mos holda tanlash va ulardan samarali foydalanishga o'rgatadi.

**O'qitish vositalari:** o'qitishning an'anaviy vositalari (darslik, ma'ruza matni, ko'rgazmali qurollar, xarita va boshqalar) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiya vositalari keng ko'lamda tatbiq etiladi.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ ikki yoqlama (teskari) aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlarning yo'lga qo'yilishi.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so'rov, joriy, oraliq va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida kafolatlangan natijaga erishish ta'minlanadi.

**Boshqarish usullari va tartibi:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati ham tartibli yo'lga qo'yiladi.

**Monitoring va baholash:** o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini reja asosida nazorat va tahlil qilib boriladi. Kurs oxirida yozma, og'zaki yoki test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. Baholarning haqqoniy bo'lishiga, oshkoraligiga alohida e'tibor qaratiladi.

## 1-Mavzu: Internet xizmati rivojining xolati va kelajagi

Ajratilgan soat: 2

Asosiy savollar:

1. Internet xizmatlari
2. Internetda axborotlarni ifodalash
3. Web – sayt yaratish va o'rganish muammosini aktuallashtirish
4. «Web – sayt loyihalash» kursining predmeti, mazmuni va uning asosiy maqsadlari va vazifalari

### Tayanch tushuncha va iboralar:

Web sayt, internet xizmatlari, web xujjat, web tugun, web serverlar, provayderlar, telnet, elektron pochta. ftp, usenet, sayt loyihasi, Whois, faks, elektron tarjimon, shlyuzlar, Copher, WAIS, WWW, HTML, Web – texnologiya, Web – sahifalar, URL, HTTP, CGI, «butun dunyo o'rgamchak turi», dizayn, rassom, Web – master, yozuvchi, kontent – master, analitik, server administratori.

### “Internet xizmati rivojining xolati va kelajagi” mavzusi bo'yicha darsning texnologik xaritasi

T.r.	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ullar
1	<p><b>Tayyorlov bosqichi:</b>                      * Maqsad: <b>Internet xizmatining rivojlanishi, bugungi kundagi o'рни, xolati va kelajagini o'rganish</b>                      * Vazifalar:                      - talabalarda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish;                      - mavzuga oid tarqatilgan materiallarni, nazorat topshiriqlarini talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara orqali nazorat topshiriqlari qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini aniqlash;                      * Mazmun: o'qitish tamoyillari, tushunchalari, o'qitishning tashkiliy shakllari, talabalarining hamkorlikda ta'lim olish metodi, o'qitish metodlarini farqlash, og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarni o'rganish.</p>	O'qituvchi
2	<p><b>Darsni tashkil etish bosqichi:</b>                      Uslub: Og'zaki bayon qilish.                      Shakl: ma'ruza mashg'uloti, kichik guruhlar va jamoada ishlash.                      Vosita: tarqatma va taqdimot materiallari.                      Usul: tayyor yozma materiallar.                      Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish.                      Baholash: Rag'batlantirish, reyting tizimi asosida baholash.</p>	O'qituvchi
3	<p><b>Mustaqil ishlash bosqichi:</b>                      - munozara, aqliy hujum, mikroguruhda ishlash va boshqa metodlar orqali nazorat topshiriqlarini echishga yo'naltiriladi.                      - talabalar nazorat topshiriqlarini hal qilish to'g'risidagi fikrlarini o'zaro muhokama qilishadi.                      - o'zi va mikroguruh uchun yagona javobni tanlaydi.</p>	Talaba
4	<p><b>Natijalarni eshitish va tahlil qilish bosqichi:</b>                      - talabalar va mikroguruh fikri tinglanadi, ularga aniqlashtiruvchi savollar beriladi.                      - mikroguruhlarning javoblari to'g'risida talabalar fikri aniqlanadi.                      - javoblar tahlil etiladi.</p>	O'qituvchi - talaba
5	<p><b>Yakuniy va baholash bosqichi:</b></p>	

<ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalar bergan javoblardan ko'pchilik fikriga mos kelgani alohida ajratib olinadi.</li> <li>- talabalarning nazorat topshiriqlarini echishdagi faolligi, intilishlari hisobga olingan holda baholanadi.</li> <li>- yakuniy fikr aytiladi.</li> <li>- mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</li> </ul>	O'qituvchi
-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------

Informatsion – kompyuter texnologiyasi muxitida innovatsiya jarayoni juda yuqori suratlar bilan o'tayotgani odatiy xolga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bu Internet global tarmog'i uchun xarakterlidir.

Xozir Internet nafaqat bexisob xajmdagi axborotga ega bo'lgan global kompyuter tarmog'i xisoblanishi bilan birga, sanog'iga etib bo'lmaydigan miqdordagi odamlar uchun printsipial yangi muloqot qilish muxitiga aylanib bormoqda. Internet gorizontal usul deb atalishi mumkin bo'lgan yangi insoniy muloqot usulini kashf etmoqda. U paydo bo'lgunga qadar muloqot va axborotga tarqalishi asosan vertikal tarzda bulgan. Masalan, avtor kitob yozadi, o'quvchilar uni o'qiydilar, radio va televideniya nimanidir uzatadi- tamoshabin va tinglovchilar uni ko'radilar va tinglaydilar, gazeta yangiliklarni nashr qiladi – obunachilar uni o'qiydilar va x.k. Unga talab juda yuqori bo'lsada, teskari aloqa umuman yo'q edi. Gazetalarga yuboriladigan xatlar, radio va teleko'rsatuvlardagi talab va muloxazalar yuqoridagi fikrimizga guvoxlik berib turibdi. Konkret bir kitob o'quvchilari o'rtasida, konkret uzatuv tinglovchilari o'rtasida axborot almashuvi praktik tomondan amalga oshishi qiyin edi. Internet esa son – sanoqsiz iste'molchilar davrasi uchun axborot tarqalishini ta'minlaydi. Shu bilan birga ular osongina muxokamaga kirishishlari mumkin buladi.

Xozirgi vaqtda Internet global tarmog'i vertikal informatsion muloqot uchun ajoyib imkoniyatlarga ega. Xukumat bilan fuqarolar o'rtasida, oxirgilari birinchilar bilan teskari bog'lanishi uchun. Internetni bizning turmushimizga keng miqyosda tatbiq etishda xech qanaqa tashkilot bo'lmaydi. Tarmoq xuddi xodisa kabi mustaqil rivojlanib boraveradi, butun insoniyat uning dvigateli xisoblanadi. Xozir Internetning asosiy g'oyasi- bu axborotlarni erkin ravishda tarqatish va odamlar o'rtasida aloqa tiklashdir. Bu odamlar, xalqlar mamlakatlar o'rtasidagi diniy, ideologik va xarxil to'siqlarni olib tashlashdagi eng samarali yo'ldir. Internet texnologik jarayondagi eng axamiyatli demokratik xuquqlardan biri xisoblanadi. Uning paydo bo'lishi bilan axborot ko'pchilik planeta odamlarining potentsial imkoniyatiga aylanib bormoqda. Telegraf, telefon, radio, televideniya vo kompyuter texnikasi bilan chambarchas bog'langan barcha global kommunikatsiyalar yagona butunlikda integrallanadi. Bu erda gap axborotni tarqatish mexanizmi, odamlarni birlashtirish, masofa, vaqt, davlat va ko'plab shunga o'xshash chegaralar mavjudligidan qat'iy nazar ularning o'zaro muloqotda bo'lishlari to'g'risida ketmoqda. Internet bexisob miqdordagi axborotlarga ega bo'lgan xolda, iste'molchilarga katta informatsion xizmat spektrini taqdim etadi. Uni shartli ravishda ikki kategoriyaga bo'lish mumkin: tarmoq abonentlari aro axborot almashuvi; axborotni qidirish va tarmoq ma'lumotlar bazasidan foydalanish.

Tarmoq abonentlariaro asosiy aloqa xizmatiga quyidagilar kiradi.

- Telnet – uzoqda turib tarmoqdagi istagan kompyuterni boshqarish rejimi, ya'ni abonentga tarmoqdagi xoxlagan EXM da xuddi o'ziniki kabi, ishlash imkonini beradi FTP(File Tragsftr Protocol)- abonentga tarmoqdagi istagan kompyuterda matnli va ikkilik fayllar bilan o'zaro muloqot qilishga sharoit yaratib beruvchi fayllar uzatish protokoli. Uzoqdagi kompyuter fayllari shaxsiy kompyuterga nusxalashgandan keyingina unda ishlash uchun (o'qish, ishlov berish va b.k)kirish imkoniyati beriladi. Fayllarni bir joydan ikkinchi joyga uzatish WWW yordamida amalga oshirilgan taqdirda ham FTP-sistemasi o'zining tezkorligi va foydalanishdagi oddiyligi tufayli ommaviy xizmat turi bo'lib qolmoqda.
- Usenet (Usenet Wewsq roupe)-tarmoq yangiliklari va tarmoqdagi elektron elonlar doskasini olish. Bu sistema ma'lum bir mavzu bo'yicha guruxlarga bo'lingan xujjat (makola)lar yigindisi sanaladi. Foydalanuvchi o'zini qiziqtirgan mavzuni ko'rsatib mos xujatlar bilan tanishib chiqishi va o'zinikini yaratishi mumkin.

Yangi xujatlar gruxining barcha azolariga yoki konkret avtorlarga yuborilishi mumkin.

- Elektron pochta (E-mail)-eng ko'p tarqalgan internet xizmati bo'lib, istagan tarmoq abonentini pochta xabarlarini bilan o'zaro muloqotda bo'lib turishini taminlaydi. Elektron pochtaning xarakterli xususiyatlari shuki, xabar adresatga bir necha minut davomida etib boradi.

Bunda masofa hech kanday rol o'ynamaydi. Odatiy xatlar esa oluvchiga bir necha kun xatoki xaftadan keyin etib borishi mumkin.

- Whais-Internetning adres kitobi. Uning yordami bilan abonot o'zokdagi kompterga va foydalanuvchilarga tegishli axborotlarni olishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan tarmoqdagi abonentlararo axborot almashuvi xizmatlardan tashqari, Internet ba'zi bir o'ziga xos xizmat turlarini ham taqdim qilishi mumkin. Masalan:

- Faks-servis-tarmoq faks serviridan foydalanib, foydalanuvchiga faksimal aloqa orqali xabarlar jo'natish imkonini beradi.

- Elektron tarjimon- uziga yuborilgan matni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib beradi.

Bunda elektron tarjimonga murojaat etish elektron pochta orqali amalga oshadi.

- Shlyuzlar- abonotga TCP/IP protokollari bilan ishlamaydigan tarmoqda xabarlarini jo'natish imkonini beradi.

Ikkinchi darajali xizmatlarga, ayniqsa axborotlarni qidirish va tarmoq ma'lumotlar bazasi informatsion zaxiralardan foydalanish sistemalariga quyidagilar kiradi:

- Gopher-kalit so'z va jumlar bo'yicha axborotlarni topishga yordam beruvchi Internet tarmog'idagi eng ko'p tarqalgan axborot qidiruv vositasi. Copher-servirida axborotlarni ko'rib chiqish xuddi windows ilovasidagi menyu yoki fayl sistemasi katalogi (papka)ning daraxti kabi. daraxtsimon menyu yordami bilan tashkil qilinadi. Yuqori darajali menyu yirik mavzu nomlaridan tashkil topgan, masalan; iqtisodiyot, madaniyat, meditsina, sport va b.q.

Keyingi daraja menyulari tanlab olingan oldingi daraja menyu elementlarini bo'laklar (detallar) ajratadi. Daraxt bo'yicha pastga siljitishning oxirgi punkti xujjat xisoblanadi, xuddi katalog daraxtining oxirgi elementi (fayl) kabi.

- WAIS-Copher ga nisbatan yana kuchliroq axborot qidiruv vositasi. U kalit so'zlar qidiruvini barcha matnli xujatlarda amalga oshiradi. Rasmiy talablar WAIS ga ixchamlashgan ingliz tilida yuboriladi. Bu logika algebrasi tiliga qaraganda ancha engil xisoblanadi. Shuning uchun WAIS noprofessional foydalanuvchilar e'tiborini o'ziga ko'proq jalb etib turadi.

- Internetda eng ommabop va bir me'yorda rivojlangan xizmat turlaridan biri World Wide Web (WWW)dir. U taqiqot axborotlari almashuvi uchun ilgariidan o'ylab topilgan. Xozir esa ko'pchilik odamlar kundalik xayotining bir qismiga aylanib qoldi. WWW-bu er sharining istagan nuqtasida saklanish mumkin bulgan butunlay boshqa sayt yoki kompyuterdagi matnning xoxlagan boshqa joyiga xovola qilinadigan belgilash so'zlari (buyruqlari) o'rnatilgan global giper matn sistemasi. Giper matn g'oyasining mazmuni shundaki, tarmoqdagi informatson zaxiralarga gipermatn modelini yaratishdagi relyatsion yondashishdan foydalanish va uni maksimal oddiy usul bilan bajarish. Bu g'oyani amalga oshirishda to'rtta asosiy vosita ishlab chiqilgan:

-HTML xujatlarining gipermatn belgilash tili.

-URL(Universal Resource Locator) da'ildirka'aa'e ca'de'da'aaa'da'ne'aoifeng unversal usuli.

-HTTP gipermatn axborotlari bilan almashish protokoli. (HTTP - Hyper Text Transfer Protocol)

-SSI (Common Getaway Interface) shlyuzlarining unversal interfeysi.

Bu vositalar kitobning navbatdagi bo'limlarida batavsil ko'rib chiqiladi.

Kelajakda internet xizmatlarini taqdim etilishida tizim -sifatli evolyutsion o'zgarishlar bo'ladi. Ular asosan, odamlar va jamiyatning extiyojlarini har tomonlama qondirishga qaratilgan bo'ladi. Kelajakda internet xizmatlari xuddi instrument (asbob) kabi faol xizmat qiladi. Karorlar qabul qilish va o'qitishni tashkil etish, odamlar o'rtasidagi muloqot va xamkorlik, XXI asr telefoni, marketing, biznes, dam olish va boshqalar.

Barcha xizmatdagi foydalanuvchilarni qiziqtiradigan narsalar tezkorlik; arzon global aloqa; mulokot va axborot almashuvidagi qulaylik; kira olinadigan dasturlar, ajoyib tarmoq zaxiralari va boshqalar. Ular global tarmoqni o'zlarining xususiy intellektual

imkoniyatlarga ko'shimchadek qaraydilar.

Xozirgi vaqtda axborot asri boshlanajagi, unga bo'ladigan talab va talabgorlar sonining to'xtovsiz oshib borajagini hamma anglamoqda. Tabiiyki, ishonchli va operativ axborotsiz vaqt bilan baravar qadam tashlab bo'lmaydi, inson faoliyatining xoxlagan sohasida qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun barchamiz har xil Internet xizmatlaridan potentsial foydalanuvchi bo'lib boramiz.

## 2. Internetda axborotlarni ifodalash

Shunday qilib axborot bugun hozirgi zamon odami xayotida eng muhim birlikka aylanib bormoqda. Axborot o'z bilimini boyitishga yordam beradi, dunyoqarashini kengaytiradi va madaniy farovonligini yaxshilaydi. Internetga kirish axborot xazinasiga kirishdek, foydalanuvchilarga cheksiz bilim qatlamini ochib beradi va qiziqarli onlarga, yaxshi tadqiqotlarga ega bo'lgan foydalanuvchilar uchun juda katta keng miqyosdagi imkoniyatlar beradi.

Xalqaro aspektda Internet bilimi erkin axborot almashuviga, xalqaro tajriba almashuviga, aloxida tijorat munosabatlarini utkazishga va er sharining xil nuqtasidagi odamlarni bir biri bilan bog'lanib turishiga shart-sharoitlar ochib beradi. Internet bilimi faqat saxifama- saxifa ko'chib o'tish va kerakli axborotni tezda topish degani emas. Internet bilimi deganda yuqoridagilarga qushimcha ravishda unga o'zining axborotini joylashtira bilish tushuniladi. Bunda shunday joylashtirish kerakki, oqibatda bu axborot foyda keltirsin. Internetda axborotni joylash uchun Web saxifa zarur. Unda axborotni ustun bo'ylab, satr bo'ylab yoki jadvalda o'rnatish mumkin va shu bilan birga chiroyli qilib bezatilgan bo'lishi kerak. Web - saxifa axborot foydalanuvchi xoxishiga qarab joylanishi mumkin. Bunday saxifalar talablari asosida yaratiladi va dinamik Wem saxifalar deyiladi. Barcha ifodalangan axborotlar mazmuniga bog'liq ravishda saxifa bo'yicha aloxida mavzu bo'lib tarqalishi mumkin. Lekin foydalanuvchi ega bo'lgan axborot uchun bir saxifa oraliq'i etmay qolishi mumkin. U xolda axborot o'zaro yagona mavzu bilan bog'langan, umumiy jixozlangan, bir-biri bilan gipermatnli dastaklar (sso'lkalar) bilan bog'liq bir qancha Web - saxifalarga tarqatiladi. Xar xil saxifalarga tarqatilgan va o'zaro dastaklar to'ri bilan bog'langan xujjat gippermatn deyiladi. Bunday saxifalarning barchasi birgalikda bus-butun informatsion birlik Web - saytni tashkil etadi. Web - saytlar Internetda yagona informatsion oraliqqa birlashtiriladi. Bunda Web - sayt va Web saxifalar o'zaro xar xil dastaklar bilan bog'lanadi. Bu yagona oraliq World Wide Web (butun dunyo to'ri) yoki qisqacha WWW deyiladi. U haqiqatan, xuddi to'r kabi dastaklar bilan o'ralgandir. Sayt so'zining Inernet terminalogiyasida tasdiqlanganligiga xali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ilgari bu ma'noda WWW saxifasi, WWW uzeli yoki WWW serverlar birikmasi ishlatilar edi. Web - saytlar joylashgan axborot axamiyatiga qarab, qo'yilgan maqsadga bog'liq ravishda o'zgarib turadigan alohida standartga ega bo'lishi ham mumkin. Global ifodalash uchun xamma kompyuterlar tushunadigan va aloqa kanallari orqali uzatishda qulay bo'lgan kichik o'lchamli universal til ishlatiladi. Ma'lumki WWW da ishlatiladiga bunday ifodalash tili HTML xisoblanadi. U quyidagi maqsadlarni amalga oshiruvchi vositalarga ega:

- Sarlavxali, matnli, jadvallli, ro'yxatli, fotografiyali va sh.k. elektron xujjatlarni nashr etish.
- Gipermatn dastakda sichqonchani chiqillatib elektron axborotni yuklash;
- Uzoqdagi xizmatlar bilan aloqada bo'lish uchun, axborot qidiruv ishlarida foydalanish uchun, dasturiy maxsulotlarga buyurtma berish va sh.k. usul forma ishlab chiqish;
- Elektron jadvallarni, videoklip, ovoz fragmentlarini va boshqa ilovalarni bevosita xujjatlarga kiritish.

Xar bir Web - saxifa HTML tilining boshqa loyixalaridan foydalanish ishlari bilan bog'langan. Ular ixtiyoriy saxifa ko'rinishini va ular xar xil dastaklar joylashuvini aniqlab beradi (rasmlardan matnli xujjatlargacha). Shu bilan birga HTML boshqaruv loyixalari yordamida saxifa umumiy «sklet» i aniqlanadi va keyinchalik ular matn, rasm, dastak va sh.k. deb ataladi.

Web – sayt asosida Internetda axborotni ifodalash shaxsiy saxifani yaratishda butunlay farq qiladi, chunki dunyoda saxifani tadqiq qilishdagi barcha ishlar butunlay kompyuter egasi elkasida bo'ladi. Web – saytni yaratishdagi ishlar ijodiy xarakterga ega bo'lib, Unda xar biri o'z vazifasini bajaruvchi ma'lum miqdordagi mutaxassislar ishtirok etadi. Masalan, yirik tashkilotlarda dizayner – sayt uslubini yaratadi; rassom - badiiy jixozlar va grafiklarni tayyorlaydi ;Web - master HTML - vositasi bilan sayt verisini; dasturchi sayt uchun dasturiy modullarini yozish; yozuvchi – sayt matnlari va maqolalarni tuzish; kontent master - saytga joylashgan materiallarni tanlash va ko'zdan kechirish; analitik saytdagi axborotlar ommaviyligini analiz qilish; trafikani analiz qildish, statistik iishlarni olib borish; server administratori – dasturiy apparat kompleksining ish qobiliyatini quvvatlash xavfsizligini ta'minlash; menejer - marketolog tashkilot va partnerlar bilan aloqada bo'lish; reklama faoliyatini olib borish, sayt davomatini ta'minlash va b.k.

Tabiiyki shaxsiy axborotlarni yoki juda katta bo'lmagan firma va tashkilotlarni, shu bilan birga sayt boshlang'ich versiyalarini Internetga taqdim etishda barcha mutaxasislarga ega bo'lish shart emas, odatda bitta yoki ikkita profesional bajaruvchilar bilan qoniqish xosil qilinadi.

Sayt yaratish ishlarini boshlashdan oldin, Internetga taqdim qilinajak axborotning maqsad va vazifalarini aniq aniqlab olish zarur, ya'ni kim uchun muljallangan, sayt qanday axborotni taqdim qiladi; saytingizga potensial Internet mijozdaminig qiziqishi qanday darajada va b.k. Bunday va shunga o'xshash savollarga berilgan javoblar saytning taxminiy ko'rinishini, strukturasini va xajmini beradi.

Bunday sayt dizayni va mazmuni o'zaro biri – birini to'ldirib berishini esdan chiqarmaslik kerak.

Qoida bo'yicha Internetda axborotlarni taqdim qilish bo'yicha ishlar Web – saytni yaratish bilan tugamaydi. Vaqt o'tishi bilan yangi texnologiyalar, yangi fikrlar paydo bo'ladi ekspluatatsiya qilish davrida xar xil yondashishlar tabdiqdan so'ng echilishi mumkin bo'lgan ba'zi bir texnologik savollar yuzaga keladi. Shuning uchun Web – saytni quvvatlab turish bo'yicha ishlar, umuman doimiy xisoblanadi va ular xabarlarini yangilab turish, sayt tashrif buyuruvchilari o'rtasidagi dialoglarni quvvatlab turish va elementlarni tabdiq qilish kabi ishlarni bajaradilar.

Xozirgi vaqtda eng ko'p tarqalgan axborotlarni taqdim qilish xili – bu shaxsiy saytlardir. Ular ko'pincha «saxifalar» – deb ataladi. Ko'p hollarda saytning bunday - xar-xilligi o'zini birinchi marta Web – dizayner roliga xis etgan tomonidan bajarilgan. Shuning uchun bunday saxifalar maxsus professional dizaynerlar bilan farqlanmaydi. Asosan shaxsiy saxifalar dizayni yoki yorug' rangli palitra bilan yoki saxifalar o'zlarida faqat matnlarni kiritib qo'yadilar.

Axborot taqdim qilish xilmaxilligiga yana davlat ta'lim va moliyaviy strukturalar tasarrufidagi noprofessional korxonalar va tashkilotlar, ilmiy markaz va kutubxonalar va sh.k. ning Web - saytlari kiradi. Bunday saytlar odatda, qandaydir darajada odatiy standart jixozlanishiga ega bo'ladilar, asosan ularda o'zgarimas statistik ma'lumotlar salmog'i ko'proq bo'ladi. Bunday saytlar ishlab turishning asosiy vazifasi konkret maxsuslashgan axborotlarni taqdim etilishdadir yaratishdir. Bunday saytlar asosan, profesional dizayner tomonidan bajariladi. Yirik tijorat kompaniyalari ko'proq tashrif buyuruvchilar e'tiborini jalb qilish maqsadida sayt qiyofasini tez-tez o'zgartirib turadilar.

Eng ta'sirchan va e'tiborli sayt – bu sayt kontenti xisoblanadi. Bu kategoriyaga xar xil qidiruv sistemalari, sayt yangiliklari va sharxlovchilar kolonka(ustun) lari va ta'lim resurslari kiradi. Bu tipdagi saytlar uchun xuddi notijorat saytlar kabi jixozlanishi muximligi bo'yicha mazmun yuqori o'rinda turadi, shuning uchun ularning o'rtamiyona dizayn darajasi tijorat kompaniya va firmalar saytlariga nisbatan, sezilarli darajada past. Umuman, aloxida e'tiborni jalb qiladigan dizaynlar kotent saytlarga zarur emas. Ko'p marta va doimiy bo'ladigan tashriflarga muljallangan bu kabi shukli jixozlash elementlarini minimallashtirishga intiladilar.

Bundan maqsad shuki, o'quvchilar o'zlarning qimmatli vaqtlarini grafikani o'zgartirishga sarf qilmasinlar va ularni asosiy mazmundan xech narsa chetga tormasin.

Internetda axborotlarni taqdim qilishda saytning yuzi xisoblangan birinchi saxifa asosiy rolni o'ynaydi. Doimo birinchi saxifa manzili sayt manzili deb xisoblanib kelingan. Birinchi

saxifani o'quvchi e'tiboridagi yorug' fotografiya, chiroyli nom va yirik sarlavxali bosh maqola, nomerli jurnal muqovasi bilan solishtirish mumkin. Agar birinchi saxifa e'tiborni jalb qilaolmasa, u xolda sayt tashrif buyuruvchilari birinchi saxifadan nariga o'tmaydilar. Birinchi saxifani jixozlash uslubi saytnikiga mos kelishi kerak. Ko'pincha erkin xolatda xarxil jiplashtirish va cho'zish vositalaridan foydalanib birinchi saxifaga ko'p miqdordagi axborotlarni joylashga to'g'ri keladi.

Xar bir sayt saxifasi unga qo'yiladigan qator talablardan tashqari tashrif buyuruvchining ikkita savoliga javob berishi kerak» – «Men qaerdaman» va « Bu erdan men qayoqqa borishim kerak. Buning uchun internet bepayonligidagi muljallash va xarakat qilish vositasidan, ya'ni navigatsion tizimdan keng foydalanish kerak. Sayt navigatsion tizimi roli uning boy saxifasining alohida roli bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. Agar endigina tashrif buyuruvchili sayt ichida juda bo'lmasa bir qadam tashlashga ishonirilsa, u holda u qizib kolib, saytdagi taqdim qilingan xamma axborotlarni to'la-to'kis tadqiq qilib chiqadi. Internetda axborotlarni taqdim etishning maqsadi va mohiyatini mana shunday izoxlash mumkin.

### **3. Web – sayt yaratish va o'rganish muammosini aktuallashtirish**

Iqtisodiyotni globalashtirish sharoitida informatsion madad istagan darajadagi tashkiliy xo'jalik faoliyatining unumli rivojlanishiga, aholining axborotlashitirilganligi va farovonligini o'sishiga va odamlar o'rtnasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilanishiga ko'maklashuvchi muhim elementlardan biriga aylanib bormoqda. Bunday yutuqlar keng ko'lamli WWW tarmog'i va unga joylashgan Web – saytlarning doimo ishlab turishi evaziga erishiladi. Shuning uchun xozirgi vaqtda har bir tashkilot yoki har bir shaxs, qaerda ishlashidan qat'iy nazar, Internetda o'z joyini yaratish zarurligini tushunmoqda. Chunki bu usul natijasida butun dunyoga o'zi to'g'risida, o'zining ish faoliyati to'g'risida gapirish va internetning bepoyon resurslaridan o'z maqsadi yo'lida foydalanish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Axborotni Internetda joylash uchun, yuqorida aytilganidek, uni ekranda aks ettirish uchun qulay bo'lgan ko'rinishda, ya'ni Web – sahifa ko'rinishida taqdim etish zarur, chunki bu sahifada joylashtirishni xoxlagan foydalanuvchi axboroti har tomonlama bo'lishi va u ko'p xollarda Web – saytda joylashishi mumkin.

Aql bilan yaratilgan sayt, qoida bo'yicha, informatsion yagona bus-butun hisoblanadi va joylanajak axborot mohiyatiga qarab alohida kriteriya va standartlarga ega bo'ladi, va ko'plab tashkilot va muassasalar, xususiy foydalanuvchilar uchun o'zlarining tashkilot va shaxsiy ish faoliyatlarida Web – texnologiyani va uning elementlarini tadbiq etish bo'yicha ko'plab har xil eng muhim muammolarga duch kelinadi. Bu Web – saytlar Internet serverlarida joylashguncha va nashr qilinguncha Web – texnologiya va dizayn asoslaridan yuqori va chuqur bilim talab qiluvchi, ko'pqirrali va professional – intellektual ishdur. Va bu muammolar zamonaviy Web – texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar etarlicha bo'lgandagina echiladi. Shuning uchun Web – sahifa yaratish va uni o'rganish jarayoni, shu berilgan yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kun uchun juda muhim va aktual hisoblanadi. Bu mutaxassislik kuchli va kelajagi porloq professiya, u hozir ham, kelajakda ham hamisha, o'z o'rniga ega bo'ladi.

Boshqa tomondan Web – saytlarni yaratish va o'rganish muammosining aktualligi va muhimligini quyidagi sabablar bilan asoslash mumkin:

- Taqdim qilinayotgan Internet servis xizmatlari muhitini ko'p miqdorda kengayishi va ulardan foydalanishning osonligi bilan;
- Tarmoq Web – texnologiya, ularning resurslari va imkoniyatlarini hamma joyda tarqatish bilan;
- Istagan darajali axborotlarga bo'layotgan talabalarning o'sib borishi bilan;
- Tashkilot va xususiy shaxslarning o'zlari va o'z ish faoliyatlarini to'g'risidagi axborotlarni internetda joylash uchun intilishlarning o'sishi bilan;
- Tarmoq ma'lumotlar bazasidagi global mashtabdagi har xil maqsaddagi axborotlarga e'tibor qaratish bilan;



- Har xil mamlakat, millat va fan odamlarining o'zaro muloqat va tushunishlarga bo'lgan intilishi bilan;
- Web – texnologiyaning baocha yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislarning etishmasligi bilan.

#### **4. «Web – sayt loyihalash» kursining predmeti, mazmuni va uning asosiy maqsadlari va vazifalari**

Bugun kompyuter texnologiyalari dunyodagi intensiv ravishda rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biriga aylanib barmoqda. Kompyuterlar asta-sekin odamlar xayotiga kirib barmoqda. Ularsiz intellektual ishchining ish joyini ko'z oldiga keltirish mumkin emas. Kompyuter texnologiyasining rivojlanish oqibatidagi Internet va Web – texnologiyalar xuddi shunday, kompyuterning ajralmas bir qismiga aylanib qoldi. Ular xususiy odamlarning yashash faoliyatida korxonalar va tashkilotlar, shu bilan birga davlat strukturalarida juda muhim rol o'ynamoqdalar. Va bu Web – texnologiya, Web – sayt yaratish va loyihalash muammolarini sistemali o'rganish zarurligini aniqlab berdi. Shu sababdan bu yo'nalish mutaxassislarga, ularning informatsion intellektualligi va madaniyatiga yuqori talablar qo'yilmoqda. Tashkilot va muassasalarning ishlab turishi samarasi, mutaxassis va umuman, jamoaning muvaffaqiyati tadqiqotchilari va foydalanuvchilarning zamonaviy kompyuter va Web – texnologiyani yangi informatsion texnologiya uslublari va instrumental vositalarni qanday darajada o'zlashtirib olganliklariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun «Web – sayt loyihalash» kursi informatsion texnologiyaning yangi va samarali yo'nalishini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsan, Web – texnologiya va www butun dunyo chulg'aminin ishlab turish asoslarini, Web – sahifa – saytlarni yaratish va rejalashtirishni va ularni Internetga joylash va reklama qilishni.

O'quv kursining asosiy bo'limlari HTML va uning instrumentlari nima, Web – sahifa loyihalash uchun zaruriy asosiy konseptsiyalar, sahifa matnini qanday kiritish, jihozlash va formatlash, gipermatn aloqalarni tashkil etish, multimediyalar, vositalari, jadval va grafikalaridan foydalanish va shu kabilarni bilib olishga yordam beradi. Shu erni o'zida dizayn va Web – sayt reklamalari, amaliy va istiqbolli HTML – muharrir va instrumental vositalar foydalanuvchilar va tashrif buyuruvchilar va shu kabilarni to'g'risidagi savollar yoritib beriladi.

Shunday qilib, mazkur fanni o'rganish oqibatida, «Web – sahifa (sayt)ni yaratish uchun men nima qilishim kerak», - degan savolga, www va Web nima degani va qanday qilib o'z sahifa va saytlaringizni bu yangi informatsion texnologiyaga tadbiiq qilish to'g'risida kerakli aniq ma'lumotga ega bo'lasiz.

Tabiiyki, bunday muammolarni hal etish uchun tadqiqotchilar ham, foydalanuvchilar ham Internet ishlaridan ma'lum miqdorda bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab etiladi. Demak, o'quv kursining asosiy maqsadi va vazifasi uni o'rganib chiqish oqibatida quyidagilarga ega bo'lishga qaratilgan:

- Talabalarda zamonaviy www va Web – texnologiyalar, HTML belgilash tili va uning konstruksiya va instrumentlari to'g'risida ma'lum miqdordagi bilimni shakllantirish.
- Talabalarni Web – sahifa va saytlar yaratish va loyihalash bo'yicha zaruriy bilimlar bilan ta'minlash;
- Misrosoft Frennd paqe muxarriri bilan ishlashda va Web – sayt yaratish bo'yicha Word 200x imkoniyatlaridan foydalanishda amaliy ko'nikmalarni o'rganish.
- Talabalarni internetda Web – saytni joylashtirish va reklame qilish bo'yicha kerakli bilimlar bilan ta'minlash.

Talaba kursni o'zlashtirish natijasida quyidagilarni bilishi kerak:

- Internet global tarmog'i va uning xizmatlari, www butun dunyo cho'lg'ami, Web – texnologiya to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lish;
- HTML tilining tuzilishi va asosiy instrumental vositalarini;
- Zamonaviy Web – texnologiya va Web – sayt yaratish va loyihalashga bo'ladigan talab va printsiplarni o'zlashtirishni;

- Zamonaviy HTML muharrir va Web sayt loyihalash tili imkoniyatlari to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lishni;
- Web – sayt yaratish va tadqiq qilishni;
- Axborotni jadval va ro'yxat ko'rinishida tashkil qilishni;
- Matnning uslubli jihozlashlanishni amalga oshirish, unga grafika va rasmlarni, animatsion elementlarni, audio va videokliplarni o'rnatishni;
- Boshqa sahifa va saytlarga, ularning turgan joyidan qat'iy nazar, giperhavola qilishni;
- Internetda Web – saytni joylashtirish aniqlash va reklama qilishni.

### 1-Mavzu bo'yicha xulosa

Internet xizmatlaridan ikkita xizmat spektriga alohida e'tibor berish kerak, ya'ni tarmoq abonentlararo axborot almashuvi va axborot qidirish va tarmoq berilganlar bazasidan foydalanish. Xizmat taraqqiyotining samarasi to'g'risida gap ketganda barchamiz har xil Internet xizmatlaridan potentsial foydalanuvchiga aylanib qolishimizni ta'kidlash zarur.

Internetda axborotlarni ifodalash taqdim qilinadigan axborot xiliga bog'liq bo'ladi, ya'ni shaxsiy yoki unga katta bo'lmagan firma va tashkilotlar; davlat tasarrufidagi Web –saytlar; ta'lim va moliya strukturalar; ilmiy markaz va kutubxonalar; xayr – exson uyushmalar; tijorat uyushma saytlari; kontent – saytlar axborotlarini taqdim etish. Ayniqsa, saytning birinchi sahifa jihoziga alohida e'tibor qaratish kerak.

Web – saytni yaratish va uni o'rganish tmuammolarining ko'plab sabablarga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Internet xizmatining kengligi; xizmatdan foydalanishning oddiyligi; Web – texnologiyalarni tarqatishdagi qulaylik; real vaqt mashtabida axborotlarga bo'lgan talablar; tashkilot va xususiy shaxslarning o'zlari to'g'risidagi axborotlarni Internetga joylashtirishga intilish; tarmoq ma'lumotlar bazasida global mashstabdagi ixtiyoriy ma'lumotlarni to'plash; Web – texnologiya bo'yicha mutaxassislarning etishmasligi.

### Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Internet xizmatlari deganda nima tushuniladi va uning xillari?
2. World Wide Web (WWW)?
3. Gipermatn g'oyasining mazmuni?
4. Gipermatn g'oyasini amalga oshiruvchi to'rtta asosiy vositalar?
5. HTML – xujjatlarni gipermatnli belgilash tili?
6. Internetda axborotlarni joylashtirishning xarakterli xususiyatlari?
7. WWW da butun informatsion birlik qanday ifodalanadi?
8. Web – sayt va uning asosiy xarakteristikallari?
9. Taqdim qilinadigan axborot xili bo'yicha saytlarning asosiy tiplari?
10. Kontent – saytlarning xarakterli xususiyatlari?

### 2-Mavzu: Word Wide Web (WWW) ning tashkil etish tamoyillari

Ajratilgan soat – 2

Asosiy savollar:

1. Internet protokollari.
2. "Klient – server" arxitekturasi va brauzerlar
3. Web saytlarning asosiy loyihalashtirishning tamoyillari.

### Tayanch tushuncha va iboralar:

Word Wide Web, Internet protokollari, web brauserlar, klient-server, loyihalash tamoyillari, Internet Explorer, Mozilla, uzel, Netscape Communication, Web – sayt tadqiqotchisi, biznes sayt, xosting, domen nomlarni.

4	<p><b>Natijalarni eshitish va tahlil qilish bosqichi:</b>  - talabalar va mikrogruh fikri tinglanadi, ularga aniqlashtiruvchi savollar beriladi.  - mikrogruhlarning javoblari to'g'risida talabalar fikri aniqlanadi.  - javoblar tahlil etiladi.</p>	O'qituvchi - talaba
5	<p><b>Yakuniy va baholash bosqichi:</b>  - talabalar bergan javoblardan ko'pchilik fikriga mos kelgani alohida ajratib olinadi.  - talabalarning nazorat topshiriqlarini echishdagi faolligi, intilishlari hisobga olingan holda baholanadi.  - yakuniy fikr aytiladi.  - mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p>	O'qituvchi

### 1. Asosiy savol bayoni:

#### Front Page mohiyati va u bilan tanishib chiqish.

Microsoft Front Page Web-uzelni dasturlashsiz tezda etkazish va unda professional ravishda tayyorlangan xujjatlarni nashr etish imoniyatini beradigan maxsus vosita hisoblanadi. Frontpage ilovasining interfeysi Office interfeysigaga o'xshash interfeysga ega HTML saxifasi bilan ishlash uchun mo'ljallangan instrumentlar, shu jumladan uzoqdagi ko'p marta foydalanish rejimi va wysiwc rejimi xam shunday. Front Page tarkibiga wep-uzellarni va HTML va -sahifalarni interaktiv tadqiq qilishda ishlatiladigan master va shablonlar kiradi

Front Page so'zi odatda, qaydaydir saytning asosiy bosh sahifasini anglatadi va bu saxifalarni yaratuvchi dasturlar ham shu nom bilan ataladi. Dastur ishlashda juda oddiy, lekin juda ko'plab ishlarni bajarishga imkon beradi.

Front Page saytlarining to'g'ri ko'rish xususiyatlarini ko'rib chiqish, grafika bilan bog'liq muammolarni, saytni xarxi multimediyali to'ydirish variantlarini, saxifaning mazmunli qismi va uning yuklash tezligi orasidagi balansni topishga imkoniyat yaratib beradi. Frontpage da qaror va



usullar to'plamini ko'rib chiqishdagi kundalik ishlarimiz ma'lumotlaridan foydalanib sanoat saytlarini bajarish mumkin. Shunday qilib saytni korporativ ma'lumotlar bezashga bog'lash va u bilan distantsion rejimda to'g'ri ish tashkil etish mumkin bo'ladi. Sayt yordamida mijozlar bilan mana shunday ishlar tashkil etilganda tashkilot xizmatchilari o'z ishlarini ofis tashqarisida ham bemalol bajarishlari mumkin bo'ladi. Elektron tijorat uchun ham saytlar yaratish ham uzluksiz axborotli xavfsiz sayt vositalarini tashkil qilish mumkin. Bu ishlarning barchasi dasturlashsiz olib beriladi.

MS Front Page 2000-bu WEB-saytlarni quvvatlab turuvchi kuchli sistemaning yangi versiyasi (versiya 4.0) dir. U WEB uzelni yaratishdagi oddiyligi, Microsoft Office ning boshqa ilovalari bilan uzviy bog'lanish imkoniyati mavjudligi bilan ajralib turadi.

MS Front Page 2000 ning MS Front Page 98 ga nisbatan afzalligi:

1. Web-saxifa elementlarini aniq o'rnatuvchi yuqori darajali Web-uzellarni tez va professional tarzda yaratish, NTML fayllarini import qilish va taxrir qilish, Web-saxifalar yaratish buyicha yangi texnologiyalarni qo'llash mumkinligi;

2. Taxlangan qulay NTML-muxarririning mavjudligi (foydalanishda eng qulay NTML-kod generatorli WYSIWIG muxarriridan tashqari).

3. Ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilishning osonligi. Bu ma'lumotlar bazasiga bo'lgan talablar joylashuvini qo'laqshirishda va ularni Web-saxifalarga taxlashda ifodalanadi. Bunda yaratilajak Web-saxifalarda axborotlarni yangilash imkoni paydo bo'ladi. Bu xodisa foydalanuvchi brauzer darchasini ochganda yoki ularni yangilaganda sodir bo'ladi.

4. Uning to'g'ri ishlashiga ishonch xosil qiluvchi yaratilajak Web-uzelning hamma komponentlarining aks etishi. Bu Web-uzelni yangilash imkoniyatini yaratadi. Web-uzelni analiz qilish va yangilash yangi statistik hisobotlar evaziga ham sodalashadi. Odatda ular tarkibiga fayllarining umumiy soni va razmeri, sekin yuklanadigan sahifalar, foydalanmagan fayllar va uzilgan giper bog'lanishlar to'g'risidagi axborotlar kiradi.


5. Rutinli ishlarni avtomatik ravishda bajarish bu ob'ektlar nomini yoki joyini o'zgartirilganda saxifa va fayllardagi barcha xavolalarni avtomatik tarzda tuzatish, berilgan kategoriyaga taalluqli barcha xujjatlariga xavola (sso'lka)larni avtomatik tarzda joylash).

Front Page 2000 da Front Page Explorer va Front Page Editor dasturlari bitta ilovaga birlashtirilgan. Frontpage 2000 15 tagacha tilni quvvatlaydi, Windows Installer Tehnology dagi ilovalar instalyasining yangi texologiyasidan foydalanib kompyuterga osongina joylashaoladi. Uning yordami bilan talabga binoan ish olib borish, serverdan yuklash va ilovaning mustaqil ravishda tiklanishi ta'minlanadi.

Web-uzel yaratishda va uni boshqarishda eng qulay instrumentlar bilan ta'minlab tursada Front Page Express versiyasi zamonaviyligi buyicha biroz orqada turadi.

#### **Front Page 2000 ning standart darchasi.**

Front Page 2000 ning standart darchasi rasm. 4.1. da ko'rsatilgan.



**Rasm 4.1. Front Page 2000 ilovasining tashqi ko'rinishi.**

Yuqorida ko'rsatilganidek MS Office darchasida ishlash uchun xar xil vositalar keltirilgan.

**Sistema menyusi tugmasi** - Frontpagening tashrif kartochkasi darchaning chap yuqori burchagida joylashgan. Sistema menyusini ochish sistema menyusidagi click piktogrammasi orqali bajariladi.

**Yonma - yon sarlavxa satri** joylashgan. Darcha ning o'ng yuqori burchagida uchta tugmalar uning ajralmas elementlari xisoblanadi va xizmatchi tugmalar deyiladi. Agar chapdan o'ngga sanab chiqsak, bu tugmalar vazifalari -quyidagicha:

- birinchi tugma - burmoq - faol dasturni masalalar panelidagi tugmaga buradi.
- ikkinchi tugma - tiklamoq - faol dasturni ekranning bir qismini yoki himoyasini egallashga majbur qiladi.
- uchinchi tugma - yopmoq - darchani yopadi.

Sarlavxa satri va instrumentlar paneli orasida Front Page ning Bosh menyusi joylashgan. Menuyu ikki paneldan tashqari Front Page ning buyruqlari va vazifalari bilan tanishishda diqqat bilan kuzatish ob'ekti xisoblanadi.

Menuyu satri ostida va ekranning yuqori qismida asboblar paneli joylashgan Front Page 2000 juda ko'p miqdordagi panellarga ega. Ularsiz dasturlar bilan ishlashda ancha qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Asboblar paneli sichqonchani odiygina chiqillatish bilan Front Pagening eng ko'p ishlatiladigan ko'plab funksiyalariga kirish imkonini yaratadi. Tadqiqotchilar dasturlarga eng ko'p foydalaniladigan va foydali funksiyalarni kiritdilar, vaxolanki ular Web saxifalarni yaratishda juda zarurdir. Menuyu va asboblar panelini o'zlashtirishda qiyinchiliklar bo'lmasligi kerak.

**Asosiy ish maydoni** xarakterlanuvchi chegara (splitter) bilan ikki tengsiz qismga ajratilgan chapki qismi (Views) Front Page ish rejimini ishga ttshirish tugmalariga ega. O'ng qismi ko'rsatilgan rejimda ishlash uchun mo'ljallangan asosiy axborotni o'z ichiga oladi.

Saxifalarni loyixalash uchun indamaslik bo'yicha Page rejimi o'rnatilgan. Bu rejimda o'ng qism foydalanuvchini yaratuvchi saxifaning o'zida aks ettiradi.

Ishchi oraliqning o'ng qismi loyixalajak saxifaning xarxil rejimda aks etishini ko'rsatib tsvuvchi uchta varaqdan iborat. Normal rejimi loyixalash rejimi uchun, HTML - HTML kodi saxifasini ko'ri chiqish uchun, Preview esa uzoqdagi foydalanuvchi tomonidan yuklash paytida brauzerda aks etadigan loyixalajak saxifani ko'rsatib turish uchun xizmat qiladi. Normal va preview saxifalari faqat matn va grafik tasvirlarga ega bo'lgan oddiy saxifalar uchun bixil bo'ladi. Saxifalarga videolavxalar yoki saxifaning qandaydir faol elementlari joylashtirilgan taqdirda ular bir-biridan farqlanadi.

Micrpsonft Front Page darchasining eng pastki qismida status satri joylashgan. Foydalanuvchiga dastur tomonidan berilishi lozim bo'lgan barcha xabarlar bu satrda xabar ko'rinishida paydo bo'ladi. Birinchi qarashda unda xech qanaqa muhim bir narsa yo'qdek tuyuladi. Ammo status saytni xabar ko'rinishida paydo bo'ladi. Birinchi qarashda unda xech qanaqa muxim bir narsa yukdek tuyuladi. Ammo status satrida anik loyixalash uchun juda kizikarli va zarur axborotlar mavjud. Qum soat tasvirli bo'limda esa muayyan aloka tezligida joriy saxifaning yuklash vakti kursatiladi. Indamaslik buyicha 28.8 K bod tezligi ishlatiladi, lekin uni uzgartirish variantlari bor. Sichkonning istalgan tugmasi click va standart tezliklar - 14.4; 28.8; 56.6 K bod ruyxatini chikarib beradi. Standart tezliklardan tashkari xar xil utkazish kobiliyatli ajratib kursatilgan chiziklar standartining ICDM? T1 àà T3 parametrlaridan kelib chiqqan xolda, yuklash tezligining xisoblash imkoniyatlarini topish mumkin.

Umuman Pront Page murakkabligi bilan farqlanmaydi, ishlash printsipi odatdagi MS Word ga o'xshaydi. Matn va jixozlash elementlari xoxish saxifadarida joylashadi, kiritilgan o'zgarishlar uchun esa ob'ekt ajratiladi va uyga kerakli xarakatlar qo'llaniladi.

## 2.Ish rejimlari


Pront Pageda quyidagi ish rejimlari qo'llaniladi:

1. Page - loyixalash rejimi.
2. Folders - sayt strukturasi aks ettirish rejimi.
3. Reports - sayt to'g'risidagi zaruriy axborotlarni aks ettirish rejimi.
4. Navigation - sayt navigatsiyasi rejimi.
5. Hyperlinks - ichki va tashqi aloqalar strukturasi rejimi.
6. Task - topshiriq va masalalarni boshqarish rejimi.

Saytni yaratish Web - saxifani loyixalash bilan tamom bo'lmaydi. Yuqorida aytilganidek, indamaslik bo'yicha barcha parametr va zaruriy dizaynlar bilan Web - saxifa yaratiladigan Page loyixalash rejimi o'rnatiladi. Sayt yaratishda saytning ichki strukturasi, tashqi va lokal giperbog'lanish sxemasini, xaqiqiy navigatsiya sxemasini qkvvatlashni va nazorat qilishni inobatga olish zarurdir. Bu barcha vazifalar Frontpage tomonidan quvvatlab turiladi.

Folders rejimi sayt strukturasi aks ettirish uchun mo'ljallangan. Asos - papka strukturasi to'g'ri yaratish, ulardan biriga grafik fayllar, boshqasiga fayl elementlar joylashadi. Ba'zi papkalar Web - saxifalarni tematik saqlash uchun ishlatiladi.

Folders o'tish tugmasi bilan strukturaning aks etish rejimi ( rasm 4.2. ga qara)



Rasm 4.2. Folders ish rejimi.

Windows standart provodnigi sayt strukturasi aks etishiga o'xshab ketadi. Chap qismi (Folder List)da yaratilajak sayt papkasining daraxtsimon strukturasi ko'rsatiladi. O'ng qismi esa papkardan tashqari fayllarni ham ko'rsatiladi. Saytning daraxtsimon strukturasi Page rejimi (asosiy asboblardagi Folder List tugmasi yoki View – Folder List)da ham ko'rsatish mumkin. Folders rejimida sayt daraxting aks etishi majburiy hisoblanadi. Shuning uchun yuqorida ko'rsatilgan tugma va menyusida erishish qiyin.

Umuman, bu rejim informatsii rejim hisoblanib, unda fayl strukturasi to'g'risida maksimal to'la axborot beriladi. Ishchi oraliqning asosiy qismi jadval ko'rinishida qurilgan.

**NAME** - qatorida fayl yoki papka nomi ko'rsatiladi.

**NAME** – sahifa sarlavhasi yoki sayt qolgan elementlari nomini ko'rsatadi.


**Size** **lu Type** – fayl o'lchami va uning kengayishi ko'rsatadi.

**Modified Datea** – soni va qaysidir saytning oxirgi o'zgarish vaqtini ko'rsatadi.

**Modified Bu** – oxirgi fayl nomi.

**Cowwents** – sharhlarni joylashtirish uchun.

Reports rejimini tanlashdagi Reporting faollashadigan darchasi. (rasm 4.3.).



### Rasm 4.3. Reports ish rejimi.

Indamaslik bo'yicha sayt (Site Summary) to'g'risidagi hamma statistika indamaslik bo'yicha ko'rsatiladi. Jadvalning har bir satri – bu statistik kategoriya bo'yicha yig'ma hisobot. To'la hisobot satrlari (Reporting – Report yoki hisobot mos satridagi Dulle click):

**All files** – sayt barcha fayllarining miqdori va umumiy o'lchami.

**Pictures** – sayt grafik fayllarining miqdori va umumiy hajmi.

**Unlinked files** – saytning asosiy sahifasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan fayllar miqdori.

**Linked files** – sayt asosiy sahifasi bilan bog'langan fayllar miqdori.

**Slow pages** – 30 sekundan ortiq yuklanadigan HTML – fayllar miqdori («sust sahifalar»).

Sust sahifalarni aniqlashda vaqtinchalik kriteriyani o'zgartirish uchun imkoniyatlar mavjud.

(Reporting – Reports - Slow pages – Report Setting ro'yxati – vaqtinchalik kriteriyaning zaruriy qiymatlarini tanlash).

**Older Files** – aniqlangan kunlar mobaynida o'zgarmagan fayllar miqdori. (Indamaslik bo'yicha - 72). O'zgartirish mumkin: Reporting – Reports - Older Files - Report Setting. Muddati ko'rsatiladi; **Recently added Files** – oxirgi bir qancha kunlar mobaynida qo'shilgan fayllarning umumiy miqdori. (indamaslik bo'yicha - 30). O'zgarish: Reporting – Reports - Recently added Files - Report Setting. Muddati ko'rsatiladi;

Har bir giper bog'lanishni tekshirish mumkin va kerak. (Reporting – Verify Hyperlinks tugmasi yoki Tools – Recalculate Hyperlinks). Giper aloqalar to'g'risidagi axborotni aks ettirish uchun quyidagi satrlar ishlatiladi:

**Unverified hyperlinks** – berilgan vaqtdagi tekshirilmagan giper aloqalar miqdori.

**Broken hyperlinks** – ishlamaydigan giper aloqalar.

**Internal hyperlinks** – ichki giper aloqalar.


**External hyperlinks** – tashqi giper aloqalar.

Funksional saytlarni tashkil etishda aktiv elementlarsiz maqsadga erishish ancha qiyin bo'ladi. Ularni testlashtirish zarur. Aktiv elementlarni sozlashda va joylashtirishda uchraydigan ba'zibir xatoliklarni Front page 2000 ning o'zi topadi. Bunday xatoliklar to'g'risidagi axborotlar **Component error** satrida ja'mlanadi. Ishni tashkil qilish va rejalashtirish vositalari masalalarni tadbiiq etishda aniqlanadi. Barcha ishlar bajarilgach, ular tugallangan statusga ega bo'ladilar. Tasdiqlanmagan masalalar miqdori to'g'risidagi jamlangan axborotlar esa **Uncompleted tasks** satrida joylashgan.

Saytni rasmiylashtirishga mavzulardan foydalanish kiradi. Sayt uchun bitta yoki birnechta mavzularni ko'rsatish mumkin. Foydalanish uchun tanlangan, lekin bitta ham saxifada qo'llanmagan mavzular miqdori **Unused themes** satrida ko'rsatiladi.

Statistikaning ko'rib chiqish rejimidan **categories** (Report ro'yxatidan tushib qolgan) rejimini aytib o'tish joiz. Unda **fayl** tarkibiga kirgan u yoki bu ob'ektga taalluqli kategoriyalar ko'rsatiladi. **Publish status** da esa nashr etish tayyorgarligidan o'tgan yoki o'tmagan sayt elementlarini bilib olish mumkin.


**Navigation** rejimi sayt mantiqi va ichki strukturasini to'g'risidagi axborotni ko'rsatadi (rasm 4.4).



Rasm 4.4 Navigation ish rejimi.

Navigation rejimida ishchi maydoni ikkita darchaga ajratiladi, bittasida fayl daraxti aks etadi. Uning yordamida menyuga tegishli tugma va komandalarga bema'lol kirish mumkin.

Sayt bo'yicha navigatsiya giperaloqalar yordamida o'tadi. Saxifaning ichki va tashqi aloqalar strukturasi ko'rib chiqish uchun Hyperlinks rejimidan foydalanish zarur (rasm 4.5).




Rasm 4.5 Hyperlinks ish rejimi.

**Hyperlinks rejimida ishlash tamoyili:**

Sayt daraxtini ko'rsatuvchi Folder list darchasida kerakli Web-saxifa tanlanadi. Asosiy darchada kiruvchi va chiquvchi dastak (ssilka) lar sxematik ravishda ko'rsatiladi. Bu holda giperaloqalar ko'k rangli strelka bilan aks etadi; dastak hisoblanmagan aloqalar esa jigar rangli


chiziq bilan aks etadi. Xuddi shunday giperaloqali saxifalar ham o'rnatilgan plyus (+) belgisi bilan ko'rsatiladi. Bu belgi ustida chiqillatish uning o'zi uchun giperaloqani ifodalaydi. Bunda plyus belgisi minus (-) belgisiga o'zgaradi. Shu usul bilan ishchi maydonda saytning xamma tashqi va lokal giperaloqlarini kengaytirish mumkin. Saxifani ishchi maydon markaziga joylashtirishda aylantirish tasmasi va **Home center** (menyu konteksti) buyrug'idan foydalaniladi. Web-saxifaning u yoki bu belgisidagi Double click unda saqlanayotgan narsalarni taxrirlash mumkin bo'lgan Page rejimiga o'tkazadi. Ishning umumiy tsiklini tashkil qilishda **Tasks** rejimi qo'llaniladi. Bu rejimda mo'ljallangan topshiriqning bajarilish darajasini kuzatish mumkin. Front page da xoxlagan xatti-xarakatlarni rejalashtirish masala mohiyatiga qarab amalga oshiriladi. Masala qo'shimchasi: Edit task – Add task yoki tugmalar. Bunda dialog darchasi New task aktivlashadi (rasm 4.6).



**Rasm 4.6 New task dialog darchasi**

**Task name** maydonida masalalar nomi yoziladi. Yonma-yon prioretning uchta radiotugmalari (High, Medium– indamaslik bo'yicha, Low) joylashgan. **Assigned to** ruyxatida tushib qoladigan masalalar nomi ko'rsatiladi. Bu nomlar ishchi gurux a'zolari ismlari oldindan yozib qo'yiladigan matnli kiritish maydonidan tanlab olinadi. Topshiriqlarni qayd qilib berish uchun **Description** nomli matnli kirish maydoni qo'llanadi. Yangi masalalar u yoki bu Web-saxifaga biriktirilishi yoki mustaqil bo'lishi mumkin. Birinchi holda **Associated with** maydonida html-fayli nomi yoziladi.

Masalalarni boshqarish **Tasks** rejimida olib boriladi (rasm 4.7).



Rasm 4.7 Tasks ish rejimi.

Status kolonkasida masala statusi ko'rsatiladi (masala ustida ish xali boshlanmagan - **not started**; boshlangan, lekin tugallangan - **Not Completed** tugallangan - **completed**). Birinchi status **Start tasks** (**Edit-Task-Start**) buyrug'i bajarilgach olinadi. Masala bajarilgan keyin unga status (**Edit-Task-Work** as **Completed** yoki menyu konteksti tugmasi) nomi beriladi. Masalalar mohiyati to'g'risidagi barcha imkoniyatli axborotlar **Tasks** ish rejimining asosiy jadvalida aks etadi:

**Status** – status berilganligini bildiradi.

**Task** – identifikatsiyalashgan qisqa masala.

**Assigned to** – masala bajarilishi bo'yicha mas'ul shaxs nomi.

**Priority** – prioritet.

**Associated with** – bog'lovchi HTML – fayl nomi.

**Modified date** – sana va oxirgi o'zgarish vaqti.

**Description** – topshiriqning to'la shifr ochilishi.

Ixtiyoriy masala to'g'risidagi ma'lumotlarni status o'zgaruvchining standart mexanizmi (**Edit task** – komandasi)ni aylanib o'tib, to'g'ridan-to'g'ri kirish usuli bilan o'zgartirish mumkin. Bunda **Task details** darchasi aktivlashadi (rasm 4.6). Zaruriyat to'g'risida masalani yo'qotish mumkin (menyu kontekstidagi **delete** buyrug'i).

#### Front page ning asosiy instrumental vossitalari

Frontpage asosiy instrumental vossitalari yuqorida ko'rib o'tilgan edi ( 4.2 - Standart darchasi). Bu erda istagan asu yaratilgach, bajariladigan ishlarining ketma-ketligi ko'rib chiqiladi.

1.Saqlab kuyish ( **File-Save** As yoki instrumental paneli **IP** dagi tugmalar). Saxifa faylida darhol zaruriy nom berish tavsiya qilinadi, chunki standart nomlar joylashajak axborot mazmunini aks ettirmaydi (new-page-1. htm, new-page-2 htm va b.q). Eng yaxshisi nom berishda faqat lotincha va kichik harflardan foydalanilgani ma'qul. Sabab- ba'zi operatsion sistemalar kirilcha so'zlarni qabul qilmaydilar va rejimga juda sezgirilar.

Front Page ning ish boshida My Webs papkasidagi zaruriy kataloglar strukturasi yaratiladi, ular o'z navbatida xujjatlarni saqlash uchun extiyotlab olib qo'yilgan katalogda joylashgan bo'ladi. Bu strukturaga grafik tasvirlarni saqlash uchun - **imaqes** va yaratiladigan sayt uchun zarur ma'lumotlarni joylash uchun - **private** kataloglari kiradi.

Saxifadagi saqlash xuddi prewien saxifasida o'rnatilgan brauzer yordami va asosiy brauzer sistemasidek uni ko'rib chiqish imkoniyati uchun zaruriy shart-sharoit xisoblanadi. Saxifani jixozlashdagi faol elementlardan foydalanishda, sayt ko'zdan kechirish ( **Publikatsiya** )ga tayyorlanadi (**File-Publish Web** yoki **IP** tugmalari). Qarab chiqish yaratilajak saytning barcha saxifalari saqlanib bo'lingandan so'nggina boshlanadi.



2. Uzoqdagi foydalanuvchi brauzer darchasidagi saxifalarni ko'zdan kechirish ( File-Preview in Bronser yoki IP tugmalari ).

Bu komanda sistema uchun asosiy hisoblangan, indamaslik buyicha ishlatiladigan brauzer yordamida yaratilgan saxifani ko'zdan kechirib chiqish imkonini beradi. Preview saxifani ishchi darchada bo'lsa ham, yaratilgan saxifani yakuniy testlashtirishda asosiy brauzer yordami bilan qayta ko'rib chiqishdan foydalanish qat'iy ravishda tavsiya etiladi.

### **3. Front Page da web sahifaga matn jihozlanish, jadval, grafiklar, audio va video ma'lumotlarni joylashtirish imkoniyatlari.**

Matni jixozlash matni iste'molchilarga ancha samarali tarzda etkazib berish uchun xizmat qiladi. Matn jixozlanishini cheklashni www texnologiyasi belgilaydi. Frontpage mumkin bo'lgan imkoniyatlardan eng ko'p qismini taqdim etadi.

#### **Shriftni o'rnatish**

Frontpage da matni formatlash uchun IP xuddi MS Worddagidek bir-biriga o'xshash indamaslik buyicha **default font** to'plami ishlaydi. O'zgarish – shriftlar ro'yxatidan tanlab olish. Uzoqdagi foydalanuvchi kompyuterida tanlab olingan shrift yoki unga maksimal yaqin bo'lgani o'rnatiladi.

#### **Shrift tashqi ko'rinishini tanlash**

Shrift tashqi ko'rinishini tanlashda odatda formatlash IP dagi mos tugmalar ishlatiladi: **Bold**, **Underline** – ostiga chizilgan, **Italic** – kursiv.

#### **Shrift o'lchamini tanlash**

Shrift o'lchamlari (razmer) ro'yxatida indamaslik bo'yicha **Normal** qiymati turadi (o'lcham 3 ~ 12 punkt). Shrift o'lchami nisbiydir, chunki u foydalanuvchi monitor ruxsatiga va brauzer darchasi o'lchamiga bog'liq bo'ladi. 7 ta o'lchamdagi foydalanish mumkin (1~8 punkt; 7~36 punkt).

#### **Matni uslubiy jixozlash**

Foydalanish mumkin bo'lgan uslublar ro'yxati matn formatlash panelida mavjud, lekin bu taomilning o'zi Word ga tegishli. Agar Wordda uslub sifatida matn belgilari yig'indisi (shrift, uning o'lchami, satrlararo oraliq-interval, satr boshidan chekinish va shu kabi parametrlar) ishlatilsa, Frontpage da esa www texnologiyasi ramkalari tufayli cheklashlar mavjud.

Normal uslubi odatdagi matn sanalib, uslubiy jixozning yagona namunasi.

**Formatted uslubi** formatlashtirilgan matni joylash uchun mo'ljallangan (courier)

**Address uslubi** manzillarni yozish uchun, ya'ni odatiy matn satrini kursiv aks ettirish uchun ishlatiladi.

Heading L-Heading G – xarxil darajali sarlavxalarni aks ettirib beradi.

Heading 1-shrift 6~27 punkt


Heading 1-shrift 1~8 punkt

Shrift va o'lcham ro'yxatlarida **Defmelt fam** va **Normal** kiymatlari turgan xolatdagi uslubiy standart parametrlarini o'zgartirish uchun konkret shrift va o'lchamlar ko'rsatiladi.

#### **Matni nomerlangan va markerlangan ro'yxatni jixozlash**

Nomerlangan ro'yxatlar uchun 1 uslub markerlangani uchun esa 5 uslub belgilangan. Satr boshini nomerlashning standart operatsiyasi:

Formating yoki Format-Numbered List Up dagi Numbering tugmasi.  
 Frontpage dagi nomerlash xillarining o'zgarishi:  
 Format - Bullets and Numbering. List Numbering darchasi faollashadi (rasm 4.8)




Rasm 4.8 List Properties savol-javob darchasidagi Numbers qushimcha varag'i.

Indamaslik bo'yicha arab raqamli variant tanlab olinadi. Rim raqamli katta va kichik xarfi lotin alfavitini, kichik va nomersiz rim raqamli variantlarni tanlash mumkin. Frantpage ro'yxat nomeri **Starlat** (List properties darchasi) maydoniga o'rnatiladi.

Markerlangan ro'yxatlarni yaratish uchun **Bulleted List** uslubi yoki **Formattins** dagi Bullets tugmasi ko'plab ishlatiladi. Marker variantlari xili(nuqta, aylana, kvadrat ko'rinishlarida) qo'shimcha varaqa (**plain Bullets**)dagi **List properties** savol-javob darchasida tanlab olinadi.

Markerlarni tasvirlash uchun chto rezervga olingan simvollaridan tashqari ixtiyoriy grafik tasvirlardan foydalanish mumkin (List properties darchasi - qo'shimcha varaqdagi picture Bullets – tashqi ko'rinishli markerni o'rnatish uchun). Indamaslik bo'yicha ikki alternativdagi **use piefures from curret Home** punkti xarakatda bo'ladi. U ko'pincha markerlarni tasvirlashda sayt mavzusidan foydalanish kerakligini ko'rsatadi, ya'ni sayt tarkibiga kiruvchi barcha saxifalarni birinchi ko'rinishda jixozlashda grafik tasvirlar to'plami va matnni jixozlash qoidalardan foydalanish kerak. Agar saxifalarni yaratishda maxsus marker formalari ishlatilsa, u xolda grafik faylga olib boruvchi yo'lni ko'rsatish bilan **Specufy pucture** punkti tanlab olinadi.




**Rasm 4.10** Select picture dialog darchasi.

Tavsiya qilinayotgan tasvirlarni yaratilajak sayt fayllarini saqlash uchun mo'ljallangan papka strukturasi tanlab olish kerak. Lekin, umuman olganda zaruriy tasvirlarni lokal fayl sistemasidan yoki sayt papkasi strukturasi faylni ko'rsatish bilan, yoki papka chegaradan tashqarida joylashgan taqdirda, lokal kompyuterdagi xoxlagan papka bilan tanishib chiqish imkonini yaratidigan papka va oy tasviri tushirilgan tugmani bosish bilan maqsadga erishish mumkin. Ikkinchi variant – uzoqdagi kompyuterdan tasvir tanlash (ixtiyoriy tasvirni **Hofer hefa** dagi tanlash uchun sistemaga o'rnatilgan, er shari va oy tasvirli tugmani bosib brauzer ishga tushiriladi). Uchinchi variant – tasvirni Clip Art dan tanlab olish (Clip Art tugmasi). Bunda fayl tanlangan tasvir bilan birga Microsoft Frontpage vaqtinchalik papkasiga o'tkaziladi.

Frontpage odatdagi markerlangan ro'yxatdan tashqari jixozlashda oddiy ro'yxatdan farq qilmaydigan bir nechta ro'yxatlarni taqdim qila oladi.

**Direktory List** va **Menu List** uslublari kaskadli uslub jadvallari (CSS) yordami bilan nomerlanmagan ro'yxat elementlarini tasvirlashning xaril variantlarini yaratishga imkon beradi. **Definition List** uslubi aniqlash ro'yxati (o'qitiladigan materiallar ro'yxatida bir nechta aniqlovchi ko'rsatkichlar bo'ladi).

Shrift, uning tashqi ko'rinishi, o'lchami va matn jixozlash uslubi Font (Format-Font) dialog darchasi yordami bilan yaratilishi mumkin. (rasm 4.11)




**Rasm 4.11** Font dialog darchasi

Matni jixozlash uchun xaril **to'g'rilash** (vo'klyuchka) va **chekinish** (otstup)lar xam ishlatiladi. To'g'rilash-matning gorizonta bazoviy saxifa liniyasiga nisbatan joylashgan, to'g'rilash uchun **Formatting** instrumentlar panelida (IP) mashxur tugmalar mavjud:

- Align List – chap qirraga siqilgan;
- Align Center – markazga siqilgan;
- Align Roght – o'ng qirraga siqilgan.

Matni to'g'rilash odatda so'z boshida ko'llash maqsadida beriladi. To'g'rilashning yana bir xili mavjud bo'lib, bunda matn saxifa eni bo'yicha kengaytirilgan bo'ladi. Uning uchun maxsus tugma yo'q. Format – Paragraph ni bajarish zarur xisoblanadi. (rasm 4.12)



Rasm 4.12 Paragraph dialog darchasi.

Paragraph ning faollashgan darchasida soʻz boshi parametrlari beriladi (chekinish, interval). Matni toʻgʻrilash **Aligument** roʻyxatida koʻrsatiladi. Matni satr uzunligi boʻyicha choʻzish uchun **Sustify** punkti, **Defanlt-** toʻgʻrilashni toʻxtatish uchun ishlatiladi. **Indentation** boshqarish organlar bloki matni saxifa qirralaridan chekinish kerakligini koʻrsatib turish uchun xizmat qiladi.

**Before text** maydoni – chap qirradan chekinish;

**Affer text** maydoni – oʻng qirradan chekinish;

**Indent fircl line** - qizil satrdan chekinish.

**Decrease Indent** va **Increase Indent** tugmalari yordami bilan matn chekinishini oʻzgartirish mumkin.

Matni pozitsiyalash barcha nostandart simvollarni aks ettirish uchun uzluksiz probel (boʻshliq) tabulyatsiya tugmasi yordami bilan amalga oshirish mumkin, yaʼni snoskalar, ampersantlar va qushtirmoqlar.

Va nixoyat, xarxil intervallarni oʻrnatish uchun boshqaruv organlar bloki Spacing xizmat qiladi:

**After** – soʻz boshidan keyin; **Word** – aloxida soʻzlararo probel (boʻshliq); **Line Spacing** roʻyxati – satrlararo interval (**Single** – odatdagi); **Befure** – soʻz boshi oldidagi interval (1,5 lines – yarim quyuq, **Djuble** - qoʻshaloq).

#### Rangli matn jixozlash imkoniyatlari

Rang matn foni uchun va shriftning oʻzi uchun berilishi mumkin (tugmalar: **Highlight Color**, **Fant Color**). Xujjat boʻlimlarini ajratish uchun tez-tez gorizontaal chiziqlar (**Insert** – horisontal **Line**) ishlatiladi. Chizilajak chiziq obʻekt xisoblanadi va uning xususiyatini oʻrnatish va taxrirlash mumkin (**Format** – **Properties**) yoki ajratilgan chiziqda oʻng **Click** ni bosib **Horisontal Line Properties** buyrugʻi chiqariladi (zaruriy aloxida chiziq xususiyatlari (**widch**) va oʻlchov birligini

aniqlash uchun). Height – pikselidagi qalinlik (indamaslik bo'yicha) Aligment - tug'rilash, Solix Line (no spading) pereklyuchateli bilan chiziq yassi ko'rinishda tasvirlanadi.


### Web – saxifani jixozlashda grafikadan foydalanish.

Frontpage quyidagi grafika xillaridan foydalanishi mumkin:

- standart grafik fayllar;
- Caplrt kolleksiyasidagi kartinkalar;
- videofragmentlar.

Grafik fayllarini o'rnatish:

Insert – Picture – Frantpage yoki Up dagi tugmalar  
Picture ning faollashgan dialog darchasi (rasm 4.13)




Rasm 4.13 Picture ning dialog darchasi

Look maydonida tasvir manbaining URLi ko'rsatiladi. URL (Universal Resunice Luckfor) - uning joylashgan joyini ko'rsatuvchi va uni qidirib topishga imkon yaratuvchi Internet dagi konkret resurs ro'yxat tuzuvchisidir . Unda protokol nomi ko'rsatilgan bo'lib, unga asosan internetga kirish (masalan HTTP), resurs domen nomlari (www. Amazor.com) va resursning o'ziga yo'l topgan (|cutend| undex.htm) ishlari bajariladi. Printsip bo'yicha tasvir joylashgan joyiga nisbatan chegaralash mavjud emas, lekin Web-sayti o'rnatilgan joyda tasvirli faylning bo'lishi maqsadga muvofiq xisoblanadi. Fayl o'rnatilgan joy nomi URL maydonida ko'rsatilgan bo'ladi. O'ng tugma Internet yoki lokal mashinadagi so'ralgan tasvirni qidirib topishga imkon beradi.

Clip Art tugmasi MS Office tarkibidagi rasmlar dialog darchani ishga tushiradi, Scan tugmasi bilan dialog oyna chaqiriladi, undagi Source tugmasi yordamida ro'yxatdan mos periferiya qurilmasi tanlanadi. Undan esa tasvir olinadi, Acquire tugmasi loixalanayotgan saxifaga tasvir jo'natadi.

Grafikani o'rnatish uchun o'z kompyuterida qandaydir grafik fayl tanlab olinadi va yaratilajak saxifaga joylashtiriladi. Tasvir Normal varag'ida paydo bo'ladi. Click rasmda uni ajratib ko'rsatadi, Frantpage esa o'z navbatida tasvirlar bilan ishlashga moslangan yana bitta instrumental panelni ko'z bilan ko'rib ishlashga tayyorlaydi.

Grafik tasvirlar bilan ishlashdagi ko'plab imkoniyatlar Up dagi Puctures (view-Taolbars-Pittimes, yoki saxifada rasm ajratish) tugmasi yordamida amalga oshiriladi. Rasmning oddiy xususiyatlarini Picture Properties (tasvirning o'zidagi o'ng Click – Picture Properties) dialog darchasida taxirlash mumkin (rasm 4.14)



Rasm 4.14 Picture Properties ning dialog darchasi.

**Picture source** satri grafik faylning o'r mashgan joyini ko'rsatadi. **Bravse** tugmasi fayl sistemasini ko'rib chiqish uchun: Edit- Frantpage ga o' matilgan grafik muxarimi ishga tushirish uchun. Nomustaqil radiotugma o'chiruvchi-yoqo'vchilar (pereklyuchatel) grafik fayl tipini ko'rsatadi: GIF, IPEG va PVG, GIF faylining **Interlaud** xususiyati satr orqali rasm tasvirini ko'rsatadi (yuklashga qarab aniqlik oshib boradi). **Transparent** xususiyati tiniq, GIF-fayllar uchun mo'ljallangan. Bu faylda Web-saxifa dizaynida samarali foydalanadigan ranglardan biri tiniq qilib o'rnatilgan. **IPEG** fayllari uchun siyiq parametrlarni mo'ljallash mumkin, chunki bu faylda ozgina axborot yo'kotish bilan tasvirlar siyiq xolda saqlanadi. PVG format fayllari saxifalari qanday bo'lsa shundayligicha o'rnatiladi. Agar qandaydir sabab bilan rasm uzoqdagi foydalanuvchi brauzerdagi **Alternative renpesentffion** maydonlarida to'g'ri aks ettirilgan taqdirda alternativ rasm taqdimoti uslubi qo'llanadi.

**Low-Res** maydonida asosiy tasvir o'rmini bosuvchi manzil joylashadi. **Text** maydoni izlangan faylini aks etishi mumkin bo'lmagan xolda, rasm o'rnidagi matn aks ettirish uchun matn satrini kiritadi.

**Picture Properties** darchasining **Apsedranel** qo'shimcha varag'i ba'zibir tasvir xususiyatlarini beradi. Unda yonma-yon joylashgan grafik tasvir va matnning nisbiy egallab turgan joyini ko'rsatish mumkin, ya'ni bir-biriga nisbatan ularni to'g'rilash usuli mashhur **Aligument** ruyxatda ko'rsatilgan bo'ladi.

**Top** - tasvirning yuqori qirrasiga to'g'rilash;

**Boottom** - quti qirrasiga to'g'rilash;

**Middle** - o'rtaga (markazga) to'g'rilash;

**LiftG'Right** - matn tasvirdagi chapdaG'o'ngda joylashadi.

Shu bilan birga ancha aniqroq tasvir to'g'rilash uslublari xam mavjud:

**Textter** - satrdagi eng baland simvollarga nisbatan to'g'rilash;

**Absmiddle** - rasm markazga nisbatan matn birinchi satr o'rtasini to'g'rilash;

**Baseline** - quti qirrani birinchi satr baza chizig'iga nisbatan to'g'rilash;

**Abshottem** - rasm pastki qirrasini matn birinchi satr pastki qirrasiga nisbatan to'g'rilash.

**Border thickness** maydoniga rasm atrofidagi niyat qilingan ramka qalinligi kiritiladi -

**Horizontal spacing** va **Vertical spacing** maydonlarida grafik tasvirlarni matndan ajratuvchi gorizontal va vertikal bo'yicha pikseldagi masofa ko'rsatiladi.

**Sife** boshkaruv elementlari guruxi tasvir o'lchamini o'zgartirish uchun xizmat qiladi. **Widln** va **Height** maydonlarida indamaslik buyicha rasmning xaqiqiy o'lchami ko'rsatiladi. **Specify size** bayroqchasi bu maydonlar mundarijasini taxrirlashga sharoit yaratadi.

Xulosa qilib, grafik tasvirlar bilan ishlashdagi vositalarni ko'rib chiqamiz. Yuqorida aytilganidek, xarbir xarakter Pictures IP da joylashgan umumiy komplektdagi aloxida tugmalarga bog'langan.

**Insert Picture from File** tugmasi rasm o'rnatish uchun (asosiy IP dagi tugmalar o'rnini bosishi mumkin).

**Text** tugmasi matnni o'rnatish uchun rasm markaziga to'g'ri burchakli blok o'rnatiladi. Blokn siljtitish, o'lchamini o'zgartirish, shrift tanlash, taxirlash mumkin.

**Auto Thumbnail** tugmasi grafik tasvirining ochilib qolgan (yalang'och) joyini yaratadi(thumbnail – nusxani kamaytirish).

**Position Abslutety** tugmasi rasmni pozitsiyalashda ishlatiladi.

**Bring Forward** va **Send Backword** tugmasi matnning yuqori yoki orqasidagi rasm xolatini o'rnatadi.

**Rotate Left** va **Rotate Right** tugmalari rasmni 90 gradusga o'nga va chapga buradi.

**Flip Horizontal** va **Flip Vertical** rasmni asosiy o'rniga nisbatan aks ettiradi.

**Moze Contrast** va **Less Contrast** tugmalari kontrast darajasini ko'taradi va tushiradi.

**More Brightness** va **Less Brightness** tugmalari yorug'lik darajasini oshiradi va kamaytiradi.

**Crop** tugmasi rasm o'lchamini o'zgartiradi, kesib tashlash rejimini yoqadi va o'chiradi.

**Set Transparent Color** tugmasi rasm ranglaridan birini tiniq qiladi.

**Black and White** tugmasi rasmni oq-qora formatga o'tkazadi.

**Bever** tugmasi rasmga kichkina burchak ramkasini qo'shadi.

**Becompte** tugmasi pozitsiyalashdan so'ng rasm proportsiyasini tiklaydi.


### **Ichki, tashqi va grafik xavolalar.**

WWW asoslaridan biri giperaloqa xisoblanadi. Giperaloqa – matnli satr, grafik tasvir yoki uning bir qismi ko'rinishidagi ko'rsatgich bo'lib, uni bosish natijasida www dagi saxifa yoki faylga o'tiladi. Giperaloqa Internetda yagona saytlararo navigatsiya va xarakter vositasi xisoblanadi. Ular ikki xil ko'rinishga ega: **tashqi** giperaloqa – boshqa HTML xujjatlarga o'tish uchun va **ichki** – bitta xujjat ichida tez xarakterlanish uchun. Ichki xavola (sso'lka)ni tashkil etadigan eng oddiy misol tariqasida Web – saxifadagilarning mundarijasini ko'rsatish mumkin. Undagi xar bir satr xujjat yangi qismining boshlanishiga xavola xisoblanadi. Xavola, yuqorida fikr qilinganidek, uy, ish yoki grafik tasvir manzilini ko'rsatib turuvchi **matn** ko'rinishida yaratiladi. Havolanini asosiy matndan farqlash uchun brauzer ularni rang bilan ajratib ko'rsatadi.

Giperaloqalarni o'rnatish:

**Inseps-Hyperlink** (yoki asosiy Up dagi er shari va zanjir bo'lagi bilan tasvirlangan **Hyperlink** tugmasi). Creafe Hyperlink darchasi faollashadi (rasm 4.15)





Rasm 4.15 Creafe Hyperlink dialog darchasi.

Agar giperaloqa yaratilishi jarayonida Web-saxifa maketida ajratib ko'rsatilgan matn bo'lmasa, xavola odatdagi URL ko'rinishida o'rnatilgan bo'ladi, aks xolda dastak ajratilgan matn bilan bog'lanib qoladi va URL ekranda aks etmaydi.

Giperaloqa URL ini ko'rsatish uchun uni URL maydonida yozish kerak. Agar xavola sayt xujjatini ko'rsatsa, uni dialog darchasining asosiy ro'yxatidan tanlab olish mumkin. Manzilni qidirishda qo'shimcha tugmalardan foydalanish mumkin. **Er shari va oy tasvirli** tugma indamaslik bo'yicha sistemaga o'rnatilgan brauzerni ishga tushiradi. Agar zaruriy resurs lokal kompyuterda bo'lsa, **papka va lupa** tasvirli tugma ishlatiladi. Bunda faylni ochish uchun standart dialog darchasi faollashadi. **Konvert** tasvirli tugma elektron xatni qidirishga yordam beruvchi giperaloqani yaratish uchun mo'ljallangan. Qo'shimcha dialog darchasida yagona maydon bilan jo'natuvchi manzili kiritiladi, **toza varaq (chisto'y list)** tasvirli tugma xavola o'rnatilajak saxifa xam mavjud bo'lmagan xolda ishlatiladi. Bu tugmani bosish loyixalajak saytga toza saxifa qo'shib qo'yadi, joriy saxifaga esa unga mo'ljallangan xavola joylanadi.

**Optional** boshqaruv guruxida **Bookmark** ro'yxati Frantpage da zakladka yordamida amalga oshadigan ichki xavolalarni yaratish uchun mo'ljallangan. Xar bir zakladka zaruriy joyga **Insert-Bookmark** komandasi yordami bilan qo'yiladi va u o'z nomiga ega bo'lishi mumkin. HTML-xujjatda xar bir zakladka giperaloqani bog'lash mumkin bo'ladigan marker xisoblanadi. Demak, ichki dastakni yaratishdan oldin keyinchalik tayanish mumkin bo'ladigan zakladkalar to'plamini yaratish zarur.

**Creafe Hyperlink** dialog darchasida yana bitta to'g'ridan-to'g'ri kirish uchun mo'ljallangan **Target frame** maydonini ko'rib chiqamiz. Qiymatlar quyidagi maydonlarga o'rnatiladi:

- a) **Target frame** – yuklanajak xujjat nomini ko'rsatish uchun;
- b) **Page Default** maydoni – brauzer saxifa aks etish ketma-ketligining standart variantiga ishlov beradi;

v) **Same Frome** maydoni – xavola oynasida xujjat yuklangan bo'lishi kerakligini ko'rsatadi;

g) **Whote Page** parametri - yuklatilajak xujjat brauzer darchasini butunlay egallashini ko'rsatadi;

d) **New Window** maydoni – xujjat uchun majburan yangi darcha ochib beradi;

e) **Parent Frome** parametri – joriy darchaga nisbatan xujjat ota-ona bo'lishida (roditelskoe) yuklanadi.

Tashqi giperaloqani yaratish jarayoni:

1) **Edit Hyperlink** dialog darchasini fayllashtirish (ajratib ko'rsatish, Hyperlink tugmasi yoki **Hyperlink properties** buyrug'ining kontekst menyusi;

2) **URL** maydonida zaruriy sayt manzili ko'rsatiladi;

3) **Target frame** ro'yxatida **Whote Page** qiymati (yoki xoxishga qarab boshqa qiymat) tanlanadi, ya'ni tanlangan saytning asosiy saxifasi brauzer ko'rib chiqish darchasini butunlay egallaydi;

4) **Ok** – giperaloqa o'zgargan.

**Picture Properties** darchasining quyi qismida rasmga mos tushadigan giperaloqani qo'yish mumkin bo'lgan boshqaruv elementlari guruxi joylashgan (rasm 4.14). Location maydonida joylashuv joyi URL kiritiladi.

**Target frame** maydonida esa tasvirlash uchun darcha. Browse tugmasi giperaloqani yaratish darchasini faollashtiradi (rasm, kontekst menyusi nomeri). Bulardan tashqari bitta tasvirga bir nechta giperaloqalarni bog'lash imkonini beradigan texnologiya xam mavjud. Bu texnologiya – segmentirlangan grafika texnologiyasi bo'lib, unda rasm qismlarga ajratiladi va xar biriga o'zining dastagi beriladi.

#### **Web – saxifalarda audio va videokliplarni joylash.**

Web – saxifalarda audio va videokliplarni joylashtirish – bu multimedia deb nomlangan Frantpage imkoniyatlari xisoblanadi. Bir narsaga e'tibor qaratish ma'qul bo'ladi, ya'ni uzoqdagi foydalanuvchi mustaqil ravishda multimedia fragmentlarini qaytadan tiklash(eshittirish)ni qachon va qanday qilib ishga tushirish muammosini xal kila olmaydi. Audiokliplar esa fonli musiqa (kuy) xisoblanib, sixifani yuklash vaqtida eshitiladi.

Fonli audioklip tadbiri:

1) **File Properties** – Pope Properties (rasm 4.16);


2) **General** qo'shimcha varag'i – **Backgroud sound** boshqaruv elementlari guruxi;

3) **Locatiun** maydonida audioklip joylashgan joyini kiritish (**Browse** tugmasi musiqa faylini qidirish uchun standart dialogini taqdim etadi);

4) **Takrorlash** miqdori **Loop** maydonida ko'rsatiladi;

5) **Doimiy** eshittirish – **Forever** punktidagi bayroqqa;


6) **OK**.



Rasm 4.16 Page Properties darchasining General qo'shimcha varag'i.

Videoklipni o'rnatish odatdagi tasvir o'rnatish varianti xisoblanadi. Frantpage quyidagi formatlar fayllarini quvvatlab turadi. Video for Windows (avi), Windows Media (asf), Real Video (ran va ra). Videofragmentni joylash: Insert- Picture-Video.

Videoklip uchun xususiyatlar kontekst menyusidagi **Picture Properties** buyrug'i bilan yoki **Format- Properties** buyrug'i yordamida o'rnatiladi. Agar o'rnatilajak videoklip ajratib ko'rsatilgan bo'lsa, **Picture Properties** darchasi faollashadi, Video qo'shimcha varag'i (odatiy tasvirni o'rnatishdan farqli ravishda). Picture Properties dialog darchasining Video qo'shimcha varag'i rasm 4.17da ko'rsatilgan.



Rasm 4.17 Picture Properties dialog darchasining Video qo'shimcha varag'i.

Video source kiritish maydonida videofragment joylashgan joyi ko'rsatilgan bo'ladi, to'g'ridan-to'g'ri yoki Bromse tugmasi yordami bilan kiritish mumkin.

Spaw confrolsin Brower bayrog'ining yoqilishi uzoqdagi foydalanuvchi saxifa bilan tanishib chiqish chog'ida boshqaruv elementlari eshittirish (qayta tiklash) bilan vizuallashadi:

**Loop** - videoklip takrorlash miqdori;

**Loop delay** – eshittirish tsikli orasidagi pauza (m.sek.);

**Forever** – doimiy eshittirish uchun bayroqchani yoqib qo'yish;

**Start-on file open** (indamaslik bo'yicha) – yuklashdan so'ng eshittirish;

**Start-on mouse over** – kursor bilan yuklash.

O'chiruvchi-yoquvchilar (pereklyuchateli) mustaqil bo'lganliklari sababli, ularning xoxlagan kombinatsiyasini tanlash mumkin.

Videokliplarga giperaloqani qo'shib qo'yish mumkin va uni xuddi odatdagi rasmda giperaloqa yaratish kabi amalga oshiriladi. Picture Properties darchasidagi Appearance qo'shimcha varag'i videoklip va matn darchalarining to'g'rilanganligini ko'rsatadi. To'g'rilash parametrlari grafik tasvir va matn to'g'rilash parametrlariga o'xshashdir.

#### **4-Mavzu bo'yicha xulosa**

Front Page Web – uzellarni tezda yaratish va dasturlashsiz professional tarzda jihozlangan xujjatlarni Chop etuvchi maxsus vositadir.

Front Page Express Web – uzel yaratish va uni boshqarish uchun juda qulay asboblardan ta'minlash –da nisbatan kam rivojlangan vositadir. Standart darchalarni o'zlashtirishda Front Page qiyinchiliklar yuzaga keltirmasligi kerak.

Front Page da quyidagi ish rejimlari mavjud: Page – loyixalash; Folders – sayt tuzilmasini aks ettirish; Reports – sayt to'g'risidagi zaruriy axborotni aks ettirish; Navigation – sayt navigatsiyasi; Hyperfine – aloqa tuzilmasi rejimi; Task – topshiriq va masalalarni boshqarish rejimi.

Internet sahifa yaratilgach, quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish kerak: saqlab qo'yish va sahifani ko'rib chiqish.

Front Pagening jihozlash imkoniyatlari matini iste'molchiga samarali etkazib berish imkonini beradi (numerlangan va markirlangan ro'yxatlarni jihozlash, rangli jihozlash imkoniyatlari, grafikadan foydalanish va b.q.).

Ichki va tashqi giperhavolalar o'z vazifalariga ega bo'lib, navigatsiya va saytlararo xarakatda yagona vosita hisoblanadi. Ular ni o'rnatish uchun o'zgina tajriba etarlidir.

Front Pagening multimedia imkoniyatlari – bu audio va vidokliplarni o'rnatish hisoblanadi.

Web – sahifa yaratishdagi muhim instrument(asbob) bu jadvallardir. Front Page va ular axborotni joylashtirish bilan birga matn va grafikalarining xolatini ham to'g'rilab beradi.

#### **Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:**

1. Frantpage ni matnli jixozlash.
2. Matnni uslubiy jixozlash.
3. Matnni Frantpage dagi nomerlangan ro'yxat ko'rinishda jixozlash.
4. Matnni Frantpage dagi markerlangan ro'yxat ko'rinishda jixozlash.
5. Matnni rangli jixozlash imkoniyatlari.
6. Grafik fayllarini o'rnatish.
7. Tasvirni tekkislash uslublari.
8. Grafik tasvirlar bilan ishlash vositalari.
9. Ichki giperaloqalarni o'rnatish.
10. Giperaloqa URLini ko'rsatish.
11. Tashqi giperaloqani yaratish jarayoni.
12. Fonli audio klipni o'rnatish.
13. Videoklipni o'rnatish.
14. Web-saxifada jadval yaratish.
15. Jadval sarlavhasini joylashtirish.

**5-Mavzu: Front Page da master va shablonlari yordami bilan Web-uzel yaratish**  
**Ajratilgan soat - 2**

**Asosiy savollar:**

1. Web-uzel strukturasi loyihalash printsiplari
2. Web-saxifani kengaytirish texnologiyasi.
3. Front Page 2000 master va shablonlari yordami bilan Web-uzel yaratish

**Tayanch tushuncha va iboralar:**

Web-sayt uzelnı strukturalashtirish, Web -uzel shablonlari va ustalari. One Page Web, Customer Support Web, Emtiy Web, Personal Web, Protect Web, Corporate Presence Wizzard, Discussion Web Wizard, Inport Web Wiziord, Web Mapper.

**“Web-uzelnı yaratish asoslari” mavzusi bo'yicha darsning texnologik xaritasi**

T.r.	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ullar
1	<p><b>Tayyorlov bosqichi:</b>                      * Maqsad: Web-uzelnı yaratish asoslari, Web-uzel strukturasi loyihalash printsiplarini, Web-uzelnı yaratishda shablonlardan foydalanish tushunchalarnı egallash va farqlash                      * Vazifalar:                      - talabalarda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarnı shakllantirish va kengaytirish;                      - mavzuga oid tarqatilgan materiallarnı, nazorat topshiriqlarini talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara orqali nazorat topshiriqlari qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini aniqlash;                      * Mazmun: Web uzelnı, web sahifani kengaytirish texnologiyasi, master va shablonlar yordamida web uzelnı yaratish, og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarnı o'rganish.</p>	O'qituvchi
2	<p><b>Darsni tashkil etish bosqichi:</b>                      Uslub: Og'zaki bayon qilish.                      Shakl: ma'ruza mashg'uloti, kichik guruhlar va jamoada ishlash.                      Vosita: tarqatma va taqdimot materiallari.                      Usul: tayyor yozma materiallar.                      Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish.                      Baholash: Rag'batlantirish, reyting tizimi asosida baholash.</p>	O'qituvchi
3	<p><b>Mustaqil ishlash bosqichi:</b>                      - munozara, aqliy hujum, mikroguruhda ishlash va boshqa metodlar orqali nazorat topshiriqlarini echishga yo'naltiriladi.                      - talabalar nazorat topshiriqlarini hal qilish to'g'risidagi fikrlarini o'zaro muhokama qilishadi.                      - o'zi va mikroguruh uchun yagona javobni tanlaydi.</p>	Talaba
4	<p><b>Natijalarnı eshitish va tahlil qilish bosqichi:</b>                      - talabalar va mikroguruh fikri tinglanadi, ularga aniqlashtiruvchi savollar beriladi.                      - mikroguruhlarning javoblari to'g'risida talabalar fikri aniqlanadi.                      - javoblar tahlil etiladi.</p>	O'qituvchi - talaba
5	<p><b>Yakuniy va baholash bosqichi:</b>                      - talabalar bergan javoblardan ko'pchilik fikriga mos kelgani alohida ajratib olinadi.</p>	

- talabalarning nazorat topshiriqlarini echishdagi faolligi, intilishlari hisobga olingan holda baholanadi. - yakuniy fikr aytiladi. - mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------

## 1. Asosiy savol bayoni:

Xozirgi vaqtda korxonada tashkilotlarning ko'pchiligi o'zlarining Web –uzellarini yaratish bilan internetda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Shu bilan birga Web –uzelni ochish va loyixalash –bu ko'plab bilim, chaqqonlik fantaziya va doimiy quvvatlanib turishni talab qiluvchi uzoq muddatli murakkab jarayon. Loyixalanayotgan Web –uzel, xox u uy saxifasi bo'lsin xox u qaysidir tijorat korxonasiniki blo'lsin, baribir quyidagi asosiy loyixalash printsiplariga javob berishi kerak:

- Mazmunli;
- Jixozli;
- Dastakli;
- Tuzilmali;

Birinchi printsipt qancha va qanday axborotlarni joylashtirishga qaror qilinganligi to'g'risidagi savollarga javob berishi kerak. Mabodo, aniq aniqlay olmasangiz tashvishga tushishga xojat yo'q. Odatda, bu erda aniq andozalar bo'lmaydi. Boshlang'ich saxifani WWW ga joylashtirish va tashrif buyuruvchilarga quloq soling. Olingan fikr muloxazalar natijasida sizning saxifangiz o'zgarishi, modernizatsiya qilinishi va ko'p parametrlar bo'yicha rivojlanishi mumkin. Mazmunan juda oddiy saxifalar xam mavjud, lekin ular va loyixalash va quvvatlab turish uchun ortiqcha vaqt va mablag' talab qilmagan xolda sizning extiyojlarinigza ma'lum darajada javob beradi va shuni WWW ga mos xolda taqdim qiladi. Daraja va mazmun bo'yicha o'rta-miyona saxifalar xam mavjud bo'lib, odatda ularda matn grafika va kompozitsion texnika kombinatsiyalari ishlatiladi. Bu erda uzal mavzusiga tegishli video kliplar tovush fayllari va bir qancha rasmlarni topish mumkin. Eng yuqori qiymat va murakablikka ega bo'lgan ko'plab Web-uzellar ham mavjud. Ularni loyixalashda yuqorida keltirilgan elementlar bilan birga brauzerlarning eng yangi interaktiv vositalari va texnologiyasidan, masalan, forma va grafikalar, sizni xar-xil Web-saxifalarga jo'natuvchi ko'plab fragmentlardan foydalanilgan. Tabiyki bunday murakkab Web-uzellar loyixalash va zamonaviy darajada hamisha quvvatlab turish uchun ko'plab mablag' va vaqt talab qiladi.


Web –uzelni jixozlash printsipti uning tashqi ko'rinishi va jozibadorligini oshirishiga, tashrif buyuruvchilar sonini ko'paytirishga qaratilgan.

Ko'plab saxifa va WWW lar ommoviyiligining asosiy sababi axborotning eng muxim va bosh manbai xisoblangan matn taqdimoti formasining xarxilligida emas, balki sarifalardagi xarxil ko'rinishli rangli grafika va rasmlar, video va audio kliplar, animatsion va interaktiv texnologiyalar va boshqalarning etarli miqdorda mavjudligidadir.

Uchinchi printsipt dastakli (sso'lkali) saxifa va Web-uzel bo'limlarini o'zaro bog'lovchi gipermatnli dastaklardan foydalanish bilan chambarchas bog'langan. Web –saxifadagi giperaloqa WWWning eng asosiy xususiyatlaridan biri. Usiz WWW butunlay ishlay olmaydi. Xar bir ixtiyoriy xujjatda maxsus HTML tegi yordami bilan berilgan boshqa WWW xujjatga xavola etadigan dastak (sso'lkali) bo'lishi kerak. Web-uzelni loyixalashda tuguni umumiy strukturlash va unda axborotlar joylashuvini tadqiq qilish eng muxim printsipt xisoblanadi. Odatda, axborotni struktirlash mos keladigan bo'limlar ishbilarmon professional, xususiy reklamali va boshqalar bilan birlashtirish tavsiya qilinadi. Bu kerakli axborotni qaerdan izlab topishda tashrif buyuruvchilar uchun juda qulaydir. Agar barcha axborotlar bitta umumiy bo'limda joylangan bo'lsa tashrif buyuruvchi kerakli axborot bilan tanishib chiqish uchun xamma saxifani o'qib chiqish kerak bo'ladi. Web-uzel strukturasi bo'yicha xar biri xar xil xolatda o'z afzalligi va kamchiliklariga ega bo'lgan ko'plab variantlar bor. Shuning uchun

Web –uzelni loyixalashda u yoki bu struktura variantini tanlash muxim ahamiyatga ega Ularga quyidagilar kiradi.


- Standart struktura. Undagi asosiy yoki ildizli Web-saxifada Web-uzelning qolgan xujjatlarga va o'z navbatida mos ildizli Web-saxifalarga xavola etuvchi dastak bo'lishi kerak. Bu juda oddiy va tez-tez uchraydigan Web-uzelni tashkil etish uslubi xisoblanadi. Rasm 5.1 da Web-uzel standart loyixalashning usulining sxemasi berilgan.



#### XUJJATLAR

Rasm 5.1 Web-uzel standart loyixalashning usulining sxemasi.


- Kaskad usuli (rasm 5.2). Bu usulda tashrif buyuruvchilar Web-uzelda faqat bitta yo'nalish bo'yicha siljiy oladilar, xuddi sharshara kaskadidagi suv singari.



Rasm 5.2 Web-uzelni tashkil etishning kaskad usuli.

- Osmon-o'par bino-bu xajimli Web-uzellar uchun mo'ljallangan murakkab struktirlash sistemasi xisoblanadi. Bu strukturani quyidagi misol bilan taqqoslash mumkin.

Rasm 5-3 da Web-uzel tashkil qilishdagi osmono'par bino kabi usul keltirilgan.




**Rasm 5-3 Osmono'par bino kabi struktura sxemasi.**

- O'rgimchak ini (pautina)-bunda barcha Web-saxifalar bir-biriga xavola qilinadigan dastaklarga ega bo'ladilar va siz bir saxifadan ikkinchisiga bemaol o'tishingiz mumkin. Bu strukturada o'zaro bog'liq saxifalar o'rgumchak ini (o'rami)ni tashkil etadilar. Mobodo, bu sxema nazoratsiz qolsa labirintga aylanib qoladi. Lekin, xujjatlarga xavola qilinadigan dastaklardan kamroq foydalanilganda bu sxema ommaviy tus oladi.



Rasm 5-4 da bunday tashkil qilishning oddiy misoli keltirilgan.



Rasm 5-4 Web-uzel tashkil qilishning o'rgimchak inisimon strukturasi.

Agar bitta sxemada standart va o'ram (pautina) yoki boshqa shu kabi tashkil qilish usullari bor bo'lsa, u holda Web-uzel struktirlashning gibrit (aralash) variantlari xam ishlatiladi. Gibrit variantlarda xar bir xujjatga bevosita asosiy saxifadan tushish mumkin.

## 2 Web-saxifani kengaytirish texnologiyasi.

Web-uzelning u yoki bu strukturasi tanlab olingach, asosiy saxifani kengaytirish texnologiyasiga o'tish mumkin. Bunda HTML faylni qaytadan yaratish yoki oldingi asosiy saxifadan foydalanish mumkin. Saxifalarni kengaytirish texnologiyasida fayllarga nomlar ro'yxatini berish tavsiya etiladi. Bu kelajakda o'zgartirishlar kiritishni osonlashshtiradi Academic.htm, personal.htm, publish.htm, nomli fayllarga nisbatan Page 1.htm, Page2.htm, Page3.htm fayllaridan foydalanish kamroq qulaylik beradi.

Hozirgi vaqtda uzun yoziladigan nomlarni o'zida saqlaydigan tarmoq operatsion sistemalari mavjud. Shuning uchun uzun yoziladigan nomli fayllardan cho'chimaslik kerak. Lekin tabiiyki, fayl nomlariga probel yoki maxsus simvollarni kiritishda tartibli bo'lish zarur bo'ladi.

Kengaytirish texnologiyasida har bir yangi saxifaga <HTML>, <HEAD> va <BODY> teglarini, shu bilan birga hujjatning yangi nomi <TITLE> ni kiritish zarur. Bunda asosiy saxifani yaratishdagi kabi xarakterlarini bajarish kerak bo'ladi. Xar bir sho''ba saxifani yaratishda tashrif buyuruvchi faqatgina asosiy saxifalardan kirmaslini yoddan chiqazmaslik kerak.

Sho''ba saxifasiga boshqa uzel (tugunlar) yoki shunga o'xshash sho''ba sahifalari havola (sso'lka) qilinishi mumkin. Shuning uchun xar bir Web - uzel sahifasi avtonom bo'lishi kerak unga tashrif buyuruvchilarni qiziqtiradigan axborotlar (masalan, ism, manzil, va boshqalar)ni kiritish yaramaydi.

Kengaytirish texnologiyasini amalga oshirishda xar bir saxifada standart kuyi kolontitul bo'lishi kerakligini inobatga olish kerak. Bu erda Web-sahifani yoki uzeln kim yaratganligi oxirgi marta qachon yangilanganligi, zaruriyat tug'ilib qolganda kim bilan bog'lanish kerakligi to'g'risidagi axborotlar bo'lishi kerak. Bu axborotni asosiy sahifa bilan birga qolgan boshqa sahifalarga ham kiritish lozimdir.

Bundan tashqari ulardan xar biriga asosiy ildizli saxifaga xavola etish dastagini kiritish foydadan xoli bo'lmaydi, chunki shu tufayli Web-uzel bo'yicha xarakterlanish ancha osonlashadi. Web-uzeldagi Web-saxifalarni avj oldirilgandan so'ng asosiy saxifaga tashrif buyuruvchilarga tushunarli bo'ladigan darajadagi xavola etish dastagini joylashtirish zarur. Web-uzelda xavola etish dastagini joylashning tavsiloti shundaki, internetdagi asosiy yoki ildiz saxifalari joylashgan joyda barcha Web-uzel saxifalari ham saqlanadi (shuning uchun ularni bir joyli saxifalar deyiladi). Bir joyli saxifa xujjatlarga xavola etish ancha oson, chunki URL ni batafsil bilish shart emas. Bosh (ildiz) Web-saxifaga Web-uzel HTML-xujjatining xar biriga xavo etuvchi dastakni joylashtirish zarur. Uning yordami bilan tezgina va osongina ularga o'tib olish mumkin bo'ladi. Web-uzel xavola etish dastagini joylashtirishning bir qancha usullari mavjud-matnli, markerlangan ro'yxat va jadvalli. Matnli xavola etishda birinchi navbatda aniqlash zarur: xavola etish matni nima ish bajaradi, undan ham muximrog'i, xar bir bunday matn qanday xavola etuvchi dastakka ega. Mayinli dastak uzelda boshqalardan o'zining quyugligi, rangi va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turishi kerak. Dastaklarning xaddan tashqari ko'payib ketishi maqsadga muvofiq emas. Dastak matni chiqarib berilar ekan, masalan, satr osti ko'k rangli shrift bilan, xaddan tashqari ko'p miqdordagi saxifaga qilingan dastaklar uni negativ xolatga olib keladi, bu albatta, tashrif buyuruvchilarga yoqmaydi.

Baribir ko'plab xavola etuvchi dastaklardan foydalanishga to'g'ri kelgan taqdirda ko'plab aloxida aniq ko'rinish markerlangan dastak (sso'lka) ro'yxatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Dastakdagi markerlangan ro'yxatni yaratish uchun <UL> va <G'UL> standart teglari ishlatiladi. Aloxida satrlarda o'rnatishlari uchun xar bir dastak <LI> tegi bilan beriladi. Bunday dastakni joylashtirish usulida bitta kamchilik mavjud, ya'ni ularning bir o'lchamligidir. Buning ma'nosi shundaki, ularni faqat navbatdagi ketma-ket keladigan satrlarga joylash mumkin bo'ladi. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun dastaklarni ham satr bo'yicha, xam ustun bo'yicha joylashga misol bo'ladigan jadvalli dastak ishlatiladi. Web-uzelda dastaklarni ikki o'lchamli struktura usulida joylash imkoniyatlari paydo bo'lmoqda. Jadvalli dastaklardan foydalanishda etibor qaratiladigan joy shuki, ular saxifa joylarini bekordan - bekorga band qilmasinlar. Satr va ustunlar mavjudligi tufayli jadvalli dastaklar dastaklarni taqqoslash va qarama qarshi qo'yishda juda qo'1 keladi. Dastak xar bir satri va ustunini dastak belgilarining birxilligiga qarab izoxlash va nom berish mumkin.

Shunday qilib, Web-saxifa kengaytirishni texnologik bosqichlariga quloq berib bajarilganda tashrif buyuruvchilar tomonidan sinchiklab o'qiladigan jozibali Web-uzel yuzaga keladi.

### 3. Front Page 2000 master va shablanlari yordami bilan Web-uzel yaratish

Microsoft Front Page 2000 - bu Web-uzellarni quvvatlab turuvchi kuchli sistema versiyasi hisoblanadi. Bundan keyin uzel deganda saytni tushunamiz. Bu sistemani tadqiq qilishda asosiy e'tibor oxirgi foydalanuvchilar istaklarini o'rganib chiqishga qaratiladi. Natijada dastur versiyasiga uchta asosiy talablar yuzaga keldi: Web-uzel yaratishning oddiyligi, Web-uzelni oddiy usulda yangilash va Microsoft Office ning boshqa ilovalari bilan yaqin o'zaro xarakatda bo'lish imkoniyati.

Front Page 2000 ning asosiy xarakteristikalari quyidagicha;

- Yuqori darajada foydalaniladigan Web -uzellarni tez va professional tarzda yaratish imkonini beradi. Foydalanuvchi Web -saxifa elementlarni aniq pozitsiyalay oladi, HTML fayiillarini inport qila oladi va taxrirlaydi, yangi Web - texnologiyani tadbiiq qila oladi.
- Front Page 2000 ga o'rnatilgan qulay HTML muharrir oddiy ravishda qo'llanadigan HTML kod generatorli WYSIWYG muharriridan tashqari kuchli HTML muxarriri xisoblanadi. Shu tufayli HTML-kod bilan bevosita ishlovchi foydalanuvchilar bunday ishlarni yanada samaradorliroq bajaradilar. Front Page 2000 ga Web -saxifa verst vositalari va ularni elementlar rangi bo'yicha jixozlash (bezash) kiritilgan.


Bu xolda saxifalarni jozibali qilib ko'rsatadigan Dynamic HTML va Cascading Style sheets kabi ilg'or texnologiyalar faol ishlatiladi.

- Ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish osonligi. Front Page ma'lumotlar bazasiga bo'lgan talablar tuzilishini va ularni Web -saxifaga o'rnatishni odiytlashtiradi. Bundan tashqari foydalanuvchi xar safar brouzer darchasini ochishi bilan axborot yangilanib turadigan Web -saxifa yaratish imkoniyati paydo bo'ldi.
- Yaratilajak Web -uzel komponentlarini aks etirib beradi. Bu esa to'g'ri ishlayotganidan dalolat beradi. O'z navbatida, bu Web -uzelni osongina engilash imkonini beradi. Web -uzellarni yangilash va analiz qilish yangi statistik xisoblar evaziga xam oddiylashadi. Ular tarkibiga fayllar o'lchami, foydalanilmayotgan fayllar va uzilgan giperaloqalar to'g'risidagi axborotlar kiradi.
- Saxifalarga xavola qilingan barcha dastaklarni tuzatish fayllar nomini o'zgartirish yoki bu ab'ektlarni siljitish shu bilan birga mazkur kategoriyaga taalluqli qolgan barcha xujjatlarga dastak o'rnatish kabi rutin (qoliq) operatsiyalarni avtomatik ravishda bajaradi.

Bundan tashqari Front Page 2000 da Front Page Explorer va Front Page Edidor dasturlari bitta ilovaga birlashtirilgan. Ko'ptillik quvvatlab turish sistemasi dunyodagi istagan mamlakatda ishlatilishi mumkin. Chunki unda 15 ta til quvvatlab turiladi. HTML saxifalar esa operatsion sistemalar tomonidan quvvatlab turiladigan ixtiyoriy tilda yartiladi.

Front Page 2000 da tez va professional tarzda Web-uzel yaratishga yordam beruvchi maxsus vositalar, shablonlar va masterlar mavjud. Shablon mos ravishda taxrirllovchi HTML saxifa asosi xisoblanadi. **Master** bir yoki bir nechta ekranlardan iborat dastur modulidir. U qator savollar berib yaratilajak elementga beriladigan talablarni tushuntiradi. Natijada qoniqarli xujjat yuzaga keladi. Web-uzellar shablonlari kichik saytlarga joylashtirilib ularda sozlanishga muxtoj bo'lgan bir nechta elementlar bor xolos. Lekin tasvir, matn, dastak va shu kabi Front Page 2000 imkoniyatlaridan foydalanib ularni kengaytirish mumkin.

Shablon bo'yicha sayt yaratish dialogini asosiy menyudan File -New - Web tanlab olib chaqirish mumkin, bunda rasm 5.5. dagi darcha ochiladi.



**Rasm 5.5. Web -saytni yaratish darchasi.**


Web-uzel asos sifatida foydalanishda quyidagi shablonlardan birini tanlash mumkin.

- Bitta bo'sh saxifadan iborat One Page Web -sayti.
- Customer Support Web-buyurtmachilarning quvvatlash sayti. Uning yordami bilan buyurtmachilar va xaridorlar xatolar ro'yxatini, ilgirigi muomolarni bartaraf qilish bo'yicha qarorlarni, maxsulot va xizmatlarni takomilashtiruvchi takliflarni olishlari mumkin.
- Empty Web-bo'sh sayt ya'ni saxifani muallifning o'zi yaratadi va qo'shib qo'yadi.
- Personal Web shaxsiy sayt yaratuvchi shaxsiyati aks etadigan qator saxifalar.
- Project Web -sayt loyixasi qandaydir loyixa uchun ishlatiladigan markaziy informatsion forum. Bu shablon uy saxifasini yaratadi, unda loyixa ishtirokchilari berilgan loyixa bo'yicha masalalar jadvali, loyixa bo'yicha joriy ishlar xolati, qidiruv saxifalari, xaril shakllar va diskussion saxifalar, shu bilan birga xamma boshqa manzillarga xavola etish dastaklarini o'z ichiga olgan saxifalar sanab o'tiladi.

Web-uzel va saxifalarni yaratuvchi masterlar esa nisbatan ancha ko'p imkoniyatlarni taqdim etadilar. Web-uzellar uchun quyidagi masterlardan foydalanish mumkin. (Rasm 5.5)

- Corporate presence wizard-kompaniya vakolatxonasini yaratish masteri. Uning yordami bilan internetdagi o'z biznesini taqdim etish uchun uzal yaratish mumkin.
- Diskussion web wizard-xoxlagan mavzuda joyini yaratib beruvchi diskussion gurux saytni masteri. Bunda xar bir foydalanuvchi xuddi mos keladigan maqola kabi rasmiylashtiriladigan muxokamalardan biri ramkasida o'z fikr va mulozalarni izxor etishi mumkin.
- ImportWeb Wizard - import satrlar Masteri. Bu master mavjud Web -uzelning barcha fayllarini Front Page 2000 ga ulash va ulardan yangi sayt yaratishga imkon beradi. Bundan tashqari Front Page 2000 oldingi versiya saytlarini import qilishda foydalanishi mumkin.

Diskussion Web Wizard masteri asosida Web-sayt yaratishni batafsil ko'rib chiqamiz. Birinchi qadamda, berilgan master (rasm 5.5) piktogrammasi bosilgach, bu master nimaga mo'ljallangan va uning imkoniyatlari to'g'risidagi axborotli xabar paydo bo'ladi. Next tugmasini bosish navbatdagi qadamga olib boradi. (Rasm 5.6.)




**Rasm 5.6 Diskussion guruxlar saytini yaratishdagi ikkinchi qadam**

Bu erda kancha saxifa tiplari Web -uzelga ulanishini ko'rsatish zarur - diskussion forma (shakl) mundarija saxifasi, qidiruv formasi, savollar keltirilgan saxifa, daraxt ko'rinisdagi jadvallar va fikrlar va tasdiqlovchi saxifa. Muallif o'z xoxishiga ko'ra nokerak saxifalarni (birinchisidan tashqari- u diskussion saytning asosini tashkil qiladi) olib tashlashi mumkin.


Uchinchi qadamda (rasm.5.7) diskussiya nomini va diskdagi papka ismini kiritishi zarur.

To'rtinchi qadamda diskussiyaga yoqish uchun ba'zibir maydon kalitlari beriladi. Zaruriyat yuzasidan keyinchalik miqdor va imzolarni korrektirovka qilish mumkin (rasm 5.8)

Beshinchi qadamda, diskussiya yopiq saytda o'tadimi va faqat ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar ishtirok etadimi yoki diskussiya ochiq tarzda o'tadimi kabi savollarga javob izlanadi.




**Rasm 5.7** Diskussion guruxlar saytini yaratishdagi uchinchi qadam.



**Rasm 5.8** Diskussion guruxlar saytni yaratishdagi to'rtinchi qadam.

So'ngra navbatdagi qadamda xil darajada buzilgan maqolalarning mundarijadagi aks etishini aniqlash zarur bo'ladi. Ettinchi qadamda mundarija saxifasi bir vaqtning o'zida sayt uy saxifasi xam bo'laoladimi yoki yo'qmi degan savolga javob berib ketish kerak. Sakizinchi qadamda qidiruv natijasida topilgan maqolalarning qanday aks etishi to'g'risidagi xabarlar aniqlanadi. (5.9)



**Rasm 5.9** sayt diskussion guruxlari yaratishning sakkizinchi qadami.

Chap tomonda joylashgan ro'yxatda jixozlash mavzusini tanlab olish va uning namunasini bilan tanishish imkoniyati mavjud. Xamma elementlarni jixozlashdagi mavzu va uslublar (stil) barcha saytlar uchun avtomatik tarzda qo'llaniladi, va muallifga bu sayt to'g'risida bosh qotirishga xojat bo'lmaydi. Sayt yaratishning to'qizinchi qadamida sayd yaratishda freymmlar ishlatilishi yoki yo'qligini aniqlanadi. Freymmlardan foydalanilganda ularning nisbiy joylanishini belgilash imkoniyati mavjuddir. Va oxirgi qadamda yakunlovchi axborot tayyor bo'ladi. Finish tugmasini bosish bilan sayt generatsiyalanadi (tayyor bo'ladi). Shundan keyin olingan natijalarni taxririyatda o'zgartirish mumkin. Muallif yoki administrator simfatida kirish imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda yaratilgan sayt uchun administratsiyalashni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Xuddi master yordamida sayt yaratish kabi aloxida saxifalarni yaratish mumkin bo'ladi. Saxifa yaratish dialogi to'g'risida asosiy menyuda Fule -New -Page tanlanadi.

Front Page 2000 odatdagi saxifa shablonidan boshlab ko'p miqdordagi xarxil saxifa shablonlarini tavsiya qiladi. (Three Coluwv Staggered) Bu erda Web-form ni yaratish masteri inobatga olingan.. Joriy amaldagi saytga shablonlar yordami bilan yaratilgan saxifalarni qo'shib qo'yib, web saytni tez va osongina qurish mumkin. Buning uchun saxifa shablonini tanlab olishgach, asosiy darchada taxrirlash mumkin bo'lgan mos saxifa yaratiladi.

Shunday qilib master va shablonlar web saytni tez va samarali yaratishda Front Page 2000 ning eng kuchli va egiluvchan (qulay) vositasi xisoblanadi.

### 5-Mavzu bo'yicha xulosa

Web – sahifalar har xil shakllar o'lchamida va vazifasiga qarab – shaxsiy, unga xos, boshlang'ich holda bo'ladilar. Web – sahifalarni tinimsiz takomillashtirib berish kerak. Barcha Web – sahifalar birgalikda Web – uzel yoki Web – sayt deb nomlanadi. Web – sahifalarni Web – saytlarga o'tkazish ob'ektlar zarurat hisoblanadi.

Web – uzel tuzilmasini loyixalashda quyidagi omillarni inobatga olish kerak: mazmunli, jihozli, havolash va tuzilmali (standart tuzilma, kaskad uslubi, osmon o'par, o'rgumchaksimon).

Tuzilma tanlab olishgach, uning ildizli tuzilmasini kengaytirish texnologiyasiga deyiladi, ya'ni fayllarga nom berish, shu'ba sahifalarga havola qilish, standart quyidagi kalontitulni nazarda tutish (zaruriy axborot bilan), Web – uzelnig har bir HTML xujjatiga havola (havola matnini, ro'yxat yoki jadval ko'rinishida bo'lishi mumkin). Web – sahifani kengaytirish bosqichida tashrif buyuruvchilarga xar tomonlama ma'qul bo'ladigan Web – uzel shakllanadi.

Shablon va masterlarga ega bo'lgan Front Page 2040 va professional tarzda Web – uzelni yaratish imkonini beradi.

### Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Web-uzel nima degani ?
2. Web-saxifalarni kuchaytirishdagi obektiv zaruriyati ?
3. Web -uzel strukturasi loyixalashdagi asosiy printsiplar.? 4. Web-uzelni strukturalashtirish zaruriyati?
- 5 Web-uzel strukturasi asosiy variantlari va ularning xarakterli xususiyatlari ?
6. Web -saxifani kengaytirish texnologiyasining asosiy taomili.
7. Web -uzelda xavolalarni joylashtirishdagi asosiy usullar va ularning xarakteristikasi?
8. Web-uzel yaratish uchun Front Page 2000 ning shablonlari va xillari.
9. Front Page 2000 masterlari va ularning xillari.?
10. Web-uzel shablonlari nimaga asoslanadi?

### 6-Mavzu: Front Page muharririning qo'shimcha imkoniyatlari

#### Ajratilgan soat - 2

#### Asosiy savollar:

1. Freym tuzilmali saxifalar.
2. Web – saxifaning aktiv boshqaruv elementlari.
3. Formalar – axborotni tashrif buyuruvchilar bilan kiritish uchun vosita.

#### Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Freym, aylanish tasmasi, contents shabloni, Faoter shabloni, Footnotes shabloni, sfhifaning quyi qismi, sayt mundariyasi, axborotni aniqlashtirish, xujjat ko'rib chiqish darchasi, asosiy freym, rang o'zgartiruvchi tugmalar, multiplikatsion elementlar, berilganlarning interaktiv bloklari, Mouse over, page Load, Drop Down, Elastic, Hop, Ole (Object Linkind and Embedding), Office pivot Table, Office Chart, element darchasi, xujjat URL ini o'rnatish uchun maydon interfeys, forma yaratish Submit tugmasi.

#### “Front Page muharririning qo'shimcha imkoniyatlari” mavzusi bo'yicha darsning texnologik xaritasi

T.r.	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ullar
1	<p><b>Tayyorlov bosqichi:</b></p> <p>* Maqsad: Front Page muharririning qo'shimcha imkoniyatlaridan foydalangan holda freym tuzilmali sahifalar yaratish yamda formalardan foydalanish bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalarni egallash/</p> <p>* Vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalarda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish;</li> <li>- mavzuga oid tarqatilgan materiallarni, nazorat topshiriqlarini talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara orqali nazorat topshiriqlari qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini aniqlash;</li> </ul> <p>* Mazmun: Freym tuzilmali sahifalar, web sahifaning aktiv boshqaruv elementlari, web sahifada formalar tashkil etish texnologiyasi, ko'rgazmali va amaliy metodlarni o'rganish.</p>	O'qituvchi
2	<p><b>Darsni tashkil etish bosqichi:</b></p> <p>Uslub: Og'zaki bayon qilish.</p> <p>Shakl: ma'ruza mashg'uloti, kichik guruhlar va jamoada ishlash.</p> <p>Vosita: tarqatma va taqdimot materiallari.</p> <p>Usul: tayyor yozma materiallar.</p>	O'qituvchi




	Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish. Baholash: Rag'batlantirish, reyting tizimi asosida baholash.	
3	<b>Mustaqil ishlash bosqichi:</b> - munozara, aqliy hujum, mikrogruhda ishlash va boshqa metodlar orqali nazorat topshiriqlarini echishga yo'naltiriladi. - talabalar nazorat topshiriqlarini hal qilish to'g'risidagi fikrlarini o'zaro muhokama qilishadi. - o'zi va mikrogruh uchun yagona javobni tanlaydi.	Talaba
4	<b>Natijalarni eshitish va tahlil qilish bosqichi:</b> - talabalar va mikrogruh fikri tinglanadi, ularga aniqlashtiruvchi savollar beriladi. - mikrogruhlarining javoblari to'g'risida talabalar fikri aniqlanadi. - javoblar tahlil etiladi.	O'qituvchi - talaba
5	<b>Yakuniy va baholash bosqichi:</b> - talabalar bergan javoblardan ko'pchilik fikriga mos kelgani alohida ajratib olinadi. - talabalarning nazorat topshiriqlarini echishdagi faolligi, intilishlari hisobga olingan holda baholanadi. - yakuniy fikr aytiladi. - mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi

### 1. Asosiy savol bayoni: Freym tuzilmali saxifalar.

Freym tuzilmali saxifalar birdaniga bir necha shu'ba (docherniy) darchalari bilan ishlashga imkon beradi. Freym – bu saxifadagi joy bo'lib, unda boshqa HTML xujjat ko'rsatiladi. Freym o'zining aylantirish tasmisiga ega bo'lgan maxsus ko'rib chiih darchasi xisoblanadi. Freymlar chegsharalari o'zgarishi mumkin, ya'ni freymlar xarakterlanuvchi chegara splitter bilan ajratilgan bo'ladi. Freym joylashgan saxifa xech qanday qiymatga ega emas. U boshqa Web - saxifalarni joylash uchun xizmat qiladi. Odatda chegarada ikkitadan to'rttagacha freymlar joylashadi.

Front Page birnechta tayyor, tekshiruvdan o'tgan, nomdor samarali freym tuzilmalariga ega bo'ladi. Freymnlarni mavjud saxifalarga o'rnatish mumkin emas ( agar u bo'sh bo'lgan taqdirda xam) Freym tuzilmali saxifalarni yaratish zarur (File –New 0 pege) New darchasi faollashadi. Fremes Pfges ning qo'shimcha darchasida Web – saxifa uchun 10 ta shablon joylashgan bo'ladi. (rasm 6.1.)



### Rasm 6.1. New darchasining Fremes Pages qo'shimcha varaqasi.

Xar bir shablon qisqacha annotatsiya bilan ta'minlangan. **Privies** darchasida yaratilajak saxifa tuzilmasi ko'rinib turadi.

**Banner and Contents** shablони uchta freymli saxifani yaratadi. Saxifaning yuqori qismida saytning umumiy nomi va navigatsiya panelini o'z ichiga olgan banner joylashgan. O'ng qismi ko'ri, chiqish uchun tanlab olingan sayt qismi uchun mo'ljallangan. Buning uchun yuqori freymning navigatsion panelidan foydalaniladi. Darchaning asosiy qismini asosiy HTML aks etaadigan bosh freym egallagan.

Ikki freymli **Contents** shablони. Saxifaning yuqori qismidagi tor freym sayt mundarijasi uchun, o'ng qismi esa tanlab olingan saxifaning asosiy freymi uchun ajratilgan. Shablon **Footer** saytga tegishli barcha qiymatlarni o'z ichiga olgan freymni asosiy saxifaning quyi qismiga joylashadi. **Footnotes** shablonida pastki freym biroz ko'proq joyni egallaydi. **Header** shablonida bitta freym navigatsion panelga tegishli bo'ladi. Saxifaning yuqori qismini navigatsiya qismi uchun tor freym egallagan.

Shablon **. Header, Footer and Contents** to'rtta freymli saxifa yaratadi, xujjatni ko'rib chiqishi uchun asosiy freym, sarlavxalar, saxifa podvali, saxifaning quyi qismi va uning chap qismidagi mundarija uchun freym.


**Horuzontal Split va Vertual Split** shablonlari saxifani mos ravshda garizontal va vertikal bo'yicha ikki qismga bo'ladi. Ular bir - biriga bog'liq bo'lmagan xujjatli ikki freym uchun mo'ljallangandir.

Ierarxik tuzilmali freym'larga ega bo'lgan saxifalarni yaratish uchun **Vested Hierarchy** va **Top-Down Hieazachy** shablonlari mavjud. Bu shablonlar freym'larning joylashish tartibi bilan farqlanadi. Birinchi shablonda saxifaning chap qismida sayt mundarijasi freymi joylashgan bo'lsa yuqori o'ng burchakda axborotlarni aniqlab beruvchi freym, asosiy qismi esa olingan xujjatni ko'rib chiqish uchun asosiy darchaga ajratilgan. Ikkinchi shablon vertikal ierarxiya saxifani yaratib beradi. Saxifaning yuqori kolontitulida navigatsiya paneli, biroz pastroqda freym, uning ostida esa asosiy joylashgan bo'ladi.

Shablon tanlab olingach "Ok" va yangi freym tuzilmali saxifa tayyor. Har bir freymda majud **Set Initial Page** tugmachasi giperaloqalarni yaratib beruvchi, darcha yordamida mavjud bo'lgan saxifani freymga bog'lab beradi. Mobodo, bunday saxifa bo'lmasa uni New Page tugmasi yordamida yaratish mumkin.

Freym tuzilmani Web - saxifani yaratishda odatdagi uchta ish rejimiga asosiy ishchi darchaning ikkita qo'shimcha varaqasi ham qo'shiladi. **Normal** qo'shimcha varaqa loyixalanayotgan saxifani ko'rsatadi. **No Fromest** qo'shimcha varaqada "This page uses frames. But your browser daesut suppert thim", ya'ni mazkur brauzer freym tuzilmali saxifani aks ettiraolmaydi.

Alohida olingan freymlar xususiyatlarni o'rnatish uchun (matn kursorli faol freym) **Frame Properites** (Frame-Frame Properites ) muloqot darchasi yoki kontekst menyuu buyrug'i ishlatiladi (rasm 6.2.)



Rasm 6.2. Frame Properties muloqat darchasi.

Name kirish maydoni oldindan o'rnatilgan fayl nomini o'zgartirishga imkon beradi. Initial Page esa shu freymda boshidan ko'rsatilajak Web - saxifalarni yaratadi. Bu maqsadlar uchun Browse tugmasidan foydalanish mumkin.

Frame size boshqarish bloki freym o'lchamini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Web - saxifani ko'rib chiqish vaqtida uzoqdagi foydalanuvchi tamonidan freym o'lchami o'zgartirilganda Options boshqaruv elementlar guruhi freymning aks etish rejimini o'rnatadi. Frames Page tugmasi freym tizilmali saxifaning barcha xususiyatlarini o'rnatish uchun xizmat qiladi.

Freymlar bilan ishlashda eng asosiy masala bu saxifaning freym tuzilmasini to'g'ri yaratish va xujjatlarni to'g'ri aks ettirish uchun giperaloqalarda freym nomlaridan faol foydalanish.

## 2. Web - saxifaning aktiv boshqaruv elementlari.

Aktiv elementlarga HTML vositalari bilan amalga oshirib bo'lmaydigan, lekin Web - saxifalarni rasmiylashtirishda ko'plab ishlatiladigan ob'ektlar kiradi. Masalan, sichqoncha kursori to'g'ri kelganda o'z rangini o'zgartiradigan tugmalar, multiplikatsion elementi matn bloklari, berilgan ma'lumotlarning interaktiv bloklari, berilganlarni avtomatik usulda xisoblovchi jadvallar va b.q.

Houtaye aktiv elementlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

DHTML (Dunamic HTML). Bu effektlar guruxi matn satrini animatsiya qilish uchun ishlatiladi. Effektni tanlashda DHTML Effects asboblar panelidan foydalanish ma'qul (View - Toolbars - Dunamic ) HTML Effects yoki Format - Dunamic UMLL Effects).

DHTML Effects panelida kerakli satrni ajratib olingach, On ro'yxatiga erishiladi. Uning yordami bilan tanlab olingan effekt (samara) paydo bo'ladi. Bunday samarali voqeelik Click yoki Double Click satrlarida bir yoki ikki marta sichqoncha bilan chiqillatish orqali sodir bo'ladi. Maus over - satr ustida kursorning paydo bo'lishi, Page Load - o'zhdagi foydalanuvchi brauzeri bilan saxifani yuklash.

Samarali voqeelik o'matilgach, Apply ro'yxatida aniq effekt tanlanadi: Drop Down brauzer ko'rib chiqish darchasining yuqori chegarasidan yoki HTML - xujjat freymning yuqori chegarasidan saxifa so'zlarini navbati bilan tashlab yuboradi.

Elastic effektni tanlash DHTML Effects asboblari paneli ro'yxatini faollashtiradi. Unda tanlab olingan effektlar parametrlarini o'rnatish mumkin. Elastic hamma satrlarni ko'rish darchasi yoki freym chegarasidan chiqib ketishga, o'z joyiga uchib borishga, asta - sekin xarakat tezligini pasaytirib inertsiya bilan mo'ljaldagi xolatiga qaytib kelishga majbur etadi.

Front Right parametri darchaning o'ng chegarasida paydo bo'lgan satrni garizontal bo'yicha, From Bottom bilan esa darchaning quyi qirrasidan vertikal bo'yicha xarakatlanishiga majbur qiladi.


Flyin effekti satrni ko'rsatilgan joydan uchib chiqqach, o'z xolatiga qaytishga majbur etadi. Front Right, From Bottom, From Left va From top parametrlari start olish joyi sifatida mos ravshda ko'rib chiqish darchasining o'ng quyi, chap va yuqor chegaralarini ko'rsatadi. From Bottom- Left, From Bottom right, From top-Left qiymatlari darcha burchaklaridan foydalanishga imkon yaratadi.

Along Corner effekti - Fly in va Elastic effektlarning qo'shilishi xisoblanadi. Satr boshida u ko'rib chiqish darchasining quyi chegarasidan ko'tarilgach, zarur joygacha Elastic effekti uslubida vertikal bo'yicha xarakatlanadi.

From top right by word ba From Bottom-right by word effektlari satr so'zini navbati bilan ko'rib chiqish darchasining yuqori o'ng va quyi o'ng burchagidan chiqarib tashlaydi.

NOR effekti satrni aloxida so'zlarga ajratadi va effekt paydo qiladi, ya'ni Spiral effekti satr maqsadiga seynasa, Ware effekti HOP kabi so'zli effektlar paydo qiladi. Wipe effekti Left to right, Top to Bottom, From middle parametrlari bilan chapdan o'nga, yuqoridan pastga vertikal bo'yicha, o'rtadan qirralarga garizantal bo'yicha satrni yuzaga keltiradi. Zoom effekti In parametrlari bilan satrni kichik o'lchamdan asta - sekin zarur bo'lgan o'lchamgacha oshiradi, Out parametri bilan esa teskari tamonga oshiradi.

Click yoki Double Click effektlari matn satrida mavjud. Fly out Fly in ga o'xshash, lekin teskari xarakatlanadi. Formatting satrning tashqi ko'rinishini o'zgartiradi. DHTML Elastic ro'yxatida yangi shriftni tanlash uchun standart muloqot darchasini faollashtiruvchi Choose font alternativni tanlab olinadi. Satr chegaralarini o'rnatish uchun faollashuvchi Choose Border qiymati, ramkalarni o'rnatishda esa faollashuvchi Borders and Shading darchasi qo'llaniladi (rasm 6.3.)



### Rasm 6.3. Borders and Shading muloqot darchasi, Borders qo'shimcha varaqasi.

Setting blokida ramkalarining uch xil namunasi joylashgan. Indamaslik bo'yicha ishlatiladigan None variantida ramka mo'ljallanmagan. Yagona chiziq o'rnatish (Box xili) Style ro'yxatidan tanlanadi.


Custom xili blokning harbir tomoni uchun chegaralovchi chiziqni o'rnatib beradi. Padding boshqaruv elementlari blokga chegara o'lchamlari piksellarda ko'rsatiladi. Shading qo'shimcha varaqasi yordamida ramka soyasining rangi va blok foni o'rnatiladi.

DHTML panelida bulardan tashqari Remove Effect (o'rnatilgan effektni olib tashlash uchun) va High light dynamic HTML Effects (dinamik effektni barcha satrlarni qidirish uchun) tugmalari mavjud.

2. Office Spreadsheet faol elementi MS Excel jadvaliga o'xshash bo'lib, Active X. texnologiyasiga asosan amalga oshirilgan. Bu texnologiya asosida OLE (objekt Linking and Embeding) standart prinsipi yotadi, ya'ni ob'ektlarni bog'lovchi va tadbiiq qiluvchi standart OLE 2.0 standart versiyasida ob'ektning kamponent modeli - SOM (Component Objekt Model) to'la - to'kis ishlatilgan, SOM modeli bog'lovchi va tadbiiq etishga nisbatan ancha ko'p imkoniyatlarga ega. Umuman, SOM yaratilajak ob'ekt funksiyasining ro'yxati xisoblanadi. Mana shu modeldan Active X ning aktiv elementlari yaratilgan.

Office Spreadsheet aktiv elementi xuddi Office pivot Table (ma'lumotlarning taxliil qilish vositalari jadvali) va Office chart (oddiy dastur) kabi M.S Office Web Components ning bittasidir. Ular M.S Office 2000ning standart bloklari xisoblanadi, barcha elementlari ruslashtirilgan va ma'lumotlar ham rus tilida taqdim qilinadi.

Office Spreadsheet elementi elektron jadvalning standart maydonidan tashqari ko'p tugmali asboblari paneliga ham ega. Ularning bittasi bilan elektron jadval varag'ida xususiyatlarni o'rnatuvchi darchani chaqirish mumkin. (rasm 6.4.)




Rasm 6.4. Elektron jadvalning o'rnatilgan aktiv elementi xususiyatlarini o'rnatuvchi muloqot darchasi.

**Office Spreadsheet** varag'i raqamli va matnli qiymatlarni va avtosummirovanie ni bajarish imkonini bor formulalarni yacheykaga kiritish imkonini yaratib beradi Aktiv elementni o'rnatish: **Zusert - Component - komponent ro'yxatda Office Spreadsheet** ni yoki boshqasini tanlash kerak.

### 3. Banner Ad Manager.

**Insert - Component - Banner Ad Manager** yoki asboblar panelidagi tugma.

Qandaydir Web-resursga sso'lka (xavola) ni o'z ichiga olgan plakat (banner) ni o'rnatish mumkin. (rasm 6.5.)




Rasm 6.5. **Banner Ad Manager Properties** darchasi.

Link to kirish maydonida havola qilinajak hujjatga URL ko'rsatiladi. PICTURES TO Display ro'yxatida bannerda aks etadigan grafik fayllar nomi joylashgan bo'ladi. Add - qo'shish, Remone - o'chirish. Move Up Move Down show each pirture for (secands) kirish maydonida o'rnatirib sekundaro keladigan rasmlar tartibini o'zgartiradi. Transition sffet ro'yxatida nomlar effekti ko'rsatilsa, bannerning bo'yi va eni esa Heiight Weiight maydonida ko'rsatiladi.

### 4. Hit Couter – davomad schetchigi

Mos kelgan buyruqlarni tanlashda Hit Counter properties darchasi faollaashadi (rasm 6.6.)



Rasm 6.6. Hit Counter properties darchasi.

Counter Style maydonida schetchikdagi beshta raqamlar yozuvining bittasi yoki Custom Picture alternativi tanlab olinadi va kirish maydonida o'zgacha yozuvdagi raqamli rasmga ega GIF formatidagi grafik fayl nomi ko'rsatish zarur.

Noldan farqli schetchikning boshlang'ich qiymati Reset counter to maydonida ko'rsatiladi. Indamaslik bo'yicha esa beshta raqam ishlatiladi.

Bulardan tashqari ko'plab faol elementlar ishlatiladi. Masalan, giperaloqalarni chiroyli qilib rasmiylashtirib beradigan **Hover Button** tugmasi (oldindan kampilyatsiya qilingan javo dagi mini ilova); HTML – xujjatda yugurib o'tuvchi satrni yaratuvchi – **Marquee** (faqat HTML vositalari bilan yaratiladi); bitta Web – sahifada boshqa sahifa qiymatlarini ko'rsatuvchi.

**Include Page** (avtorlik xuquqi to'g'risidagi xabar qog'ozi).

**Scheduled Picture**, - ma'lum bir vaqt ichida sahifada aks etuvchi grafik tasvirlarni joylash uchun xizmat qiladi. **Scheduled Include Page** jadval bo'yicha aks ettiriladigan tadbir etilajak sahifa; **Substitution** odatda quyi sahifa kolontitullarida oldindan rezervlangan sahifalarni o'rnatadi.

**Categories** – sahifaning quyi qismiga o'rnatadi va assotsiativ aloqalarni amalga oshiradi.

**Table of Contents** aktiv elementi to'g'risida batafsil g'plashamiz. Bu saytning muhim atributlaridan biri hisoblanadi (ya'ni mundarajasi). Mundarajani ixtiyoriy sahifadan boshlash mumkin va unga sayt ierarxiyasidagi barcha bog'liq bo'lgan sahifalar kiradi

Boshlang'ich sahifa URL va **Page URL for starting point of table** maydonida bo'ladi. Sarlavha uchun shrift o'lchami Heading font size maydonida beriladi. Qolgan boshqaruv elementlari Show Lach page only once ning bayroqlari sanalib, Web – sahifaning bir marta ko'rsatish mumkinligini ko'rsatadi. Show pages with incommind hyperlines bayroqchasi giperaloqaning shunday sahifalarini aks ettirishga imkon beradi-ki, ulardan boshlang'ich sahifa mundarajasi bo'lmaydi (etim sahifalar – orphan pages). **Recompute table of contents when any other page is edited** bayroqchasini o'rnatish sayt sahifalaridan bittasi o'zgarganda mundarajani har safar qayta hisoblashga majbur qiladi.

Bundan tashqari, internetda ko'plab aktiv elementlarni topish mumkin, topilgan java appletlar – **Insert – Advanced – Java Applet** ni; ulanajak kengaytish modullar - **Insert – Advanced – Plug-in** ni o'rnatish mumkin.

**Insert – Advanced – Active X Control** - Active X elementlari; agar Front Page ning ish natijalari qoniqarsiz bo'lsa, sahifaning bir qismini to'g'ridan – to'g'ri HTML teglaridan yozish mumkin.

### Insert – Advanced HTML

Front Page aktiv elementlaridan va Internet elementlaridan to'g'ri foydalanib saytni sharafl bilan rasmiylashtirish mumkin, lekin unga interaktivlik va dinamiklik xususiyatlarni qo'shish kerak bo'ladi. Teskari bog'lanishli to'liq interaktivlik formalarni yaratishga imkon yaratadi.

### 3. Formalar – axborotni tashrif buyuruvchilar bilan kiritish uchun vosita

Formalar sayt tashrif buyuruvchisi bilan axborotlarni kiritish uchun mo'ljallangan-ki, keyinchalik ularga ishlov berish mumkin bo'lsin (tashrif buyuruvchini ro'yxatga olish, mehmonlar daftarchasida ularning fikr va mulohazalarini qayd qilish, har xil Viktorina va anketlashtirishlar o'tkazish va b.q.), matnni taxrirlash maydonini terish, ro'yxatlar, radio tugmalar va bayroqchalar – tipik formalar hisoblanadi. Bu kabi barcha boshqaruv elementlariga odatda ikkita tugma qo'shiladi.

Ulardan biri foydalanuvchi indamaslik bo'yicha kiritgan qiymatlarni yangilaydi, ikkinchisi esa kiritish jarayonini tugallab, saytdagi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun jo'natadi.

Formalarning o'zi HTML vositalari bilan yaratiladi, qayta ishlash uchun CGI – ilova yoki uning analogi ISAPI – kengayish ishalatiladi.

CGI (Common Gateway Interface) standart interfeys Web – server yordamida ma'lumotlar bazasi va mahsuslashgan Internet – ilovalar o'rtasida, axborotlar almashuvini amalga oshiradi. Bu ilovalar HTTP (Hyper Text Transfer protocol) yordami bilan Web – serverdan axborot qabul qiladi, unga ishlov beradi va natijani shakllantirgan Web saxifa yoki sso'lka (havola) ko'rinishida amaldagi sahifaga qaytaradi.

ISAPI (Internet Server Application Interface) Web server tomonidha bajarilajak ilovalar uchun interfeys CGI ning qo'shimcha varianti kabi ishlab chiqilgan. CGI va ISAPI ilovalari serverga natijalarni jo'natuvchi «Submit» tugmasiga bog'liqdirlar. Forma quyidagicha ishlaydi. Saytning tashrif buyuruvchi brauzeri HTML kod sahifani formasi bilan qabul qilib olinadi va uni aks ettiradi. Hamma maydonlar to'lgach, uzoqdagi foydalanuvchi «Submit» tugmasini bosadi. Natijada foydalanuvchining qiymatlari yozilgan maxsus satr shakllanadi. Bunday satr HTTP protokoli yorlami bilan saytga uzatiladi. Saytda CGI yoki ISAPI lar satrni qabul qilib olib qayta ishlaydilar, uzoqdagi foydalanuvchi ma'lumotlarni inobatga olgan holda yangi sahifani shakllantiradilar va uni HTML –sayt foydalanuvchi brauzeriga HTTP protokoli yordamida uzatadilar.

Front page yordamida forma (shakl) yaratish:

Insert – Form – Form.

Ma'lumotlarni Reset (boshlang'ich qiymatni o'rnatish uchun) va «Submit» (ma'lumotlarni serverga uzatish uchun) tugmalari bilan kiritishda sahifada boshqaruv elementlarisiz forma (shakl) paydo bo'ladi. Bu forma tayyorlov jarayoni deb qabul qilinadi. Bu forma uchun ajratilgan joyni hamisha kengaytirish so'ngra unga keyinchalik zaruriy boshqaruv elementlarini qo'shish mumkin.

### 6-Mavzu bo'yicha xulosa

Bir vaqtda bir nechta shu'ba darachalari bilan ishlash uchun freym tuzilmali saxifalar mavjud. Front Page bir qancha tayyor, tekshiruvdan o'tgan va nomdor samarali freym tuzilmasiga ega. freymlar bilan ishlashda eng asosiy masala, bu freym sahifa tuzilmasini to'g'ri yaratish va xujjatlarni xatosiz aks ettirish uchun giperxavolalarda freym nomlaridan faol foydalanish.

Web – sahifani jihozlashdagi faol elementlarga quyidagilar kiradi:

- 1) Dynamic HTML (DHTML) – matn satrlarini animatsiya qilishdagi samara guruhi.
- 2) Active X texnologiyasida amalga oshirilgan office Spreadsheet aktiv elementi (Excelga o'xshash).
- 3) Banner Ad Manager – bankerni qaysidir. Web resursga o'rnatish (giperaloqa bilan).
- 4) Hit Conter – davlat schetchigi.

Formalar sayt tashrif buyuruvchilar tomonidan u yoki bu axborotni kiritish uchun mo'ljallangan (axbrotni keyinchalik qayta ishlash mumkin). Fermalar asososan HTML vositalari yordamsi bilan yaratilsa – da, Front Page ham shunday formalarni yarataoladi.



### Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Freym nima degani?
2. Ikki freymli freym tuzilmasining shablonlari?
3. Uchta freymli freym tuzilmasining shablonlari?
4. To'rtta freymli freym tuzilmasining shablonlari?
5. Ierarxik Nested Hierarchy tuzilmali shablon?
6. Ierarxik Top – Dawn Hierarchy tuzilmali shablon?
7. Effektiv elementlar to'g'risida tushuncha?
8. Table of Contents aktiv elementi?
9. Formalar ahamiyati?
10. CGI (Common Gateway Interface) va ISAPI (Internet Server Application Programming Interface).

#### 7-Mavzu: HTML belgilash tili to'g'risida umumiy tushuncha

##### Ajratilgan soat – 2

##### Asosiy savollar:

1. Hyper Text Markup Language (HTML) belgilash tili tugrisida umumiy ma'lumot
2. HTMLning asosiy teglari.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** HTML (Hyper Text Markup Language), Teg (tag), HTML qoidasi, ochuvchi teg, yopuvchi teg, juft teglar, teg konteyner, yolg'iz teglar, taxlangan juft teglar, taxlashtirish darajasi, ota-ona tegi, qiz tegi, HTML spetsifikatsiyasi, HTML – xujjat muqaddimasi, simvollar formatlari, .HTM. va HTML kengayishi, HTML – standart, maxsus formatlashgan tegdar, HTML ning zaxiraga olingan simvollarini

#### “HTML belgilash tili tugrisida umumiy tushuncha” mavzusi bo'yicha darsning texnologik xaritasi

T.r.	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ullar
1	<p><b>Tayyorlov bosqichi:</b></p> <p>* Maqsad: Hyper Text Markup Language (HTML) belgilash tili tugrisida umumiy ma'lumot olish, HTMLning asosiy teglaridan foydalanish bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalarni egallash.</p> <p>* Vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalarda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish;</li> <li>- mavzuga oid tarqatilgan materiallarni, nazorat topshiriqlarini talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara orqali nazorat topshiriqlari qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini aniqlash;</li> </ul> <p>* Mazmun: Hyper Text Markup Language (HTML) belgilash tili tugrisida umumiy tushunchalar, web sahifalar yaratishda HTML teglaridan foydalanishni o'rganish.</p>	O'qituvchi
2	<p><b>Darsni tashkil etish bosqichi:</b></p> <p>Uslub: Og'zaki bayon qilish.</p> <p>Shakl: ma'ruza mashg'uloti, kichik guruhlar va jamoada ishlash.</p> <p>Vosita: tarqatma va taqdimot materiallari.</p> <p>Usul: tayyor yozma materiallar.</p> <p>Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish.</p> <p>Baholash: Rag'batlantirish, reyting tizimi asosida baholash.</p>	O'qituvchi
3	<p><b>Mustaqil ishlash bosqichi:</b></p>	

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- munozara, aqliy hujum, mikrogoruhda ishlash va boshqa metodlar orqali nazorat topshiriqlarini echishga yo'naltiriladi.</li> <li>- talabalar nazorat topshiriqlarini hal qilish to'g'risidagi fikrlarini o'zaro muhokama qilishadi.</li> <li>- o'zi va mikrogoruh uchun yagona javobni tanlaydi.</li> </ul>	Talaba
4	<p><b>Natijalarni eshitish va tahlil qilish bosqichi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalar va mikrogoruh fikri tinglanadi, ularga aniqlashtiruvchi savollar beriladi.</li> <li>- mikrogoruhlarning javoblari to'g'risida talabalar fikri aniqlanadi.</li> <li>- javoblar tahlil etiladi.</li> </ul>	O'qituvchi - talaba
5	<p><b>Yakuniy va baholash bosqichi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalar bergan javoblardan ko'pchilik fikriga mos kelgani alohida ajratib olinadi.</li> <li>- talabalarning nazorat topshiriqlarini echishdagi faolligi, intilishlari hisobga olingan holda baholanadi.</li> <li>- yakuniy fikr aytiladi.</li> <li>- mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</li> </ul>	O'qituvchi

### 1. Asosiy savol bayoni:

#### Hyper Text Markup Language (HTML)ni belgilash tili tug'risida umumiy ma'lumot.

Butun dunyo urgimchagi – World Wide Web (WWW) HTML gipermatn bolanish tili yordamida tuzilgan Web-saxifalardan iborat HTML ancha murakkab til (Standart Generalived Marnup Language SGMLning xisoblanadi. Ananaviy tushuncha buyicha HTML butunlay dasturlash tili xisoblanmaydi. HTML – xujjatni belgilash tili. HTML – xujjatni tadkik qilishda matnli xujjatlar teg(tag)lar bilan belgilanadi. Ular maxsus burchakli ishoralar bilan urlagan bo'ladi (< va >). Teglar matnlarni formatlashda va matnga xarxil nomatn elementlarni masalan, grafikalar, kushimcha ob'ektlar va shu kabilarni urnatishda ishlatiladi.

HTML tilining asosiy qoidalari quyidagicha:

**Qoida 1.** HTMLdagi istagan xarakter teglar bilan aniqlanadi. Bitta teg (chap) xarakterning bosh kismida, ikkinchisi esa (o'ng) oxirida turadi. Bunda teglar « < » yoki « > » ishoralar bilan yonmayon turadi. Yolg'iz o'zi ishlatiladigan teglar xam mavjud.

**Qoida 2.** Brauzer darchasidagi burchakli qavs ichiga joylashtirilgan istagan teg yoki boshqa instuksiya tashqariga chikarilmaydi va HTML- fayl uchun ichki buyruq xisoblanadi.

**Shakl:** <HTML>.....saxifa matni.....</HTML> bunda chapki teg <HTML> HTMLdagi xujjatning boshlanishini,</HTML> teg esa oxirini anglatadi. Agar brauzer chapki tegga duch kelsa, navbatdagi matn – bu HTMLdagi kod ekanligi ma'lum bo'ladi. Brauzer uz darchasida tegni emas, balki teglar o'rtasidagi matn ko'rsatadi. Bu teglar bilan HTMLdagi istagan xujjat boshlanadi va tamom bo'ladi.

HTML qoidalariga ko'ra yopuvchi (o'ng) teg xuddi ochuvchi (chap) teg singari yoziladi, lekin teg nomi oldiga «|» (tugri slesh) simvoli qo'shib qo'yiladi. Qo'shaloq teglar orasida yagona printsipial farq shundaki, yopuvchi teglar parametrlardan foydalanmaydilar.

Mos yakunlovchi teglarga muxtoj bo'lgan teglar **konteyner teglar** deyiladi. Ochuvchi va yopuvchi teglar orasida yozilganlarning barchasi teg-konteyner tegishli bo'ladi. Ba'zida yakunlovchi tegni tushirib qoldirsa ham bo'ladi. Masalan, <TD> jadvalining yacheykasidagi ma'lumotlarni ifodalovchi teg uchun unga mos bo'lgan yopuvchi teg </TD> ni doimo tushirib qoldirish mumkin, jadval yacheykasi uchun ma'lumotlarning tugallanganligi navbatdagi <TD> tegning paydo bo'lishi orqali aniqlanadi.

Qator teglar yakunlovchi teglarga muxtoj bo'lmaydilar. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin: <IMG> tasvirni o'rnatish tegi; <BR> satrining majburiy ravishda uzatilishi; <BASEFONT> bazaviy shriftning ko'rsatmasi va boshkalar. Ko'pincha, tegning moxiyatiga qarab uning yakunlanishiga muxtojligi to'g'risida fikr qilish mumkin.

HTMLda teglarning noto'g'ri yozilishiga e'tibor berish odat tusiga kirmagan. Noto'g'ri yozilgan teg yoki uning parametrini brauzer aniqlanishi kerak. Bu barcha brauzerlar uchun umumiy qoidadir. Ba'zan brauzerlar ta'siri ostiga xato yozilgan teglar bilan birga, brauzerning ma'lum versiyasi anglanmagan teglar xam tushib koladi.

HTML teglari «**xissa kushish**» darajasi bo'yicha ajralib turadilar. Murakkab HTML – xujjatlarda ba'zi elementlarning xissa qo'shish darajasi 10dan ham oshishi mumkin. Bunda oldingi xissa kushish darajasida bo'lgan teglar mavjud teglarga nisbatan Bosh (roditelskiy) teg deyiladi. Mavjud teg esa tarmoklanib chikkan (docherniy) yoki shu'ba teg xisoblanadi. Uz navbatida, shu'ba – teg o'z xissasini qo'shgan boshqa teglarga nisbatan bosh teg xisoblanishi mumkin.

Teglar parametrlar yoki atributlar (ang. attribute) bilan yozilishi mumkin. Ruxsat etilgan parametrlar yig'indisi xar bir teg uchun individual xisoblanadi. Parametrlar yozishining umumiy qoidaga quyida keltirilgan. Teglar nomidan keyin bir-birlari bilan probellar bilan ajralib turadigan teglar yozilishi mumkin. Teg parametrlarining ketma-ketligi ixtiyoriy ravishda bo'ladi. Kup parametrlar ularning **moxiyatini** (znachenie) ko'rsatishni talab qiladilar, lekin ba'zi parametrlar ularsiz yozilib **fikr bildirmaslik** (jim turishi)ni ma'kul kuradilar. Agar parametr moxiyat talab qilsa, u xolda parametr nomidan keyin tenglik (q) ishorasi orqali kursatiladi. Parametr moxiyati kavs ichida yoki kavssiz yozilishi mumkin. Agar parametr moxiyatida probel ishtirok etgan bulsa, u xolda kavs, albatta yoziladi. Parametr moxiyatida (teg va parametrlar nomidan farqli ravishda) ba'zida yozuv registri muxim bo'ladi. Tegning parametr bilan yozilishiga misol:

< TABLE BORDER ALIGNq "left">

Bu erda <TABLE> tegi uchun ikkita parametr berilgan. Moxiyatsiz kursatilgan birinchi parametr BORDER. Ikkinchi parametr ALIGN left moxiyatiga ega.

HTML teglari xarxil parametrga ega bulishi mumkin, lekin barcha teglarga mos tushadigan kator parametrlar xam mavjud. Masalan, HTML xujjatidagi <BOD> bulimida foydalanishga ruxsat etilgan barcha teglar kuyidagi parametrlarga ega bulishi mumkin: CLASS, ID, LANG, LANGUAGE, STYLE va TITLE. Parametrlar CLASS, ID, STYLElar Internet Explorerning 3.0 versiyasidan boshlab va Netscape ning 4.0 versiyasidan boshlab kuvvatlanib keladilar. Bu parametrlar uslub (stil)lardan fodalanihganda kerak bo'ladilar. Parametrlar LANG, LANGUAGE, TITLE lar fakat Internet Explorerning 4.0 versiyasidan boshlab kuvvatlanib keladilar. Bu parametrlar mos kelgan foydalanadigan tillarni ko'rsatadilar (masalan, Rossiya uchun LANGqr), skript yozish tilini (masalan, LANGUAGEqJava Script) va boshqalar.

Zamonaviy HTMLda til teglari va unda ko'rsatilgan qiymatlar bilan birga, boshlang'ich HTML-kodda **stsenariy kodlari**(Java Script yoki VB Script) xam yoziladi. Ular to'grisida 8-bobda batafsil gapiriladi.

90-yillarning o'rtalarida Internet tarmog'ining eksponentsial ushisi okibatida HTML tili ommaviy tus oldi. Bu vaktga kelib tilni standartizatsiyalash zarurati tug'ildi, chunki kup kompaniyalar Internetga kirish uchun ko'plab dasturiy ta'minotlar ishlab chiqdilar, to'xtovsiz o'sib borayotgan (HTML instruksiyasi bo'yicha) o'zlarini variantlarini tavsiya qildilar. HTML tili teglarini qo'llash bo'yicha yagona bir qarorga kelish payiti yakinlashgan edi.

World Wide Web Consortium (kiskacha – W3S) deb nomlangan tashkilot HTML standart (spetsifikatsiya)ni yaratish ishlarini uziga oldi. Uning vazifasiga brauzerlar tadkikotchi kompaniyalarning xarxil takliflarini xisobga olgan xolda tilning zamonaviy rivojlanish imkoniyatlari darajasini aks ettiruvchi standartni yaratish kiradi. Spetsifikatsiyaning tasdiqlash sxemasi quyidagilardan iborat: W3S konsortsiumi standart loyixasini tayyorlaydi. Muxokama qilingandan sung uning ishchi (draft) varianti chiqariladi, so'ngra uni ma'lum bir davrga yana muxokama qilish uchun tavsiya qilinadi. Istagan xoxlovchi odam HTML standartining yangi teg va versiyalari muxokamasida ishtirok etishi mumkin. Muxokama davri tugagandan keyin standartning ishchi varianti tavsifnoma xisoblanadi, ya'ni HTML spetsifikatsiyaning rasmiy tan olingan varianti bo'ladi. Kabul qilingan standart Document Type Definition (xujjat xilini aniqlash) yoki DTD deb ataladi.

Internetda birinchi marta kursatilgan (takdim qilingan) HTMLdagi DTD – standartning 1.0 versiyasi bo'ldi. So'ngra 1995 yil noyabr oyida WWW uchun ancha aniq va o'ylab qilingan 2.0 versiya yaratildi.

1996 yil sentyabr oyida bir necha oylik muxokamadan so'ng 3.2 versiya tasdiqlandi (3.0 versiya nashr qilinmadi).

1997 yil iyun oyida HTML – standartning 4.0 versiyasi e'lon qilindi va 1997 yil dekabrda rasmiy standartga aylandi. Bugun bu qabul qilingan standartlarning eng oxirgisidir.

Umuman, HTML xujjat standart xisoblanishi uchun yana prolog (muqaddima) xam kerak. Xujjatga qanday ishlov berishiga qarab u o'rnatiladi. Prolog quyidagi ko'rinishga ega:

```
</DOCTYPE HTML PUBLIC "-//W3S||DTDHTML<4.0||EN">
```

Prolog bu maxsus ko'rinish ega bo'lgan yolg'iz teg. Bu teg ochuvchi <HTML> oldida HTML – xujjatning eng oldiga o'rnatiladi va HTML 4.0 – spetsifikatsiyasiga kat'iy mos kelgan xolda rasmiylashtirilgan xujjat xisoblanadi.

HTML – xujjatga prologni o'rnatish – bu W3S talabidir (Internetdagi ko'pchilik HTML xujjatlarda prolog qo'yilmaydi).

HTML 4.0 spetsifikatsiyasida monitor ekranida taqdim etilgan ta'rifdan xujjat strukturasi ta'rifini ajratish asosiy (klyuchevoy) g'oyaga aylandi. Tajriba kursatishi buyicha xujjatning bu ikkala ta'rifini bir-biridan ajratish platforma, muxit va shu kabilarni keng miqyoda kuvvatlashga kilinadigan sarf-xarajatlarni ancha kamaytirar ekan, shu bilan birga xujjatlarga o'zgarishlar kiritishni osonlashtirar ekan. Bu g'oyaga asosan stil (uslub) jadvali yordamida xujjatlarni taqdim qilish usulidan ko'plab foydalanish maqsadga muvofiq keladi.

HTML – standarti to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlarni W3S kansortsiumining- Web-saytidan quyidagi adres bo'yicha olish mumkin:

<http://www.W3.org/TR>.

4.0 spetsifikatsiyasi quyidagi adresda tayinlangan:

<http://www.W3.org/TR/REC.html> 4u-971218

## 2-Asosiy savol bayoni:

### HTML ning asosiy teglari.

Oldingi bobda aytib o'tilganidek HTML hujjatlari – bu matnli fayllar bo'lib, ularga belgilash teglari deb nomlangan maxsus kodlar kiritilgan. Bu teglar Web-brauzerlarga matn va grafiklarni qanday qilib sharhlash va aks ettirish lozimligini ko'rsatib turadi. HTML-fayl – bu oddiy matnli fayl. Shuning uchun uni istagan matn redaktorida, masalan MS Word yoki oddiy «Bloknot» da yaratish mumkin. Hujjat yaratilgach, uni matn formatida saqlash kerak. Lekin bu ishni bajarishda oldin uning kengayishini o'zgartirish, ya'ni .TXT o'rniga. HTML yoki .HTM ni qo'yishni esdan chiqarmaslik kerak. .HTML va NTM kengayishi HTML-fayl uchun standart hisoblanadi. Bundan tashqari, bu kengayishlar kompyuterga faylda matnlardan tashqari HTML kodlari ham mavjudligini ko'rsatib turadi

HTML tili harflar razmeriga befarqdir, ya'ni bosh va kichik harflar bir xil qabul qilinadi. Lekin teglarni yozishda ko'pincha bosh harflardan foydalaniladi.

Web-sahifa ko'rinishi va aks ettirilayotgan axborotning qanaqaligidan kat'iy nazar, HTML va WWW spetsifikatsiyasiga asosan har bir Web-sahifada ishtirok etishi zarur bo'lgan quyidagi to'rtta teglar mavjud:

1. <HTML> Brauzercha xujjat HTML tilida yozilganligi to'g'risida xabar beradi.
2. <NAME> HTML – hujjatning kirish va bosh qismini belgilaydi.
3. <VODY> Asosiy matn va axborotni belgilaydi.
4. <ADRESS> Bu Web-sahifa to'g'risida ko'proq to'la-to'kis axborot olish uchun kerak bo'ladigan elektron pochta adressiga ega.

Bu teglar Web-brauzerga HTML – hujjatning har xil qismlarini aniqlash uchun juda zarurdir, lekin ular Web-sahifaning tashqi ko'rinishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmaydilar. Ular HTML ga kiritilgan navbatdagi yangi ma'lumotlar uy sahifalarida to'g'ri sharhlash, shu bilan birga barcha Web-brauzerlarda bir xil ko'rinishga ega bo'lishi uchun juda zarurdir. Masalan, sizning Web-serveringizda barcha HTML-hujjatlarni ko'radigan va ularning ro'yxatini tuzadigan dastur

ishga tushirilgan. U <NEAD> teglari ichida joylashgan matnlarni ko'radi, xolos (bu erda hujjatlar nomi ham joylashtirilgan bo'ladi). Shunday qilib, agar uy sahifalarida <NEAD> va <G'NEAD> teglari bo'lmasa, u holda u ro'yxatga kiritilmaydi. Anchagina nomi chiqqan Web-serverlar - qidiruv vositalarining ko'pchiligi mana shunday ishlaydi. Ular axborotlarni <NEAD> teglaridan oladilar.

<HTML> va </HTML> teglari.

Bu teglar browserlarga ular orasidagi matni xuddi HTML matni kabi sharhlash (izohlash) zarurligi to'g'risida xabar beradi, chunki HTML-hujjatlari faqat matnlidir. <HTML> teg esa faylning gipermati bog'lanish tilida yozilganligini gapirib turadi.

<HEAD> va </HEAD> teglari.

Ular Web-sahifalar nomlarini belgilaydilar. Buning uchun <HEAD> va </HEAD> teglar orasida Web-sahifa nomi kiritiladi. \* Har bir HTML – hujjat faqatgina bitta nomga ega bo'ladi. So'ngra uning oldi va orqa tomonlarini <TITLE> va </TITLE> teglari bilan belgilang.

U, odatda brauzer darchasi sarlavhasida ko'rsatiladi. Konteyner <TITLE> tegini hujjat faylining nomi bilan adashtirmaslik kerak. Aksincha u fayl nomi va manziliga butunlay bog'liq bo'lmagan matn **satridir**. Fayl nomi kompyuterning operatsion tizimi (OT) orqali qat'iy ravishda aniqlanadi. Shu bilan birga hujjatlar nomi (teg <TITLE> bilan birga) ni hujjat ichidagi ko'pincha <H> teglari bilan joylashadigan sarlavhalardan farqlash kerak bo'ladi.

<BODY> va </BODY> teglari.

<BODY> va </BODY> teglari <HEAD> kabi HTML – hujjatning maxsus qismlarini belgilashda ishlatiladi. <BODY> teglari egallab olgan matn hujjatning asosiy qismi hisoblanadi. Matnning katta qismi va boshqa axborotlar ham uning tarkibiga kiritiladi.

<ADDRESS> va <G'ADDRESS> teglari.

Bu teglar mazkur sahifaga nisbatan kimdadir savol yoki fikr tug'ilib qolgan taqdirda kimga murojaat qilish kerakligi to'g'risidagi axborotlarni o'z ichiga oladi.

<ADDRESS> teglari bu axborotlarni asosiy blokdan ajratib olish uchun ishlatiladi. Uy sahifasiga bu teglarni kiritish uchun quyidagi qadamlarni bajaring:

1. <BODY> va </BODY> teglari orasida ismingizni va elektron pochta adresini tering.
2. So'ngra ismingiz va adresingizga <ADDRESS> tegini kiriting.
3. Ism(nom) va adresdan so'ng yopuvchi <G'ADRESS> tegni kiriting.

Endi Web-sahifa (misol tariqasida) ni ko'rib chiqamiz:

<HTML>

<HEAD>

<TITLE> Web-sahifa misoli </TITLE>

</HEAD>

<BODY>

<H1> bizning Web-sahifamiz </H1>

<P> bu Web-sahifa Web-dizayner bo'lish mumkinligini namoyish qilish maqsadida yaratilgandir. Buning uchun Web-serverga sozlanishi qiyin dastur talab qilinmaydi. Bunda sizning operatsion tizimingiz muvaffaqiyat bilan uning o'rnini bosaoladi. <P>

</BODY>

</HTML>

Bu erda terminologiya to'g'risida biroz oldindan kelishib olishimiz kerak. HTML – hujjatda xato bo'lsa, lekin baribir browser tomonidan chidab bo'larli darajada ko'rsatilsa, bunday hujjatni **yaxshi rasmiylashtirilgan** hujjat deyiladi. Aksincha, rasmiylashtirishda xatosi bo'lmagan HTML – hujjat **standart** hujjat deyiladi.

Sahifamiz kodiga yana bir bor nigoh tashlaymiz. Barcha HTML – hujjat juft teglar - <HTML> va </HTML> ichida joylashganligi ma'lum bo'ladi. Bu standart HTML – hujjatlarni rasmiylashtirishning **birinchi qoidasidir**. **Ikkinchi qoida** bo'yicha HTML – hujjat ikkita bir-biriga teng bo'lmagan seksiyaga bo'lingan bo'ladi.

Birinchi (kichik) sektsiya – bu HTML-sarlavha. HTML-sarlavha juft teglar - <HELD> va </HEAD> bilan ajralib turadi. U brauzer darchasida aks etmaydi, lekin brauzer o'z ehtiyojlari uchun foydalanadigan xizmat axborotlarini o'z ichiga oladi.

**Ikkinchi** (katta) sektsiya – bu hujjat **jismi** deb ataladigan shaxsiy hujjat. Xuddi mana shu hujjat jismi brauzer darchasida aks ettiriladi. Jism juft teglar - <BODY> va </BODY> bilan ajralib turadi. Bu erdan standart HTML – hujjatlarini rasmiylashtirishning **ikkinchi qoidasi** kelib chiqadi: har bir hujjatda HTML – sarlavha va test sso'lkalari bo'lishi va bu ikkala sektsiyalar to'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lishlari shart.

<BODY> tegida matn va fan rangi to'g'risidagi axborot mavjud bo'lishi mumkin. Buning uchun chap teg formatini ozgina o'zgartirish kerak bo'ladi. Masalan: <BODY BGCOLOR = «FFFFOO» TEXT = «OOOOOO»>.

Bu erda BGCOLOR parametri fon rangini, TEXT esa matn rangini aniqlab beradi. Bu misolda fon uchun sariq, matn uchun qora ranglar tanlangan.

HTML tilida ranglar o'n oltilik kodining raqamlari bilan aniqlanadi. Ranglar sistemasi quyidagi uchta asosiy ranglardan iborat, ya'ni qizil, barg rang va ko'k va ular RGB (Red Green Blue) deb belgilanadi. Har bir rang uchun OO dan FF gacha bo'lgan oraliqdagi o'noitilik qiymatlari beriladi. Ular 0-255 diapazonidagi o'nlik sanoq sistemasiga mos keladi. So'ngra bu qiymatlar oldiga # (reshetka) simvoli qo'yib yoziladigan bitta son (raqam) ga birlashtiriladi. Masalan, # 800080 soni binafsha rang bilan belgilanadi. Raqamlar yig'indisini yodda qoldirish qiyin. Shuning uchun quyidagi ilova №1 da ranglar nomi batafsil ko'rsatilgan: Brouzerlarning oldingi versiyasi faqatgina 16 ta standart ranglarni (jadval 3.1) qabul qilishgan bo'lsa, zamonaviy versiyalari esa 140 ta ranglar nomini qabul qilishgan.

### 16 ta ranglar nomi

Jadval 3.1

№	Ranglar nomi		16 lik qiymatlar - RGB	O'nlik qiymatlar		
	Inglizcha	O'zbekcha		R	G	B
1	2	3	4	5	6	7
1.	Aqua	Moviy r.	#00FFFF	0	255	255
2.	Black	Qora r.	# 000000	0	0	0
3.	Blue	Ko'k r.	#0000FF	0	0	255
4.	Fuchsia	Pushta r.	#FF00FF	255	0	255
5.	Gray	To'q ko'k r.	#808080	128	128	128
6.	Green	To'q barg r.	#008000	0	128	0
7.	Lime	Barg r.	#00FF00	0	255	0
8.	Maroon	Malina r.	#800000	128	0	0
9.	Nary	To'q ko'k r.	#000080	0	0	128
10.	Olive	Alif r.	#808000	128	128	0
11.	Purple	Siren r.	#800080	128	0	128
12.	Red	Qizil r.	#FF0000	255	0	0
13.	Silver	Och kul r.	#COCOCO	192	192	192
14.	Teal	Havo r.	#008080	0	128	128
15.	Wife	Oq r.	#FFFFFF	255	255	255
16.	Yellow	Sariq r.	#FFFF00	255	255	0

<FONT> tegining COLOR kalit so'zidan foydalanish matnni aks ettirishda bir nechta ranglar ichidan bittasini tanlash ikkinchisini yaratadi.

<FONT COLOR q RED> qizil matn </FONT> ekranda matnning standart rangini o'zgartirish uchun <BODY> tegidagi TEXT q kalit so'zidan foydalaniladi <BODY TEXT q Gray>

<FONT> tegidagi COLOR q va <BODY> tegidagi TEXT kalit so'zlaridan foydalanishning yana bir usuli mavjud (bu erda 16-lik kodining 6-ta raqami ishlatiladi). Masalan, <FONT COLOR q # 0000FF> ko'k matn </FONT>

Dastur tayyorlash jarayonida har xil kommentariya va qo'shimchalar qilishga zaruriyat tug'ilishini dasturchilar (programmistlar) yaxshi biladilar. Bu ishlar faylni navbatdagi lidernizatsiya qilish uchun zarur. Brouzerda ko'rinmasligi uchun ularni quyidagi teglar bilan kuzatadilar.

<!-- kommentariya matni -->

HTML tilining ikkinchi qoidasiga asosan uchburchak qovslar ichidagilar brouzer darchasida ko'rinmaydilar.

Hujjatlarni qismlarga ajratish usullaridan biri gorizantal chiziqlarni o'tkazishdir. Buning uchun teg <HR> (horizontal ruler) ishlatiladi. Bu teg kanteyner hisoblanmaydi. Chiziqlar oldiga va oxiriga avtomatik ravishda ochiq satr qo'yiladi. <HR> tegi parametrlari 3.2 jadvalda keltirilgan.

### Teg <HR> parametrlari

Jadval 3.2

Parametrlar	Vazifasi
ALIGN	Qirrası va markazni tekislaydi. LEFT, CENTER, RIGHT qiymatlarga ega.
WIDTH	Brauzer darchasining enidan foiz yoki piksellarda chiziq uzunligini qo'yadi.
SIZE	Chiziq qalinligini (piksellarda) qo'yadi.
NOSHADE	Chiziq relefligini inkor qiladi.
COLOR	Chiziq rangini ko'rsatadi. RGR yoki standart nomdan foydalaniladi.

Misol:

<HTML>

<HEAD>

<TITLE> First Document </TITLE>

</HEAD>

<!-- fon uchun oq rang tanlaymiz, shrift uchun esa qora rang -->

<BODY BGCOLOR = «FFFFFF» TEXT = «OOOOOO»>

Bizning Web-sahifamizga tashrif buyuruchilarni tabriklaymiz!

<!-- yarim bet kenglikdagi chiziq va o'ng > <HR WIDTH = 50 %. ALIGN = «RIGHT» >. To'g'ri emasmi, Internet da sahifa yaratish juda qiziqarli!

<!-- chorak bet kengligidagi chiziq va chap >

<HR WIDTH = 25 % ALIGN = «LEFT» >

</BODY>

</HTML>

Endi first, html nomli faylni saqlash zarur. Uni ochgandan so'ng brauzer darchasida o'zingizning hujjatingizni ko'ramiz.

Bu misolda ikkala jumla (faza) bir xil harflar razmeriga ega bo'ladi. Agar siz font razmerini o'zgartirishni istasangiz 6 tegdan iborat to'plam (nabor) dan foydalaning:

<H1> --- matn --- </H1> - eng katta shrift

<H2> --- matn --- </H2>

-----

<H6> --- matn --- </H6> - eng kichik shrift

Yana bir muhim teg <P> yangi abzatsni anglatadi. Uning orqasidagi matn navbatdagi satr boshiga o'tkaziladi va oldingi matndan qo'shimcha oraliq bilan ajratiladi.

Yangi satrga o'tkazuvchi maxsus teg ham mavjud - bu yolg'iz teg <BR> (brace-razro'v). Ba'zida sizda ba'zi simvollarni Web-sahifada aks ettirishda muammolar paydo bo'lishi mumkin. &, G'G', <, q kabi simvollar ba'zi bir teglarni yozishda ishlatiladi. Boshqa simvollar odatiy alfavitda uchramaydi. Bundan tashqari chet tillarda qo'llanadigan, lekin inglizcha tilida bo'lmagan simvollar uchrab turadi. Masalan, Web-sahifada **frangais** szi o'rmda **sedil** deb nomlangan simvol ishlatishga to'g'ri keladi.

Bunday hollarda HTML – hujjatingizga maxsus kodlar orqali kerakli simvollarni kiritish mumkin. Bu kodlar ampersand (&) simvolidan va ketma-ket keladigan simvol nomidan yoki o'nlik yoki 16-lik qiymatlardan iborat bo'ladi. Maxsus simvol «nuqta va vergul» belgisi bilan tugallanadi.

HTML spetsifikatsiyasida maxsus simvollar va ularning qiymatini ko'rsatuvchi qator jadvallar keltiriladi. Ular Ilova №2 da mavjud. Bu erda faqat qo'llanilishi aktual bo'lgan va brauzerlar tomonidan quvvatlab turish ta'minlangan simvollar ko'rsatilgan (Jadval 3.3).

#### Simvolik nomlar

Jadval 3.3

| Rezervlangan simvol                                | Simvolik nomlar |
|----------------------------------------------------|-----------------|
| Qavs («»)»                                         | & quot;         |
| Ampersand (&S)                                     | & mp;           |
| Kichik (<S)                                        | & it;           |
| Katta (>S)                                         | & t;            |
| Uzluksiz probil (matn satrlarga bo'linib ketmaydi) | & nbsp;         |
| Xuquq (©S)                                         | & copy;         |
| Tijorat markasi (®S)                               | & red;          |

Barcha simvollar o'z qoldiqlariga ega bo'lishlari mumkin. Masalan, uzluksiz probel simvoli kodi 160 bo'ladi. U o'nlik kodida &# 160 ko'rinishida yoziladi. Bir nechta misollar keltiramiz:

&quot; qovsdagi matn Squot;

2 &it; 3

Microsoft &red;

#### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. HTML (Huper Text Markup Lanyage) tili?
2. HTML ning asosiy qoidalari?
3. HTML – fayl?
4. HTML– faylning kengayishi?
5. Teglar - ?
6. HTML xujjat strukturasi-?
7. HTML xudjjat muqaddimasi- ?
8. Sarlavxa va abzatslarni formatlashtirish?
9. Zaxiraga olingan HTML simvollarini?
10. Sarlavha teglarining ishlatilishi?

#### 8-Mavzu: HTML da gipermatn xujjatlarni, giperbog'lanishni (sso'lka), ro'yxatlarni va grafiklarni yaratish

##### Ajratilgan soat – 2

##### Asosiy savollar:

1. HTMLda giperaloqalarni hosil qilish
2. HTML da web sahifaga nomatn elementlarni joylashtirish.
3. Raqamlangan va markerlangan ro'yxatlar

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** standartlashtirilgan xujjatlar, markerlangan ro'yxat, nomerlangan ro'yxat, grafik ro'yxat markerlari, HTML – xujjat sektiysalari, taxlangan ro'yxatlar, 16 «nami yozilgan» ranglar, ranglarning o'n oltilik kodi, giperbog'lanishning gorizontaal chizig'i, absolyut va nisbiy xavolalar (aloqalar), taxlangan jadvallar, HTML – xujjatdagi tasvir, tasvir atrofidagi ramka alternativ matn, tasvirning miniatyura versiyalari, tasvir formatlari, «yakor».

“HTML da gipermatn xujjatlarni, giperbog'lanishni (sso'lka), ro'yxatlarni va grafiklarni yaratish” mavzusi bo'yicha darsning texnologik xaritasi

|      |                           |                   |
|------|---------------------------|-------------------|
| T.r. | Bajariladigan ish mazmuni | Amalga oshiruvchi |
|------|---------------------------|-------------------|



|   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | mas'ullar           |
|---|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|
| 1 | <p><b>Tayyorlov bosqichi:</b></p> <p>* Maqsad: Hyper Text Markup Language (HTML) belgilash tili tugrisida giperbog'lanishlarni, ro'yhatlarni va grafiklarni qo'llash bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalarni egallash.</p> <p>* Vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalarda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish;</li> <li>- mavzuga oid tarqatilgan materiallarni, nazorat topshiriqlarini talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara orqali nazorat topshiriqlari qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini aniqlash;</li> <li>* Mazmun: HTMLda giperaloqalarni hosil qilish, HTML da web sahifaga nomatn elementlarni joylashtirish, raqamlangan va markerlangan ro'yxatlar bilan ishlash.</li> </ul> | O'qituvchi          |
| 2 | <p><b>Darsni tashkil etish bosqichi:</b></p> <p>Uslub: Og'zaki bayon qilish.</p> <p>Shakl: ma'ruza mashg'uloti, kichik guruhlar va jamoada ishlash.</p> <p>Vosita: tarqatma va taqdimot materiallari.</p> <p>Usul: tayyor yozma materiallar.</p> <p>Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish.</p> <p>Baholash: Rag'batlantirish, reyting tizimi asosida baholash.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | O'qituvchi          |
| 3 | <p><b>Mustaqil ishlash bosqichi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- munozara, aqliy hujum, mikroguruhda ishlash va boshqa metodlar orqali nazorat topshiriqlarini echishga yo'naltiriladi.</li> <li>- talabalar nazorat topshiriqlarini hal qilish to'g'risidagi fikrlarini o'zaro muhokama qilishadi.</li> <li>- o'zi va mikroguruh uchun yagona javobni tanlaydi.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | Talaba              |
| 4 | <p><b>Natijalarni eshitis va tahlil qilish bosqichi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalar va mikroguruh fikri tinglanadi, ularga aniqlashtiruvchi savollar beriladi.</li> <li>- mikroguruhlarning javoblari to'g'risida talabalar fikri aniqlanadi.</li> <li>- javoblar tahlil etiladi.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | O'qituvchi - talaba |
| 5 | <p><b>Yakuniy va baholash bosqichi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalar bergan javoblardan ko'pchilik fikriga mos kelgani alohida ajratib olinadi.</li> <li>- talabalarning nazorat topshiriqlarini echishdagi faolligi, intilishlari hisobga olingan holda baholanadi.</li> <li>- yakuniy fikr aytiladi.</li> <li>- mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</li> </ul>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | O'qituvchi          |

### 1. Asosiy savol bayoni:


#### HTMLda giperaloqalarni hosil qilish

**Gipermatn xujjat** – bu boshqa xujjatlarga o'tish uchun aloqa bog'lovchi (sso'lka)ni o'zida saqlaydigan xujjat. U sichqoncha tugmasini bosish orqali bir xujjatdan ikkinchi xujjatga tezlik bilan o'tishni ta'minlaydi. Bunday aloqalarni zamonaviy maxsulotlar dasturlari fayllarida ko'plab uchratish mumkin. Gipermatnga asos qilib ko'p maqolalarida boshqasiga havola (sso'lka) qilinadigan entsiklopedik slovarlarni tashkil etish printsipi olingan.

Web – saxifalarga joylashtirish mumkin bo'lgan ko'plab multimedia ob'ektlari mavjud. Zamonaviy gipermatn xujjatlarda matnning o'ziga qo'shimcha qilib ko'pincha xar xil grafika, video va audioob'ektlardan foydalaniladi. Aloqa (sso'lka) sifatida esa tasvir ishlatiladi.

**Giperaloqa (sso'lka)** – bu maxsus HTML tegi bo'lib, unda parametrlar sifatida zaruriy xujjat adresi saqlanadi. Giperaloqa aktivlashganda (zamonaviy grafik brauzerlarda bu ish sichqonchani

chap tugmasining chiqilati b amallarga oshiriladi) zaruriy Web – serverga HTTP – talab (kerakli xujjat nomi bilan) yuboriladi. Quyida giperaloqa tegining formati ko'rsatilgan:



### Rasm 8.1. Uy sahifasidagi giperaloqa

Giperaloqa (gipersso'lkani ng ikki qismdan iboratligi rasm 8.1 dan ko'rinib turibdi. Uning birinchi qismini sso'lkani ko'rsatkichi (anchor), brauzerga instruksiya beradigan ikkinchi qismi esa sso'lkani ng adres qismi (URL - adres) deyiladi. Agar foydalanuvchi sichqoncha kursorini sso'lkani ko'rsatkichiga olib kelsa, u holda u ko'rsatuvchi belgiga aylanadi (giperaloqani ng birinchi belgisi). Foydalanuvchi sso'lkani ko'rsatkichi bo'yicha chiqillatib sso'lkani havola qilinayotgan xujjatni oladi.

Sso'lkani ko'rsatkichi so'z, so'zlar guruhi yoki tasvir bulishi mumkin. Sso'lkani tashqi ko'rinishi uning xiliga, yaratish usuliga va brauzer ko'rib chiqish dasturini ng qo'yilishiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatkichlari ni ng matnli va grafikli xillari mavjud.

Matni ko'rsatkichlari bir yoki birnecha so'zlardan iborat bo'lib so'z ostiga chizish bilan ajralib turadi. Ko'rsatkich rangini muallim va ko'rib chiqish dasturini ng qo'yilishi boshqarib boradi. Sso'lkani matn ko'rsatkichini ng yozilishi quyidagi misolda ko'rsatilgan:

< A HREFq «sample. html»> bu matn </A> sso'lkani ko'rsatkichi hisoblanadi.

Sso'lkani sifatida grafik tasvirlardan ham foydalanish mumkin. Grafik sso'lkani xarakat qilish printsi pi bo'yicha matn sso'lkani dari dan hech qanday farqlanmaydilar. Ular tagiga chizilmaydi va ranglari ajralib turmaydi. Brauzer ni ng ajralib ko'rinishi uchun, odatda tasvir atrofiga ramka rasmini chizadilar. Sso'lkani grafik ko'rsatkichi uchun misol:

< A HREFq «sample. html»> < I H S R C q «picture. qit»> </A>

Giperaloqa ikkinchi qismi – bu URL – adres. Web – saxifani ng bu adresi ko'rsatkichda sichqonga chiqillatilganda yuklanadi. Adres ko'rsatish nisbiy va absolyut bo'lishi mumkin.

Agar URL – adresda faylga berish yo'li to'la ko'rsatilmasa bunday sso'lkani nisbiy deyiladi. Bu holda fayl o'rni ng fayl aniqlash shu kabi sso'lkani larga mavjud bo'lgan xujjatni ng o'rni ng joyini inobatga olib bajariladi. Masalan, agar http: G'G'www.quv.uz G'paqe adres bo'yicha brauzer saxifani yuklagan bo'lsa, u holda nisbiy ko'rsatkich http: G'G'www.quv.uz G'paqeG' picture adresi deb tushunadi, ya'ni shu mashinada joylashgan katalogcha (podkatalog).

Nisbiy ko'rsatkichlari ishlatishda juda kulaydir. Kompyuter, katalog va faylni to'la – to'kis anihlovchi URL – adres absolyut ko'rsatkich deyiladi. Absolyut ko'rsatkichlari, nisbiylardan farqli ravishda boshqa kompyuterlardagi fayllarga havola qilaoladi.

Sso'lkani uyushtirish uchun brauzerga uning sso'lkani ko'rsatkichi hisoblanganligi va siz havola etayotgan xujjat adresini ko'rsatish zarurligi to'g'risida xabar berish kerak bo'ladi. Ikkala xarakat ham <A> tegi yordamida bajariladi. Teg <A> moxiyati (ma'nosi) URL – adres xisoblangan yagona HREF parametriga ega. Ko'rsatkich ega nisbiy yoki absolyut bo'lishi mumkin. Bu teg konteyner hisoblanganligi bois yopuvchi teg </A>ni, albatta o'rnatish kerak bo'ladi.

Masalan, < A HREFq "http : G'G'www. Ictouncil. qov.uz "> sso'lkani matn ko'rsatkichi </A>.

Nisbiy ko'rsatkichlari bilan ishlashni osonlashtirish maqsadida teg <BASE> kiritilgan. U xujjat boshidagi HEAD bo'limida joylashgan va URL – adresiga egadir (unga nisbatan xujjatda hamma adresatsiya mavjud). Bu ko'rsatma nisbiy adresatsiyalar ishlatiladigan xujjatdagi istagan

tegga ta'sir etadi. Agar teg <BASE> bo'lmasa, u holda adresatsiya joriy xujjatlar adresiga nisbatan quriladi.

Endi – nisbiy adresatsiyaga mo'ljallangan ananaviy misol. Quyidagi situatsiya (xolat)ni ko'rib chiqamiz:

Biz yaratmoqchi bo'lgan joriy fayldan ilgari yaratilgan amaldagi first.html fayliga havola (sso'lka) qilamiz, ya'ni

```
<HTML>
<HEAD>
<TITLE> Giperaloqa </TITLE>
</HEAD>
<BODY>
<HG'><CENTER><FONTCOLORq#FF000> saytingizning xurmatli tashrif buyuruvchilari!
</FONT> </CENTER></H1><BR>
<H4> Sizga xizmat qilayotgan bizning kompaniyamiz servislarini iloji boricha yaxshilash
to'grisidagi sizning istaglaringizni ko'proq bilishni xoxlaymiz. Buning uchun, marxamat, <
AHREFq "first.html" > anketamizni to'ldiring </A> minnatdorчилиgizning cheki bo'lmaydi
<G'H4>
</BODY>
</HTML>
```

So'ngra faylni saqlang (second.html kabi) va brauzerda oching.

Ba'zida boshqa xujjatga emas, balki joriy xujjatning boshqa qismiga ko'chib o'tish juda kerak bo'lib qoladi. Masalan, katta xujjat yaxshi o'qiladi, agar unda bo'lishlarga mos kelgan sso'lkani mundarija bo'lsa.

Ichki sso'lkani qurish uchun, avvalo tayinlangan joyni aniqlovchi ko'rsatkichni yaratish kerak. Buning uchun maxsus giperbog'lanish («yakor»), joriy xujjatdagi qandaydir joyni ko'rsatib beruvchi kalka («anchors») lar ishlatiladi.

```
<A NAME q {"Yakor nomi"}></A>
```

Yakor odatiy giperbog'lanish singari juft teg <A> bilan belgilanadi. Atribut NAME esa keyinchalik boshqa giperbog'lanishlar xavola etiladigan «yakor» nomini beradi.

```
<A NAME q"chapter_1" Bob 1 </A>
```

Yuqorida ko'rsatilgan «yakor» ga dalil keltirmoq uchun kuyidagi giperaloqani yozamiz:

```
<AHREFq «#chapter_1» > Bob 1 ga o'tish </A>
```

Demak, xujjat adresining HREF parametrda ko'rsatkich o'rniga, xuddi yuqoridagi kabi, ichki sso'lka ekanligini anglatib turuvchi prefiks # bilan birga sso'lka nomi joylashtirildi.

Endi, agar foydalanuvchi sichqonchani chiqilatsa, brauzer joriy dokumentda chopter – 1 nomli «yakor»ni kidiradi. Agar topolsa, u holda o'zi aniqlangan xujjatning usha qismiga o'tib oladi. Ma'lum bo'ldiki, bu juda kerak bo'lishi mumkin, agar har bir saxifaning boshiga mundarija yozilsa. U holda mundarijaning har bir punkti kerakli «yakor»ga xavola qiluvchi giperbog'lanish ekanligini bildiradi.

```
<HTML>
<HEAD>
<TITLE> saxifa – misollar ro'yxati </TITLE>
</HEAD>
<BODY>
<H1> maqola </H1>
<P> mundarija </P>
<P> </P>
<P> < AHREF ="# chapter - 1"> Bob 1 </A></P>
<P> < AHREF ="# chapter - 2"> Bob 2 </A></P>
<P> < AHREF ="# chapter - 3"> Bob 3 </A></P>
<HR>
<H2>< A NAME q "chapter - 1"> Bob 1 </A></P>
```

<H2>< A NAME q "chapter - 2"> Bob 2 </A></P>

<H2>< A NAME q "chapter - 3"> Bob 3 </A></P>

</BODY>

</HTML>

Yuqoridagi misolni mundarijali saxifa yaratishda shablon sifatida qo'llashingiz mumkin. Biz xujjatning bo'sh satriga joylashtirish uchun abzats <P> </P> ning bo'sh tegidan foydalandik. Xuddi shunday ketma-ket kelayotgan uzilish satrining (<BR>) ikki tegni ko'llash mumkin.

«Yakordan» foydalanib boshqa xujjatning kerakli qismiga o'tish mumkin. Bunday holatda giperbog'lanish quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

< AHREF q " Second. html # chopter - 2"> ikkinchi bo'limning 2-bobiga o'tish </A>

Biz boshqa Web – saxifalarga giperbog'lanishni ko'rib chikdik. Lekin <A> tegining HREF atributida internetning boshqa servclariga havola (sso'lka) qiluvchi adreslar bo'lishi mumkin. Shular qatoriga FTP – server yoki elektron pochta adresini kiritish mumkin.

Ma'lumki, Web – saxifa HTTP protokoli yordamida uzatiladi. Harxil Internet servislari esa turli protokollarni qo'llaydilar.

Elektron pochtdan foydalanishga bir misol keltiramiz:

<HTML>

<HEAD>

<TITLE> Mening shaxsiy saxifam </TITLE>

</HEAD>

<BODY>

<H1 ALIGN q CENTER> Salom, o'rtoqlar! </H1>

<HR>

Saxifaning asosiy mazmuni.

<HR>

<ADDRESS>

Saxifaning oxirgi yangilanish vakti 01 yanvar 2004y.

<G'ADDRESS>

< AHREF q"mailto: narik @ list. ru>

Taklif va muloxazalaringizni yuboring </A>

</BODY>

</HTML>

Ma'lum bo'ldiki, HTML – kodidagi URL – adres o'rniga oldindan mailto so'zi bilan o'xolantirilgach, elektron pochta adresini ko'rsatdik. Sichqoncha kursorini berilgan sso'lka (xavola) ko'rsatkichiga keltirsak, bu adres brauzer barchasining pastki qismida ko'rinadi.

Boshqa Internet zaxiralarga xavola (sso'lka) etish xuddi shunday bajariladi.

Siz sso'lka matni rangini World Wide Web ning boshqa joyida ham o'zgartirish mumkin. Ilgari biz saxifa matnining standart rangini <BODY> tegi yordami bilan bajarar edik. Masalan, saxifangizdagi standart qizil matnning rangi quyidagicha o'rnatiladi:

<G'BODY TEXT q RED>

Giperbog'lanish matn rangini xuddi shunday boshqarish mumkin 3.4. jadvalda Web – saxifadagi gipermatn sso'lkalar rangini boshqaruvchi 3 ta yangi kalit so'zlar keltirilgan.

Sso'lka matni rangini boshqaruvchi kalit so'zlar

Jadval 3.4

| Kalit so'zlar | Izox                                                                                                                                                                                                            |
|---------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| LINK          | LINK kalit so'zi TEXT so'zi kabi ishlatiladi. LINKqBLUE o'rnatilgan bo'lsa tashrif buyuruvchilar tomonidan foydalanilmagan barcha sso'lkalar ekranda ko'k rang bilan aks etadi.<br><BODY TEXT q RED LINK qBLUE> |
| VLINK         | Balki, siz sezgandirsiz, ba'zi sso'lkalar matni rangi ba'zan qolganlarnikidan ozgina bo'lsada farq qiladi. Bu mazkur sso'lkani siz tomondan                                                                     |

|       |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
|-------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|       | aktivlashtirilganligini anglatadi. Tashrif buyuruvchi boxabar bo'lgan (visited Link) sso'lkaning rangini VLINK kalit so'zi bilan o'zgartirish mumkin. Shu usul bilan sso'lka rangini ochiq kul rang qilish mumkin.<br><BODY TEXT q LIME LINK q AQUA VLINK qSILVER>                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
| ALINK | Siz yana o'zgartiraoladigan rang – bu sichqonchani chiqillatilgach paydo bo'ladigan sso'lka matni rangidir. Aktiv sso'lka rangi (Active Link) ALINK kalit so'zi orqali beriladi. Agar sizning saxifangizda kimdir ishtirok etgan bo'lsa, u holda sso'lka matni LINK so'zi bilan beriladigan ranga aylanadi. Agar unda sichqoncha chiqillasa, u holda qisqa vaqt ichida ALINK so'zi bilan beriladigan ranga ega bo'ladi. Shu usulda ishimizni davom ettirib aktiv sso'lka matni rangini och sariqqa aylantiramiz:<br><BODY TEXT LIME LINK qAQUA VLINK qSILVER ALINK q YELLOW> |

Netscape brauzerida bu ranglarni Options (General preferences) komandasini tanlab va ulardan har birini Colors (rang) qo'shimcha varaqasida joylashtirib qo'l bilan almashtirish mumkin. Netscape da bu ishlarni bajargach, tashrif buyuruvchilar siz tomondan berilgan fon va rangni tan olmaydilar.

## 2-Asosiy savol bayoni:

### Web – saxifaning nomatn elementlari

Matn ramkasiga sig'maydigan barcha elementlar (grafik tasvirlar, ovozlari, videofilmlar va qo'shimcha elementlar) Web – saxifaning nomatn elementlari hisoblanadi. Ular matn hisoblamaydilar, shuning uchun alohida fayl ko'rinishida Web – server disklarida, saqlanadilar va brauzer tomonidan shaxsiy Web – saxifalardan alohida talab qilinadi.

Web – saxifa nomatn elementlari bilan tanishishni grafik tasvirlardan boshlaymiz. Grafikadan foydalanish imkoniyatlarini ixtiyoriy publikatsiya xilida va shu bilan birga Web – xujjatlar ilovalarida baholash juda qiyin. Aql bilan tanlangan va xujjatlariga to'g'ri joylangan grafika uni tashqaridan qaraganda jozibali va eng asosiysi, xujjatning asosiy g'oyalardan birini beradi.

Rasm va grafikalar WWW uchun umrbod zarurdir. Bu ekranda bir vaqtda ham tasvirni, ham matnini ko'rishga imkoniyat beridagan internetning yagona vositasi hisoblanadi.

Boshqa tomondan uy saxifangizni xakdan tashqarii katta mikdordagi tasvirlar bilan bezab tashlamang. Agar sizning uy saxifangiz tasvirlar va piktogrammalar bilan to'lib ketgan bo'lsa, matn bunday noxush holatda yo'qolib qoladi va tashrif buyuruvchilar ham talvasaga tushib qoladilar. Bundan tashqarii sahifa juda uzoq vaqt ichida yuklanadi va sizning barcha urunishingiz behuda ketadi.

Grafikadan foydalanishda oraliq (seredina) ga e'tibor berish zarur.

Avvalo brauzerlar tomonidan quvvatlanadigan grafik fayllar formatlariga ba'zi bir tushunchalarni beramiz.

Foydalanish mumkin bo'lgan barcha brauzerlar GIF (Graphics Interchange FOP mat – grafika almashish formati) va JPEG (Joint Picture Encoding Group xarakatsiz tasvirlarning kodlashtirish guruhi) grafik formatlarni quvvatlab turadilar. Bular Internetdagi grafikaning ommalashtirish standart formatidir.

Formatlarni kodlashtirishda tasvir siqiladi va natijada juda kichik razmga ega bo'ladi (sifati qoniqarli darajada bo'lishigp qaramay). Barcha zamonaviy grafik dasturlar bu ikkala formatni quvvatlab turadilar. GIF shtrixli tasvirlar (shtrixli rasmlar, sxemalar,) Web – saxifaning rasmiylashtirish grafik elementlari) uchun ideal hisoblansa, JPEG esa, odatda yarim tovushli (fotografiya, kartina) grafikani kodlashlashtiradi. Bundan o'laroq GIF – fayl ekranlarda animatsion filmlar singari ko'rsatiladigan bir nechta grafik tasvirlarni ham o'z ichiga oladi.

Internet Explorer ham PNG (portable Network Graphics – o'zgaruvchan tarmoq grafikasi) va BMP (Bit Map bit matrisasi) formatlarni quvvatlab turadi. PNG yaqinda ishlab chiqilgan bo'lib, bundan maqsad, GIF va JPEG lar o'rnini egallash va ikkala formatning ijobiy tomonlarini birlashtirish. Lekin hali u ommalashgan emas.

BMP – bu Windows sistemasida tasvirlarni saqlovchi standart formatdir. Bu format iste'mol uchun tavsiya qilinishi mumkin emas, chunki u berilgan ma'lumotni siqib qo'yishga qarshi.

Har xil grafik formatlar faylining kengayishini esga oling. GIF – faylning kengayishi qif, JPEF – faylarniki jpg, jpe va jpeq, PNG – fayllarning kengayishi- pnq, BMP – fayillar – vjr.

Grafik tasvirlar Web – saxifaga yakka <IMG> tegi yordamida qo'yiladi. quyida uni formati keltirilgan:

```
<IMG SRG q "{tasvir fayli adresi}" [WIDTHq "{eni}"  
[HEIGHTq "{Balandlik}"] [ACTq "{Alternativ matn}" ]  
[BORDER q "{Chegara qalinligi}"]  
[ALIGN q "{left G' riqht G'top G'texttopG' middle G'alsmiddleG' G'baselineG' bottonG'  
absbotton"}"]
```

```
[VSPACE q "{Vertikal bo'yicha saxifa matnigacha masofa}"]
```

```
[HSPACE q "{Gorizontal bo'yicha saxifa matnigacha masofa}"]>
```

Ko'rinib turibdiki, bu tegda juda ko'p atributlar bor ekan. Bu IMG (Image) so'zi tasvirni izohlaydi. Atributlar ichida SRG (sonrcc - manba') majburiy atribut hisoblandi. Bu adres o'ziga Web – server adresini qabul qilaoladigan (agar fayl boshqa serverda bo'lsa) to'liq va qisqartirilgan (faqat fayl nomlaridan iborat) ko'rinishida bo'lishi mumkin.

```
<IMG SRS q www.tsue.uz /sample/firstl.qif >
```

```
<IMG SRS q "G'folder 1G'folder 2G'first2.qif ">
```

WIDTH va HEIGHT atributlari rasmlar eni va balandligini piksellarda berishga imkon beradi. Bu holda brauzer rasm faylini olguncha kadar uning haqiqiy razmerini o'rnatadi va natijada sizning saxifangiz dizayniga salbiy ta'sir bo'lmaydi.

ALT – atributi «alternativ matn» deb ataladigan grafik obraz paydo bo'lishi lozim bo'lgan matn satrini beradi. Bundan maqsad shuki, sahifaning kerakli joyini tezroq aniqlash uchun, foydalanuvchi brauzerdagi grafik tasvir ko'rsatuvchini o'chirib qo'yishi mumkin. Natijada saxifadagi grafika o'rinda bo'sh joy aks etadi. Shuning uchun bu bo'sh joydan unumli foydalanish yo'llarini o'ylab qo'yish kerak bo'ladi.

Border atributi tasvir atrofidagi (kalinligini beradigan piksellarda).

ALIGN atributi tasvirning nisbiy egallab turgan joyini boshqarish imkoniyatini yaratib beradi. U quyidagi ahamiyatga ega:

- left – tasvir chapga suriladi, matn esa uning o'ng tomonidan aylanib o'tadi.
- riqht - tasvir o'ngga suriladi, matn esa uning chap tomonidan o'tadi.
- top - tasvir joriy satrning yuqorisiga to'g'rilanadi.
- texttop - tasvir joriy satrning eng baland simvol cho'qqisiga to'g'rilanadi.
- middle - tasvir markazi joriy satrning bazaviy chizig'iga to'g'rilanadi.
- avsmiddle - tasvir markazi joriy satr markaziga aniq to'g'rilanadi.
- baseline - tasvirning pastki qirrasini joriy satr bazariy chizig'iga to'g'rilanadi.
- botton – tasvirning pastki qirrasini joriy satr quyi qismiga to'g'riladi.
- absbotton – tasvirning quoyi qirrasini joriy satr eng quyi qismidagi simvolning quyi qismiga to'g'riladi.

Quyida biz ALIGN atributining xarxil qiymatlaridan foydalanishga misol keltiramiz:

Hozir biz oxirgi ikkita atributlar HSPACE va VSPACE ni ko'rib chiqamiz. Bu atributlar tasvir va uning satri matni o'rtasidagi oraliqni beradi. Oraliq qiymati piksellarda beriladi.

Misol. Uni Third. Html nomli faylda saqlaymiz.

```
<HTML>
```

```
<HEAD> Tasvirni saxifa misoli </TITLE>
```

```
</HEAD>
```

```
<BODY>
```

```
<p>< IMG SRG q "Tips.qit" ALIGNq "left" >" > ALIGNq & quot; left  
& quot; </P>
```

```
<p>< IMG SRG q "Tips.qit" ALIGNq "-riqht " > ALIGNq & quot;  
riqht & quot; </P>
```

```

<p > < IMG SRG q "Tips.qit" ALIGNq "top" > ALIGNq & quot;
top & quot; </P>
<p > < IMG SRG q "Tips.qit" ALIGNq "texttop" > ALIGNq & quot;
texttop & quot; </P>
<p > < IMG SRG q "Tips.qit" ALIGNq "middle" > ALIGNq & quot;
middle & quot; </P>
<p > < IMG SRG q "Tips.qit" ALIGNq "avsmiddle" > ALIGNq & quot;
avsmiddle & quot; </P>
<p > < IMG SRG q "Tips.qit" ALIGNq "baseline" > ALIGNq & quot;
baseline & quot; </P>
<p > < IMG SRG q "Tips.qit" ALIGNq "botton" > ALIGNq & quot;
botton & quot; </P>
<p > < IMG SRG q "Tips.qit" ALIGNq "botton" > ALIGNq & quot;
botton & quot; </P>
<p > < IMG SRG q "Tips.qit" ALIGNq "absbotton" > ALIGNq & quot;
absbotton & quot; </P>
</BODY>
</HTML>

```

### 3-Asosiy savol bayoni:

#### Raqamlangan va markerlangan ro'yxatlar

Bugun ro'yxatlarni har bir Web – saxifada ko'rish mumkin. HTML tilida axborotlarni ro'yxat ko'rinishida ifodalash uchun maxsus teglar mo'ljallangan. Ro'yxatlar ma'lumotlarni elektron va nashr xujjatlarda ifodalashning eng ko'p qo'llaniladigan formalardan biri hisoblanadi.

Ro'yxatlardan foydalanish quyidagi xollarda juda qulaydir:

- O'qish paytida qulaylik tug'dirish uchun axborot fragmetnlarini yagona strukturaga birlashtirish;

- Murakkab qidiruv jarayonlarni yozib chiqish;

- Puntklari (joylari) mos xujjat bo'lishlarini ko'rsatib turuvchi axborot mundarijasining joylashuvi;

HTML tilida ro'yxatlarning quyidagi asosiy xillari mavjud markerlangan, nomerlangan va aniqlash ro'yxati. Yana boshqa xillar ham bor, lekin yuqoridagi uchta ro'yxat turlari eng ko'p ishlatiladi. Ularning o'zaro o'xshashligi shundaki, ularning barchasi yangi satrning har bir punktiga joylashgan bo'ladi va siz bemalol, har bir matnni ajratishingiz mumkin. Yuqorida keltirilgan ro'yxat tiplarining asosiy farqi nomerlashtirish usulida va uning strukturasiadir.

#### Markerlangan ro'yxat

Markerlangan (aks holda bu kabi ro'yxatlar nomerlangan yoki tartibga keltirilmagan ro'yxatlar deyiladi) ro'yxatni yaratish uchun ichida ro'yxatning hamma elementlari mavjud teg – konteyner <UL> <G'UL> (UL – Unordered List – tartibga solinmagan ro'yxat) dan foydalanish zarurdir. Ro'yxatning ochuvchi va yonuvchi teglari satrni ro'yxat boshiga va oxiriga o'tkazishni ta'minlab turadi. Shu bilan birga ro'yxatni xujjatdagi asosiy ma'lumotlardan ajratib turadi. Shuning uchun bu erda <p > abzats tegini qo'llash yoki <BR> satrni majburiy o'tkazish zaruriyati yo'q.

Ro'yxatning har bir elementi teg <LI> (G'LI – List Item - ro'yxati elementi) bilan boshlanishi kerak. Teg <LI> mos yopuvchi tega muxtoj emas, lekin uning mavjudligi xato hisoblanmaydi. Brauzerlar xujjatni aks ettirishda harbir yangi ro'yxat elementini yangi satrdan boshlaydilar.

Misol:

```

<HTML>
<HEAD>
<TITLE> Zodiak yulduzlari </TITLE>
</HEAD>
<BODY>
<UL>

```

<H1> B Zodiak yulduzlari <G'B></H1>

<LI> Xamal

<LI> Savr

<LI> Javzo

<LI> Saraton

<LI> Asad

<LI> Sumbula

<LI> Mezon

<LI> Akrab

<LI> Kavs

<LI> Jadiy

<LI> Dalv

<LI> Xut

<G'UL>

</BODY>

</HTML>

<LI> tegi bilan belgilangan ro'yxat elementlaridan tashqari boshqa HTML – elementlari ham ishtirok etish mumkinligini aytib o'tish zarurdir. Yuqoridagi misolda xudi shunday elementlardan biri ro'yxat punkti (joyi) hisoblanmaydigan, lekin uning sarlavhasida asosiy rolni o'ynaydigan oddiy matn ko'rsatilgan.

HTML tili bo'yicha ba'zi darsliklarda ro'yxat sarlavhasi uchun teg – konteyner <LN>(LN – List Ytader ro'yxat sarlavhasini ishlab chiqish kerakligi to'g'risidagi ko'rsatmalar uchraib turadi. Hozirgi paytda nomi chiqqan brauzerlardan birortasi ham bu tegni tan olmaydilar va u HTML spetsifikasiga kirmaydi. Shunday qilib bu teg bita yarimta xatoliklarni keltirib chiqarmasa ham, uni qo'llash hech qanaqa ma'no kasb etmaydilar.

<UL> tegida ikkita parametr ko'rsatilishi mumkin COMPACT va TYPE.

COMPACT parametri ma'nosiz yoziladi va mazkur ro'yxatni kompakt ko'rinishida chiqarish zarurligini brauzerga biriktirib qo'yish uchun ishlatiladi. Masalan, shriftni yoki ro'yxat satrlari orasidagi masofani kichraytirish mumkin va b.k.

TYPE parametri ro'yxat satri belgilanadigan znachokni berish (yuklash) imkonini yaratadi; uchtasidan bittasiga ruxsat berilgan: diss, circle va square. Bu parametr ro'yxat markerlar xilini majburiy topshirish uchun ishlatiladi. Konkret merker xili foydalaniladigan brauzerga bog'liq bo'ladi. Aks ettirishning tipik variantlari quyidagicha:

TYPE q diss – markerlar bo'yalgan aylanalar bilan aks ettiriladi;

TYPE q circle – markerlar bo'yalmagan aylanalar bilan aks ettiriladi.

TYPE q square – markerlar bo'yalgan kvadratchalar bilan aks ettiriladi.

Misol: <UL TYPE q circle > .

TYPE q diss indamaslik (umolchanie) bo'yicha foydalaniladigan znachenie (ma'no, mohiyat, qiymat) hisoblanadi. Kiritilgan markerlangan ro'yxatlar uchun indamaslik bo'yicha berilgan darajada diss znacheniyasi ishlatilsa, ikkinchida circle, uchinchi va undan keyingi darajalarda square ishlatiladi.

Masalan, HTML 4.0 spetsifikatsiyasida TYPE q square znacheniyasida aks etadigan marker xili uchun bo'yalmagan kvadratcha ko'rsatiladi (square outline).

Parametr TYPE shu znacheniyalari bilan alohida ro'yxat elementlari markerlari xillarining ko'rsatmasi uchun qo'llanishi mumkin. Buning uchun parametr xillarining ko'rsatmasi uchun qo'llanishi mumkin. Buning uchun parametr TYPE o'ziga mos kelgan znacheniyalari bilan <LI> elementlari ro'yxati teg ida ko'rsatma berishiga ruxsat etilgan.

Misol: <LI TYPE q circle >

### Grafik ro'yxat markerlari

Ro'yxat markerlari sifatida grafik tasvirlardan foydalanish mumkin, chunki ular chiroyli, o'ziga jalb qiluvchi darajasida rasmiylashtirilgan HTML xujjatlarni yaratishda ko'plab ishlatiladi. Haqiqatan, bunday imkoniyat to'g'ri – to'g'ri HTML tomonidan taqdim etilmaydi, lekin biroz suniy



ravishda amalga oshiriladi. Maqsad shuki, <UL> ro'yxat tegi (quyida ko'riladigan barcha teglar singari) yagona topshiriqni bajaradi, ya'ni berilgan tegdan keyin joylashgan barcha axborotlar qandaydir kattalikka o'ng tomonga siljish bilan aks etishi zarurligi to'g'risida brauzerga ko'rsatma beradi. Alohida ro'yxat elementlariga ko'rsatma beruvchi <LI> teglari standart ro'yxat elementlari markerlarini olib ketishni ta'minlaydi.

Agar grafik markerlar bilan ro'yxat tuzish talab qilinsa, u holda, umuman bilan <LI> teglarisiz ishni hal qilish mumkin. Faqatgina har bir ro'yxat elementi oldiga qo'yilgan grafik tasvirni joylashtirish kerak bo'ladi. Bunda hal qilinishi lozim bo'lgan yagona masala bu ro'yxat elementlarini bir-biridan ajratishdir. Buning uchun <p> abzats teglaridan yoki <BR> satrini majburiy o'tkazishdan foydalansa bo'ladi. Grafik markerli ro'yxatni amalga oshirish misoli quyida keltirilgan:

```
<HTML>
<HEAD>
<TITLE> ro'yxat grafik markerlari </TITLE>
</HEAD>
<BODY>
<UL>
<H1> <B> materiallar ro'yxati <G'B></H1>
< IMG SRG q "Tips.qit" > Evropa <BR>
< IMG SRG q "Tips.qit" > Osiyo <BR>
< IMG SRG q "Tips.qit">Afrika <BR>
< IMG SRG q "Tips.qit" > Amerika <BR>
< IMG SRG q "Tips.qit" > Avstraliya <BR>
<G'UL>
</BODY>
</HTML>
```

Mazkur misolda ro'yxat elementi markeri sifatida Tips.qit grafik fayli ishlatildi. HTML – sahifalarda grafiklarni qo'llash uzatilgan axborotlar xajmini ancha oshib ketishiga olib kelishini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Lekin bu holatda xajm kengayishini nazarga olmasa ham bo'ladi, chunki u juda kam o'zgartgan. Bu erda barcha markerlar uchun faqat bir marta beriladigan fayl ishlatiladi. Kichik tasvirli fayl razmerga ham juda kichik bo'ladi.

#### Nomerlangan ro'yxat

Nomerlangan (OL – Orderad List – tartibga keltirilgan ro'yxat) markerlangan ro'yxatga juda o'xshab ketadi. Lekin ular birgina farq mavjud, u ham bo'lsa nomerlangan ro'yxatda har bir punkt oldiga grafik merkerlar o'rniga avtomatik ravishda nomerlar yoki harflarning ketma-ket joylashtirishidir. Nomerlashtirish brauzerga bog'liq bo'ladi va ro'yxat teg parametrlari orqali beriladi.

Nomerlangan ro'yxatni yaratish uchun ichida barcha ro'yxat elementlari joylashgan teg kenteyner <OL> <G'OL> dan foydalanish zarur xisoblanadi. Ochuvchi va yopuvchi ro'yxat teglari satrni ro'yxatning old va orqa tomoniga o'tkazishni ta'minlaydi. Shunday usul bilan ro'yxat xujjat ichidagi asosiy narsalardan ajratiladi. Markerlangan ro'yxat singari harbir nomerlangan ro'yxat elementi ham teg <LI> bilan boshlanishi kerak.

Misol.

```
<HTML>
<HEAD>
<TITLE> nomerlangan ro'yxat misoli </TITLE>
</HEAD>
<BODY>
<OL>
<H1> <B> Erdan ko'rinadigan yorug'roq yulduzlar: <G'B></H1>
<LI> Simus
<LI> Kanopus
```

```

<LI> Arktur
<LI> Alfa Tsentavra
<LI> Vega
<LI> Kapella
<LI> Rigel
<LI> Protsion
<LI> Axernar
<LI> Beta Tsentavra
<LI> Betelgeyze
<LI> Aldebarak
<BR> ....
<LI Value q 58> Mitsar
<BR> ....
<LI Value q 75 > Polyarnaya
<G'OL>
</BODY>
</HTML>

```

Tegi <OL> quyidagi parametrlarga ega: COMPACT, TYPE va START.

Parametr COMPACT markerlangan ro'yxatlardagi kabi ma'noga ega. Parametr TYPE esa ro'yxat nomerlash xillarining topshirig'i (vazifasi) uchun ishlatiladi.

Quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:

TYPE q 1. Standart raqamli nomerlash – 1, 2, 3, 4, 5 ...

TYPE q A. Bosh xarflar – A, B, C, D, E, ...

TYPE q a. Kichik xarflar – a, b, c, d, e, ...

TYPE q I. Rim raqamlari – I, II, III, IV, V, ...

TYPE q i. Kichik rim raqamlari – I, II, III, IV, V, ...

Hamisha indamaslik bo'yicha TYPE q 1 ishlatiladi ya'ni arab raqamlari yordamida nomerlash. Element ro'yxati nomeridan so'ng doim qo'shimcha «nuqta» belgisi chiqariladi.

Parametr TYPE o'sha qiymatlar alohida ro'yxat elementlarining nomerlash xillariga ko'rsatma berish uchun qo'llanilishi mumkin. Buning uchun TYPE parametri mos qiymatlar bilan <LI> ro'yxat elementi tegida ko'rsatma berishi mumkin.

Misol: <LI TYPE q A>

<OL> tegining START parametri ro'yxat nomerlashini birdan boshlamaslikka imkon beradi. START parametri qiymati sifatida doim natural son ko'rsatishi kerak.

Misol: <OL TYPE q A START q 5>

Bunday yozuv ro'yxatni nomerlashda lotincha bosh harf «E» dan boshlashni aniqlaydi. Nomerlashning boshqa xillari uchun STARTq5 yozuvi mos ravishda nomerlashni «5» sonidan, rim raqamii «V» (va sh.k.) dan boshlash kerakligini bildiradi.

Teg <LI> nomerlangan ro'yxatlar uchun TYPE va VALUE parametrlaridan foydalanishga ruxsat beradi. TYPE parametri <OL> tegining qiymatlarini qabul qilib olishi mumkin.

Misol: <LI TYPE q A>

Teg <LI> VALUE parametrining qiymati berilgan ro'yxat elementi nomerini o'zgartirishga yordam beradi. Bunda barcha navbatdagi elementlarning nomerlanishi o'zgarib ketadi. Bunday ro'yxat misoli yuqorida keltirildi. Bu misolda eng yorug' yulduzlarning tartibli ro'yxati mavjud bo'lib, unda 58 va 75 ta joylarda joylashgan, bizning kengliklarda yaxshi ko'rildigan yulduzlar bor. (Mitsar – bolshaya medveditsa (katta ayiq) yulduzlar turkumidagi eng yorug' yulduz; qutb yulduzi esa kichik ayiq turkumiga tegishli).

### Taxlangan ro'yxatlar

Ro'yxatlarning ajoyib xususiyatlaridan biri – bu ularni bir-biriga joylashtirish (taxlash) imkoniyati boriligidir. Bu holda ko'p darajali yoki taxlangan ro'yxatlar tashkil etiladi.

Ro'yxatga ro'yxat qo'shish ro'yxatni yaratish kabi amalga oshiriladi. Buning uchun HTML maxsus teglari bo'lmaydi. Brauzerni adashtirib yubormaslik uchun, siz xarbir ichki ro'yxatni <G'OL> tegi yordami bilan yopganingizga ishonch hosil qiling. Xattoki har xil tipdagi ro'yxatlarni ham bir-biriga joylash mumkin. Quyida taxlangan ro'yxatli HTML – xujjat kodi keltirilgan. Bu misolda har bir makerlangan ro'yxat elementiga o'zining nomerlangan ro'yxati taxlangan.

```
<HTML>
<HEAD>
<TITLE> taxlangan ro'yxat misoli </TITLE>
</HEAD>
<BODY>
<G'UL>
<H1> <B> ba'zi planetalar yo'ldoshlari <G'B></H1>
<LI> Er
<OL>
<LI> Oy
<G'OL>
<LI> Mars
<OL>
<LI> Fobos
<LI> Deymas
<G'OL>
<LI> Uran
<OL>
<LI> Ariel
<LI> Umbriel
<LI> Titaniya
<LI> Oberon
<LI> Miranda
<G'OL>
<LI> Neptun
<OL>
<LI> Triton
<LI> Nerenda
<G'OL>
<G'UL>
<BODY>
<HTML>
```

#### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Giperbog'lanishning axamiyati?
2. Giperbog'lanish xillari?
3. «Yakor» nima degani?
4. Tasvirni o'rnatish turlari?
5. Ro'yxat xillari?
6. Aniqlash ro'yxati?
7. HTML – xujjatga tasvirning joylashuvi?
8. Kiritiladigan tasvir razmerining burilishi?
9. Giperaloqa sifatida tasvirdan foydalangish texnologiyasi?
10. Tasvir formatlari?
11. Ro'yxat nima degani?
12. Aniqlash ro'yxati?

## 9-Mavzu: HTML da jadvallar, freymlar va formalar bilan ishlash

Ajratilgan soat – 2

Asosiy savollar:

1. HTMLda jadvallar hosil qilish
2. HTML da freymlar va formalar bilan ishlash.

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** freymlar, freymlar to'plami, «o'zgaruvchan» freymlar, HTML – formalar, INPUT uslubi. taxlangan jadvallar, <TABLE> tegi.

**“HTML da jadvallar, freymlar va formalar bilan ishlash” mavzusi bo'yicha darsning texnologik xaritasi**

| T.r. | Bajariladigan ish mazmuni                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | Amalga oshiruvchi mas'ullar |
|------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------|
| 1    | <p><b>Tayyorlov bosqichi:</b><br/>                     * Maqsad: Hyper Text Markup Language (HTML) belgilash tilida jadvallar hosil qilish, freymlar va formalar bilan ishlash bo'yicha nazariya va amaliy ko'nikmalarni egallash.<br/>                     * Vazifalar:<br/>                     - talabalarda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish;<br/>                     - mavzuga oid tarqatilgan materiallarni, nazorat topshiriqlarini talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara orqali nazorat topshiriqlari qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini aniqlash;<br/>                     * Mazmun: Hyper Text Markup Language (HTML) belgilash tilida jadvallar hosil qilish &lt;TABLE&gt; tegi, freym tuzilmali sahifalarni yaratish, formalar hosil qilish.</p> | O'qituvchi                  |
| 2    | <p><b>Darsni tashkil etish bosqichi:</b><br/>                     Uslub: Og'zaki bayon qilish.<br/>                     Shakl: ma'ruza mashg'uloti, kichik guruhlar va jamoada ishlash.<br/>                     Vosita: tarqatma va taqdimot materiallari.<br/>                     Usul: tayyor yozma materiallar.<br/>                     Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish.<br/>                     Baholash: Rag'batlantirish, reyting tizimi asosida baholash.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | O'qituvchi                  |
| 3    | <p><b>Mustaqil ishlash bosqichi:</b><br/>                     - munozara, aqliy hujum, mikrogruhda ishlash va boshqa metodlar orqali nazorat topshiriqlarini echishga yo'naltiriladi.<br/>                     - talabalar nazorat topshiriqlarini hal qilish to'g'risidagi fikrlarini o'zaro muhokama qilishadi.<br/>                     - o'zi va mikrogruh uchun yagona javobni tanlaydi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | Talaba                      |
| 4    | <p><b>Natijalarni eshitisht va tahlil qilish bosqichi:</b><br/>                     - talabalar va mikrogruh fikri tinglanadi, ularga aniqlashtiruvchi savollar beriladi.<br/>                     - mikrogruhlarning javoblari to'g'risida talabalar fikri aniqlanadi.<br/>                     - javoblar tahlil etiladi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | O'qituvchi - talaba         |
| 5    | <p><b>Yakuniy va baholash bosqichi:</b><br/>                     - talabalar bergan javoblardan ko'pchilik fikriga mos kelgani alohida ajratib olinadi.<br/>                     - talabalarning nazorat topshiriqlarini echishdagi faolligi, intilishlari hisobga olingan holda baholanadi.<br/>                     - yakuniy fikr aytiladi.<br/>                     - mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | O'qituvchi                  |

## 1-Asosiy savol bayoni:

### HTMLda jadvallar hosil qilish

Jadvallar HTML da keng miqyosda qo'llaniladigan va eng kuchli vositalardan biri hisoblanadi. Azaldan HTML jadvallarni butunlay quvvatlamagan. Web dizaynerlar berilgan formatdagi matnlarni qo'llab va ularni <PRE> va <G'PRE> teglarga joylab bu qiyin holatdan chiqib ketishga harakat qilganlar. Bu teglar ichidagi matn shriftilar bilan chiqarilgan va ochiq joy (probel) va tabulyatsiya simvollarini qandaydir o'z ma'nosiga ega bo'ladilar. Bunday matnlarni epaqaqa keltirish qo'l bilan bajarilgan. Bu esa o'z navbatida xujjatlar yaratishning sezilarli darajada sekinlashtirilgan. Modomiki, azaldan barcha etuk brauzerlarda amalga oshirib kelishgan va ancha vaqt o'tishi bilan HTML 3.2. spetsifikatsiyasiga kiritilgan bo'lsa-da, ma'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalashni quvvatlash de-fakto (haqiqat) standartiga aylandi.

Hozir jadvallar ma'lumotlarni ifodalash bilan birga Web-saxifani rasmiylashtirishdagi elementi sifatida ham, ishlatilmoqda. Jadvallar tufayli matn fragmentlari va grafiklarning pozitsion o'rini aniq almashtirishni, bezash elementlarini, chizg'ich va zalivkalarini, chekinish va bo'rtirishlarni xuddi bosma nashrdagidek bajarish mumkin.

Avvalo, oddiy jadvallarni yaratish uchun zarur bo'lgan teglar va ularning parametrlarini ko'rib chiqamiz, so'ngra ularni batafsil ta'riflashga o'tamiz.

Jadval ta'rifi <BODY> xujjati bo'limining ichki qismida joylashgan bo'lishi kerak. Xujjat ixtiyoriy miqdordagi jadvallarni o'zida sig'dirish mumkin, shu bilan birga ularni bir-biriga taxlash uchun ham ruxsat beriladi. Har bir jadval, teg <TABLE> bilan boshlanishi va teg <G'TABLE> bilan tugallanishi shart. Bu juft teglar ichida jadvaldagi barcha ta'rif (opisanie)lar joylashtirilgan. Har bir jadval yoki birnecha satrlardan iborat va ularning har birida alohida yacheykalar uchun ma'lumotlar berilgan.

Har bir satr teg <TR> (Table Rom) bilan boshlanadi va <G'TR> tegi bilan tugallanadi. Satrdagi alohida yacheykalar to'rt teglar <TD> va <G'TD> (Table Data) yoki <TH> va <G'TH> (Table Header) bilan o'raladi. Teg <TH> odatda yacheyka - sarlavxalar uchun, <TD> tegi esa yacheyka - berilgan ma'lumotlar uchun qo'llaniladi. Foydalanishdagi ular orasidagi farq shrift tipiga bog'liq bo'ladi, chunki ular indamaslik bo'yicha yacheyka ichidagilarni aks ettirish va berilgan ma'lumotlar qanday joylashganligini bilish uchun ishlatiladi. <TH> tipli yacheyka ma'lumotlarni yarimquyuq (Bold) shrift bilan ko'rsatiladi va markaz bo'yicha joylashadi (ALIGNqCENTER, VALIGNqMIDDLE).

<TD> tegi bilan aniqlangan yacheykalar chapga (ALIGNqLEFT) va o'rtaga (VALIGNqMIDDLE) vertikal yo'nalishga to'g'rilangan ma'lumotlarni indamaslik bo'yicha aks ettiradilar.

<TD> va <TH> teglari <TR> jadval satri ta'rifidan tashqarida paydo bo'la olmaydilar.

Yakunlovchi <G'TR>, <G'TD> va <G'TH> kodlari tushirib qoldirishlari mumkin. Bunday holatda satr ta'rifi yoki yacheykaning oxiri navbatdagi satr yoki yacheyka, yoki jadval oxirining boshlanishi hisoblanadi. Yakunlovchi jadval tegi <G'TABLE> esa tushirib qoldirilishi mumkin emas.

Jadvaldagi satrlar miqdori ochuvchi teg <TR>lar soni bilan, ustunlar miqdori esa <TD> yoki <TH>larning maksimal miqdori bilan aniqlanadi. Yacheykalar bir qismi hech qanday ma'lumotlarga ega bo'lmasliklari mumkin. Bu kabi yacheykalar ketma-ket keladigan juft teglar - <TD>, <G'TD> bilan ta'riflanadi. Agar qandaydir satr oxiriga joylashgan bitta yoki bir necha yacheykalar ma'lumotlarga ega bo'lmasalar, u xolda ularning ta'rifini tushirib qoldirish mumkin bo'ladi. Brauzer esa avtomatik ravishda talab darajada bo'sh yacheykalarni qo'shib qo'yadi. Demak, harxil satrlarda joylashgan bir xil razmerli harxil miqdordagi ustunlarni o'z ichiga olgan jadvallarni qurish ma'n etiladi.

Jadvalda juft teglar - <CAPTION> va <G'CAPTION>ga joylashtirilgan sarlavxa bo'lishi mumkin. Jadval sarlavxasining ta'rifi <TABLE> va <G'TABLE> teglari ichki qismining istagan joyida bo'lishi mumkin. Lekin istagan <TD> va <TH> yoki <TR> teglari ta'rifidan tashqarida joylashishi kerak.

HTML tili stetsifikatsiyasiga asosan sarlavxa ta'rifining joylashuvi qat'iy tarzda reklama qilingan: u <TABLE> tegidan keyin va birinchi teg <TR>gacha shu xaxotiyoy joylashishi zarur.

Indamaslik (po umalchaniyu) bo'yicha jadval sarlavxa matni uning ustiga (ALIGNqTOP) joylashadi va gorizontal xolatda markazlashtiriladi.

Sanab o'tilgan teglar son va moyiyati har xil parametrlarga ega bo'lishi mumkin. Lekin eng oddiy holatda ular indamaslik bo'yicha qiymat qabul qiladigan parametrlarsiz ishlatiladi.

Endi misol keltiramiz. Birinchi jadvalimiz juda oddiy va ko'paytirish jadvali bo'ladi. Bu saxifachani tbe1.html deb ataymiz.

```
<HTML>
<HEAD>
<TITLE> ko'paytirish jadvali </TITLE>
</HEAD>
<BODY>
<H1> ko'paytirish jadvali (1 dan 5 gacha) </H1>
<TABLE BORDERq "2">
<TR><TD><G'TD><TD>1<G'TD><TD>2<G'TD><TD>3
<G'TD><TD>4<G'TD><TD>5<G'TD><G'TR>
<TR><TD>1<G'TD><TD>1<G'TD><TD>2<G'TD>
<TD>3
<TR>
<G'TD>
<TR><TD>
<G'TD><TD>12<
<TR><TD>4<G'TD><
<G'TD><TD>16
<TR><TD>5<G'TD>
<G'TD><
<G'TABLE>
</BODY>
</HTML>
```

Uni Web – sharxlovchi deyiladi, 3 rasmga o'xshash ma'lumotlar chiqishi kerak.

Ko'paytirish jadvali (1 dan 5 gacha)

|   |   |   |   |   |   |
|---|---|---|---|---|---|
|   | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 |   |   |   |   |   |
| 2 |   |   |   |   |   |
| 3 |   |   |   |   |   |
| 4 |   |   |   |   |   |
| 5 |   |   |   |   |   |

rasm 3. Ko'paytirish jadvali

Oddiy jadval murakkab ko'p darajali strukturani tashkil etuvchi bir – biriga taxlangan ko'plab teglardan iborat. Endi jadval qanday teglar bilan shakllanishini ko'rib chiqamiz. Jadval tegi quyidagi format (shakl)ga ega:

```
<TABLE [BORDERq "{ramka qalinligi}"]>
[CELLPADDINGq "{yacheyka ichidagi narsalar va chegarasi orasidagi masofa}"]
[CELLSPACINGq "{yacheyka orasidagi masofa}"]
[WIOTHq "{jadvaldan keyingi}"] [HEIGHNq "{jadval balandligi}"]
[ALIGN q "{left G'CenterG' right}"] [BGCOLORq "{jadval foni rangi}"]
[RORDERCOLORq "{ramka rangi}"] [BACKGROUNDq "{fonli rasm adresi}"]
[FRAMEq "noneG'aboveG'belonG'hsidesG'lhsG'rhsG'vsidesG'vsidesG'bat"]
[RULESq "noneG'romsG'colsG'ale"]>
<|—satr aniqlash —>
```

<TABLE>

Endi bu tegning atribut (parametr) larini ko'rib chiqamiz.

Atribut BORDER jadval ramkasi qalinligini piksellarda beradi. Agar u ishtirok etmasa, ramka ko'rinmaydi, lekin brauzer (Web-sharxlovchi) aks ettirishda ramka mavjud deb hisoblaydi. Agar bu atributga 0 qiymatini bersak, u holda ramka jadvalda butunlay bo'lmaydi.

Atribut CELLPADDING yacheyka ichidagi narsalar bilan ramka orasidagi bo'sh oraliq razmerini piksellarda beradi. Indamaslik bo'yicha u 1 ga teng.

Atribut CELLSPACING jadval yacheykalari orasidagi bo'sh oraliqni piksellarda ko'rsatadi. Indamaslik bo'yicha u 2 ga teng.

Atributlar WIDTH va HEIGHT jadval razmerini o'rnatishiga imkon beradi. Razmerni brauzer darchasi razmerlariga nisbatan absolyut kattalik ko'rinishida piksel va foizda ko'rsatishga ruxsat beriladi (foiz belgisi %ni qo'yish esdan chiqmasin). Agar bu atributlar tushirib qoldirilgan bo'lsa, u holda brauzerning o'zi jadval razmerini qo'yadi.

Atribut ALIGN jadval so'yirilgin matn bilan beradi. Left qiymati brauzer darchasining chap chekkasiga o'tishga majbur etadi. Matn esa uni o'ng tomondan qarshiliksiz aylanib o'tadi. Right qiymati teskari joylashtirsa, Center esa jadvalni saxifa markaziga joylashtiradi.

Atribut BGCOLOR va BACKGROUNDlar mos ravishda fon rangini va jadval uchun fonli rasm adresini beradi.

Atribut BORDERCOLOR jadval ramka rangini beradi – u W3C tomonidan standartlashtirilgan va uni faqat Internet Explorer quvvatlab turadi.

Atribut FRAME jadval ramkasining qaysidir tashqi qismi chizmasini aniqlaydi. Quyidagi qiymatgaga ruxsat berilgan:

- void – tashqi ramka butunlay yo'q;

- above – tashqi ramkaning faqat yuqori chizig'i chiziladi;

- below – tashqi ramkaning faqat pastki chizig'i chiziladi;

- hsidess – tashqi ramkasining faqat gorizontaal chizig'i chiziladi, ya'ni yuqori va quyi chiziqlari;

- lhs – tashqi ramkaning faqat chap chizig'i chiziladi;

- lrs – tashqi ramkaning faqat o'ng chizig'i chiziladi;

- vsides – tashqi ramkasining faqat vertikal chizig'i chiziladi;

- bax – tashqi ramkaning faqat hamma chiziqlari chiziladi.

Bu atribut W3C tomonidan standartlashtirilgan bo'lsa-da, uni faqat Internet Explorer quvvatlaydi.

Atribut RULES jadval ramkasini ichki qismining qanday chizilishini ko'rsatadi.

Bunda quyidagi qiymatlarga ruxsat beriladi:

- none – hech qanday ichki ramkalar bo'lmaydi;

- rows – faqat gorizontaal chiziqlar chiziladi (satrlar orasidagi);

- cols – faqat vertikal chiziqlar chiziladi (ustunlar orasidagi);

- ale – barcha ichki ramkalar chiziladi.

Bu atribut ham W3C tomonidan standartlashtirilgan bo'lsa-da uni Internet Explorer quvvatlab turadi.

### Jadval ichidagi ma'lumotlarni formatlash

Jadval ichidagi harbir alohida yacheykani mustaqil formatlash uchun ajratilgan o'rin deb hisoblash mumkin. Matnni aks ettirishni boshqarishdagi barcha qoidalar yacheyka ichidagi matnni formatlashda ishlatilishi mumkin. Yacheyka ichida <BODY> xujjati tegi ichida paydo bo'lib qiladigan HTMLning hamma elementlarini ishlatish mumkin. Shu jumladan, <p>, <Br>, <HR> matnlar joylashuvini boshqaradigan teglar, <H1> dan <H6> gacha bo'lgan sarlavxa kodlari; <B>, <I>, <STRONG>, <BIG>, <EM>, <FONT SIZE>, <FONT COLOR> simvollarni formatlash teglari; <IMG> grafik tasvirni; <A> va sh.k. gipermatn aloqalarni o'rnatish teglari.

Alohida yacheykalar ichidagi teglarning ta'sir etish joyi (oblast) yakunlovchi tegning mavjudligiga qaramay, shu yacheyka imkoniyatlari bilan chegaralanadi. Masalan, yacheyka ichida <FONT COLORqRED> matn rangi aniqlangan bo'lsa, u holda xattoki yakunlovchi eod <G>

FONT>yoki uning bir nechta yacheyka yoki jadval satri orqali joylashuvi bo'lmasa-da, navbatdagi yacheyka matni indamaslik rangi bilan aks etiriladi.

Jadval yacheykalari ichidagi ma'lumotlarni formatlash uchun quyidagi parametr (atribut)lar mo'ljallangan:

Yacheykadagi qiymatlarni rostdash parametrlar - ALIGN va VALIGN. <TR>, <TD> va <TN> kodlarida qo'llanishi mumkin. Gorizontol bo'yicha rostdash parametrlari – ALIGN. LEFT, RIGHT va CENTER esa qiymatlarini qabul qilishi mumkin (indamaslik bo'yicha LEFT <TD> uchun CENTER <TN> uchun). Vertikal rostdash parametri – VALIGN TOP (yuqori qirra bo'yicha), VOTTOM (pastki qirra bo'yicha), MIDDLE (markaz bo'yicha), BASELIVE (baza liniyasi bo'yicha), MIDDLE (indamaslik bo'yicha) qiymatlarini qabul qilib olishi mumkin. Baza liniyasi bo'yicha rostdash hamma yacheykaldagi alohida satr matnlarini bitta liniyaga birlashtirishni ta'minlaydi. <TR> kodi darajasida rostdash parametrlarining berilishi berilgan satrlarning barcha yacheykalari uchun rostdashni aniqlaydi. Bunda har bir alohida satr yacheykasida o'zining parametri aniqlanishi (<TR> da berilgan parametrlar harakatini qaytadan aniqlovchi) mumkin.

Misol keltiramiz. Bu misolda berilgan jadval ma'lumotlari birinchi ustun yacheykalarida o'ng tomonga, ikkinchi ustunda markazga, uchinchi ustunda esa chap tomonga tug'rilangan (indamaslik qiymati bo'yicha):

```
<HTML>
<HEAD>
<TITLE> jadval elementlarini rostdash </TITLE>
<BODY>
<TABLE BORDER WIDTHq100%>
<TR>
<TD ALIGNqRIGHT> yacheyka 1 <G'TD>
<TD ALIGNqCENTER> yacheyka 2 <G'TD>
<TD> yacheyka 3 <G'TD>
<G'TR>
<TR>
<TD ALIGNqRIGHT> yacheyka 4 <G'TD>
<TD FLIGNqCENTER> yacheyka 5 <G'TD>
<TD> yacheyka 6 <G'TD>
<G'TR>
<G'TABLE>
</BODY>
</HTML>
```

Murakkab jadvallar uchun bir nechta o'xshash yacheykalarni gorizontol va vertikal bo'yicha bittaga birlashtirishga zaruriyat mavjudligi ma'lum. Bu berilgan imkoniyat <TD> yoki <TH> beriladigan COLSPAN (COLUMN SPANNING) va ROWSPAN (ROW SPANNING) parametrlari yordami bilan amalga oshiriladi. Yozish formasi (shakli): COLSPANqnum; bu erda num – joriy yacheykani gorizontol bo'yicha nechta ustunga kengaytirishni ko'rsatuvchi sonli qiymat. ROWSPAN parametrining qo'llanilishi shu kabi bajariladi, faqat bu erda vertikal bo'yicha joriy yacheykalarni o'z ichiga olishi kerak bo'lgan satrlar miqdorini ko'rsatish kerak bo'ladi. Indamaslik bo'yicha bu parametrlar uchun birga teng bo'lgan qiymat o'rnatiladi. Bitta yacheyka uchun ikkala parametrlar qiymatini bir vaqtda berilishi mumkin.

Yacheykalarni birlashtirishga misol. Bu saxifani tbl2 html nomi bilan saqlab qo'yamiz:

```
<HTML>
<HEAD>
<TITLE> yacheykalarni birlashtirish </TITLE>
</HEAD>
<BODY>
<TABLE BORDER>
<TR>
```



```

<TD ROWSPAN q2> ikki satrni egallovchi yacheyka <G'TD>
<TD COLSPANq2> ikki ustunni egallovchi yacheya <G'TD>
<G'TR>
<TR>
<TD> yacheyka 3 <G'TD>
<TD> yacheyka 4 <G'TD>
<G'TR>
<TR>
<TD> yacheyka 5 <G'TD>
<TD> yacheyka 6 <G'TD>
<TD> yacheyka 7 <G'TD>
<G'TR>
<G'TABLE>
</BODY>
</HTML>

```

Yuqoridagi kod bo'yicha olingan jadval tasviri rasm 3 da ko'rsatilgan.

| Ikki satrni egallovchi yacheyka | Ikki ustunni egallovchi yacheyka |         |
|---------------------------------|----------------------------------|---------|
| Yacheyka 5                      | yach. 3                          | yach. 4 |
|                                 | yach. 6                          | yach. 7 |

Rasm 3. Bir nechta satr va ustunlarga taqsimlanuvchi yacheykalar jadvali.

MS Internet Explorer ga xos yana bir qancha parametrlar BORDERCOLOR, BORDERCOLORLIGHT va BORDERCOLORDARK jadvallar ramkasi rangini tanlashga imkon beradi. Bu parametrlar <TABLE>, <TD>, <TH> va <TR> teglarida berilishi mumkin. Bu parametrlarning qiymati sifatida rang nomi yoki o'noltillik sonlari ishlatilishi mumkin. BORDERCOLOR parametri jadval ramkasi elementlarining rangini aniqlasa, qolgan ikki parametrlar esa BORDERCOLOR qiymatini qaytadan aniqlab, ramkaning qolgan alohida qismlari uchun xizmat qiladi. Parametr BORDERCOLORLIGHT hamma jadvallarining chap va yuqori qirralarini mos ravishda har bir yacheykaning o'ng va pastki qirralarini ko'rsatilgan rangga bo'yaydi. Ikkinchi parametr BORDERCOLORDARK esa qarama-qarshi qirralarga rang beradi. Bu ikki parametr harakatining birlashuvi oqibatida jadval sahifa satridan yuqoriroq (yoki quyiroq)da ko'rinadi. Bular barchasini tanlangan ranglar omixtasiga bog'liq.

Brauzer MS Internet Explorer (shu jumladan 4.x versiyali Netscape brauzeri ham) barcha HTML xujjatlar uchun qo'llaniladigan ishlar kabi jadval rasmi fonini aniqlovchi BACKGROUND parametridan foydalanishga ruxsat beradi. Bu parametr <TABLE>, <TD>, <TH> va <TR> teglarida berilishi mumkin.

Yana bitta jadval misolini ko'rib chiqamiz: (uni tbl 3. html nomi bilan saqlaymiz)

```

<HTML>
<HEAD>
<TITLE> Fifth document </TITLE>
</HEAD>
<BODY>
<H1> jadval misoli </H1>
<!-- jadval asosi uchun chap teg parametrlari bilan -->
<TABLE BORDERq 2 SELLSPACINGq3 CELLPADDINGq3>
<!-- jadvalni sarlavxasi va sarlavxa ramkasi -->
<CAPTION ALIGNqTOP> <H 3> talabalar ro'yxatini <G'H 3> <G'CAPTION>
<TR>

```

```

<TD><G'TD>
<TH> Bo'yi <G'TD>
<TH> Yoshi <G'TH>
<G'TR>
<TR>
<TH> Afandiev <G'TN>
<TD> 175 <G'TD>
<TD> 21 <G'TD>
<G'TR>
<TR>
<TH> Nasriddinov <G'TN>
<TD> 170 <G'TD>
<TD> 23 <G'TD>
<G'TR>
<TR>
<TH> Xamidov <G'TH>
<TD> 169 <G'TD>
<TD> 19 <G'TD>
<G'TR>
<TR>
<TH> Karimova <G'TN>
<TD> 171 <G'TD>
<TD> 20 <G'TD>
<G'TR>
<TR>
<TH> Smirnov <G'TN>
<TD> 169 <G'TD>
<TD> 22 <G'TD>
<G'TR>
<G'TABLE>
</BODY>
</HTML>

```

Natijada ekranda quyidagi ko'rinish paydo bo'ladi:

Jadval misoli  
Talabalar ro'yxati

| Nasabi      | bo'yi | yoshi |
|-------------|-------|-------|
| Afandiev    | 175   | 21    |
| Nasriddinov | 170   | 23    |
| Xamidov     | 168   | 19    |
| Karimova    | 171   | 20    |
| Smirnov     | 169   | 22    |

Rasm 3. Talabalar ro'yxati

2-Asosiy savol bayoni:

**Freymlar va formalar bilan ishlash**

Shu paytgacha biz keltirgan barcha misollar o'z navbatida bir freymli Web – saxifalardir. Xar bir Web – saxifa alohida fayl edi. Freymmlar texnologiyasi brauzer darchasini bir nechta yonma-yon joylashgan to'g'ri burchakli qismlarga ajratishga imkon beradi. Qismlardan har biriga bir-biriga bog'lanmagan holda tanishib chiqish imkoniyati bor, HTML - xujjatlarni yuklash mumkin. Freymmlar orasida, xudi alohida brauzer oynalari orasidagi kabi o'zaro ta'simi tashkil qilish mumkin. Bu demak, freymmlarning bittasida giperaloqani tanlab olish boshqa freymda yoki brauzer darchasida xujjatni yuklanishiga olib kelishi mumkin.

Freymmlar (frame) o'z vaqtida Web – dizaynda haqiqiy revoliyutsiya qilganlar Wzs esa ularni yaqinda standartlashtirgan. Freymmlar bilan ishlash imkoniyati birinchi marta Nets – cape 2.0 brauzerida amalga oshirilgan. MS Internet Explorer freymmlarni 3.0 versiyadan boshlab quvvatlab keladi, shu bilan birga o'zgaruvchan freymmlar yaratishning ajoyib imkoniyatlarini takdim etadi.

Freymmlar qanday afzalliklarga ega?

Ko'z oldingizga uchta freymni keltiring. Ulardan bittasi saxifaning yuqori kirrasi bo'ylab joylashgan bo'lib, unda Web – sayt nomi yozilgan. Saxifaning chap qirrasini bo'lab vertikal joylashgan ikkinchi freymda giperaloqalar – Web – saytning o'ziga xos sarlavhalari o'rnamashgan. Eng katta uchinchi freymda esa shaxsiy freym kiymatlari joylashgan. Bu ko'pchilik Web – saytlarda ishlatiladigan klassik dizayn sanaladi. Buning kulayligi shundaki, agar foydalanuvchi giperaloqa bo'yicha ishlaganda qiymatlari chiqarib beriladigan bitta freym yangilanadi, xolos. Freymmlar Web – sayt nomi va mundarijasi bilan o'z joylarida qoladilar.

Yuqoridagilarga asosan bir misolni ko'rib chiqamiz. Avval, freymmlarning sahifa kodini yozamiz va Fourth.s. html nomi bilan faylda saqlaymiz.

```
<HTML>
<HEAD>
<TITLE> sayt fayllar bilan </TITLE>
</HEAD>
<FRAMESET POWS q"50" *>
.<Frame SRCq"fsheader.html" Nameq"frmHeader">
<Frameset COLSq"100,*">
<Frame SRCq"fscontents.html" Nameq"frmContest">
<G'Frame SRCq "fsIG'html" NAMEq "frmBody" >
<G'Frame SET>
<Frame SET>
</HTML>
```

E'tibor bering, <BODY> va </BODY> juft teglar o'rnida mos teglar <FRAMESET> va <G'FRAMESET> ishlatilayapti va undan ham muhimrog'i, freymmlar sahifasida faqat freymmlar ta'rifi ko'rsatilmoqda.

Endi sarlavha sahifasi (fayl fsheader. html)

```
<HTML>
<HEAD>
<TITLE> sarlavha </TITLE>
</HEAD>
<BODY TEXT q "blue">
<H1> Sayt freymmlar bilan </H1>
</BODY>
</HTML>
```

Bu erda biz <TITLE> va </TITLE> sahifa sarlavhasining tegini ko'rsatdik. Buni freymmlarda aks ettirilajak standartlar talab qiladilar (juda bo'lmasa sahifalar uchun). Bu shart emas; bunday holatda doimo, freymmlar yig'indisining sarlavhasi aks etadi.

Endi mundarija saxifasini (fayl fscontents.html) ko'rib chiqamiz:

```
<HTML>
<HEAD>
<TITLE> Mundarija </TITLE>
```

```

</HEAD>
<BODY>
<H1> Sayt freymalar bilan </H1>
</BODY>
</HTML>
<p >> AHFEF q "fs1. html" TARGETq "from BODY " > sahifa 1 </A></P>
<p >> AHREF q "fs2. html" TARGETq "from BODY " > sahifa 2 </A></P>
<p >> AHREF q "fs3. html" TARGETq "from BODY " > sahifa 3 </A></P>
</BODY>
</HTML>

```

Bu erda ko'rinib turibdi-ki, <A> tegida yangi atribut TARGET paydo bo'ldi. Uning yordami bilan giperaloqa ko'rsatib turgan sahifani aks ettiruvchi freym berilishi mumkin.

Web – saytdagi qiymatlarni tasvirlovchi Web – sahifalar juda oddiy va biri-biri bilan chiqarib beriladigan matnlar bilan farqlanadi. Ularni fs1. html, fs2. html, va fs3. html fayllarda saqlang.

```

<HTML>
<HEAD>
<!..... Mos nomerni qo'ying .....>
<TITLE> Qiymat 1 (2,3) </TITLE>
</HEAD>
<BODY>
<!..... Bu erda ham mos nomerlar qo'ying .....>
<H1> Sahifa 1 (2,3) </H1>
<p > Bu Web – saytimizning birinchi (ikkinchi, uchinchi) saxifasi. <G'p>
</BODY>
</HTML>

```

Endi freymalar to'plamini aniqlovchi brauzerdagi Fourthr.s. html Web- sahifasini oching. Natija quyidagi rasm 3 da ko'rsatilgan

Sayt freymalar bilan	
Sahifa 1	Sahifa 1
Sahifa 2	Web – saytimizning
Sahifa 3	birinchi sahifasi

### Rasm 3. Freymalar to'plami

Ekranda sichqonchani xarakatga keltirib razmerlarini o'zgartirish mumkin bo'lgan, uch qismga ajratilgan qalin kulrang chiziq ko'riladi. Agar chap freymdagi u yoki bu giperaloqa bo'yicha sichqonchani chiqillatsak, mos sahifa qiymatlari o'ng tomondagi eng katta freymda aks etadi. Mana shu erda freymning muhim afzalligi bilinadi: brauzerning alohida darchalari kabi alohida freymalar bilan boshqarish mumkin. Shu bilan birga freym – Web. sahifagizning bir qismi sanaladi.

Yuqorida ta'kidlanganimizdek, brauzer darchasi bir nechta (3,4 gacha) freymlarga bo'linadi. Bu bunday ajratish parametrlarini ta'riflaydigan maxsus Web – sahifalar yordamida bajariladi. U freymalar to'plami, brauzerning alohida darchalari esa freymalar deyiladi.

Freymalar to'plamining asosiy atribut (parametr)larini ko'rib chiqamiz. Freymalar to'plami juft teglar <FRAMESET> va <G'FRAMESET> yordami bilan ta'riflanadi. Bu juft teglar <BODY> va </BODY> teglar o'rnida ishlatiladi.

```

<FRAMESET Rows|cols q "{freymalar razmeri}"[BORDER q
q "{Chegara qalinligi}"[BORDERCOLORq "{Chegara rangi}"[FRAMEBORDER q "yes|no|
0"][FRAMESPAKINGq "{freymlararo masofa}"]>

```

```

</FRAMESET>

```

ROWS va COLS atribut (parametr) lari Web – sahifalarni freymlarga bo'linishini (ajratish) aniqlaydi.

Atribut ROWS satrlarga ajratishni ko'rsatadi. Ya'ni freymlar to'plami sahifasi oraliq'i chegara bilan taksimlangan ikki satrga (umuman chegarani olib tashlash mumkin), bo'limlari Quyida bu atribut formati keltirilgan.

ROWS q "{razmerning absolyut qiymati}"[{razmerning nisbiy qiymati}%]\*\*

Absolyut qiymat piksellardagi satr balandligini nisbiy qiymat – brauzer darchasi balandligini (foizlarda), bildiradi, bu holda «%» belgisini qo'yish zarur. «\*» belgisi qolgan barcha oraliqlarni satr ostiga joylashtirish kerakligini ko'rsatadi va doim to'plamdagi oxirgi freym razmerini ko'rsatib turish uchun ishlatiladi.

Misol: ROWS q «100, 20%» \*\*

Atribut COLS ham freymlar razmerini aniqlaydi (bu safar mavjud ustunlar xilini). U xuddi ROWS ga o'xshash formatga ega, shuning uchun biz uni bu erda ko'rib chiqmaymiz.

Atribut BORDER freymlar o'rtasidagi chegara qalinligini piksellarda ko'rsatadi.

Atribut BORDERCOLOR freymlararo chegara rangini beradi. Indamaslik bo'yicha chegara kulrang bo'ladi.

Atribut FRAMEBORDER freymlararo chegara ko'rsatuvini yoqish yoki o'chirish uchun imkon beradi. U Netscape va Internet Explorer tomonidan turlicha quvvatlanadi. Netscape chegara ko'rsatuvini yoqish uchun yes va o'chirish uchun esa no qiymatlarini o'ziga oladi. Internet Explorer ham shu kabi 1 va 0 qiymatlarini beraoladi. Indamaslik bo'yicha chegara ko'rsatib turiladi.

Atribut FRAMESPAKING freymlararo masofani berishga yordam beradi (piksellarda).

Freymlar to'plami konteyner bo'lib, unda barcha freymlar ta'rifi (tasnifi) saqlanadi. Lekin, freymlar to'plami boshqa freymlar to'plamini o'z ichiga olishi mumkin. Shunday freymlar to'plamini taxlangan freymlar to'plam deyiladi. Bu murakkab freymlar strukturasi yaratishdagi yagona uslub hisoblanadi, axir alohida freymlar to'plami faqat freym – satr yoki freym – ustunlarni o'zida saqlashi mumkin. Freymarning o'zлари esa boshqa teg yordami bilan ta'riflanishi mumkin.

Teg <FRAME>

Aloxida to'plam freymlari <FRAME> tegi bilan ta'riflanadi. Bu yolg'iz teg. U juft teglar <FRAMESET> va <G\*FRAMESET> ichida joylashgan bo'lishi zarur.

Teg <FRAME> quyidagi atributlarga ega:

<FRAME [srcq "{Adres otobrajaemoy vo freyme stranitsa }"] [NAME q "{Imya freyma}"] [MARGIN-WIDNHq "Gorizontalno'y otstup"] [MARGIN-GHTq{Vertikalno'y otstup }"] [SCROLLING q "Yes [no]auto ["] [NORESIZE ] [ FRAMEBORDERq "Yes [no]o" ] [BORDERCOLORq "{Tsvet granitsa}"]]>

Freymda aks etajak saxifa adresi atribut SRC da beriladi.

Atribut NAME freymning noyob nomini beradi. U keyinchalik teg <A> ning TARGET atributida ishlatiladi. Atribut NAME tushirib qoldirilganda freym nomsiz qoladi.

Atributlar MARGINWIDTH va MARGINHEIGHT freym chegarasi bilan undagi narsalar (qiymatlar) o'rtasidagi masofani mos ravishda gorizontal va vertikal bo'yicha o'rnatadi. Bu qiymat pakselda beriladi. Minimal qiymat birga (1) teng. Indamaslik bo'yicha konkret voqeaga nisbatan to'g'ri keladigan qiymatni brauzerning o'zi tanlaydi.

Atribut SCROLLING freym aylantirish tasmasini aks etishini ma'n qiladi yoki ruxsat beradi. Auto qiymati narsalar freymga sig' magan holdagina ularni aks ettirib beradi (indamaslik bo'yicha). Yes qiymati aylantirish tasmasini hohlagan vaqtda aks ettirib beradi; no qiymati esa ularni butunlay o'chiradi.

Atribut NORESIZE freym razmerlarini o'zgartirish imkoniyatini o'chiradi.

Atributlar FRAMEBORDER va BORDERCOLOR <FRAMESET> tegining bir nomli atributlari kabi ishlaydi.

## Giperaloqaning yangi imkoniyatlari

Bu erda biz freymlarni quvvatlash uchun mo'ljallangan maxsus <A> tegining atributini ko'rib chiqamiz. Bu atribut – TARGET

TARGET q «{freymlar nomi}» G' - self G' - parent G'topG' G'-blank"

Ma'lum bo'ldi-ki, bu atribut qiymati <FRAME> tegining NAME atributida ko'rsatilgan freym nomi bo'lishi mumkin, xuddi shunday zaxiradagi qaysi bir qiymat ham bo'lishi extimoldan xoli emas. Birinchisi bilan hammasi oddiy: Giperaloqaning NREF atributida ko'rsatilgan adresdagi Web – sahifa ko'rsatilgan freymda aks etadi. Barcha zaxiraga olingan qiymatlar jadval 3da ko'rib chiqilgan.

TARGET atributining zaxiraga olingan qiymatlari

qiymat	Ta'rif
- self	Saxifa giperbog'lanish joylashgan freymdi aks etadi.
- parent	Caxifa joriy freymga nisbatan hisoblangan darchada aks etadi. Bizning holatda – brauzer darchasida – (freymlar to'plami yo'q bo'lgan).
- top	Saxifa darcha va freymlar ierarxasini yuqori darajasidagi darchada aks etadi. Bizning xolatda – brauzer darchasida (oldingi xolat kabi).
- blank	Saxifa brauzerning yangi darchasida aks etadi.

### «O'zgaruvchan» freymlar

«O'zgaruvchan» freymlarni faqat Internet Explorer quvvatlaydi. «O'zgaruvchan» freym nima degani? Oddiy matnli Web – sahifaga kiritish mumkin bo'lgan freymni «O'zgaruvchan» freym deyiladi. Bunda «O'zgaruvchan» freym tegi joylashgan joyda, brauzer kichkina darchasida Internet – adresi SRC atributida ko'rsatilgan Web – saxifani aks ettiradi. «O'zgaruvchan» freymlar juft teglar <IFRAME>... <G' IFRAME> yordamida o'rnatiladi. <IFRAME> tegida odatiy freymlar <FRAME> ta'rif tegidagi kabi atributlar ishlatiladi. Bundan tashqari «o'zgaruvchan» freymning xujjatdagi razmeri va joylashuvini amalga oshirida quyidagi atributlardan foydalanish mumkin: WIDTN, HEIGHT, HSPACE, VSPACE, ALIGN. Ularning vazifasi va foydalanish tartibi o'rnatilgan tavsiflar uchun mos kelgan atributlarga to'g'ri keladi. Ylar teg <IMG> bilan beriladi.

Namoyish uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

1.<HTML>

2.<HEAD>

3-<TITLE> Ispolzovanie "plavayuhix" freymov </TITLE> </HEAD>

4.<BODY>

5. CENTER><H1> Primer ispolzovaniya kontseptsii "plavayuhix freymov" </H1> <G'CTNTER>

<IFRAME SRCqfourth.html NAMEq "F" HEIGHTq250 WIDTHq45% HSPACTq1-SCROLLINGqYES ALIGNqRIGHT>

Sizning brauzer «o'zgaruvchan» freymlarning aks etishiga imkon bermaydi.

<G' IFRAME>

«O'zgaruvchan» freymlarni birinchi va yagona bo'lib quvvatlab turgan brauzer – bu Microsoft Internet Explorer brauzeridir. Bunday freymlar ekranning istagan joyda, xuddi grafik tasvirlar va jadvallar singari, joylashi mumkin.

</BODY>

</HTML>

«O'zgaruvchan» freymlar kontseptsiyasini quvvatlamaydigan brauzerlar mazkur misolda fourth. html xujjat qiymatlarini aks ettirish o'rniga «Sizning brauzer «o'zgaruvchan» freymni aks ettirishga imkon bermayapti» degan matn chiqaradi.

Ta'kidlab o'tish zarur, ya'ni «o'zgaruvchan» freymlar kintseptsiyasi idelogiya bo'yicha o'rnatilgan tasvir va jadvallarga juda yaqin. Bu erda HTML – xujjatning kerakli joyiga boshqa HTML – xujjat bemalol joylashadi.

### Formalar

HTML – formalar ma'lumotlarni uzoqdagi foydalanuvchidan Web – serverga havola etish uchun mo'ljallangan. Ular yordamida foydalanuvchi bilan server o'rtasida oddiy muloqat tashkil qilish mumkin. Masalan, foydalanuvchini serverda qayd qilish, taqdim qilingan ro'yxatdan kerakli xujjatni tanlab olish yoki Web – sahifangizdan to'ppa – to'g'ri elektron pochta jo'natish. Buning uchun brauzerlar o'rnatilgan funktsiyaga egadirlar. Sizga yagona bitta ish qoladi – bu HTML – faylning kerakli joyiga navbatdagi satrni qo'yishdir.

<AHREF q mailto : Sizning – l – mail - adres> brauzer uchun matn </A>

Sizning E– mail – adres so'zi o'miga xaqiqiy elektron pochta adresini yozing. Brauzer uchun matn esa ekranda yorug' rang bilan ajralib turadi. Sichqoncha kursori uni egallagach, u qo'l ko'rinishida ko'rinib, sichqonchani chiqillatishga taklif qilgandek bo'ladi. Chiqillatilgach, elektron pochta standart formasini yuklanadi.

Lekin, qaero qabul uchun mijozdan konkret axborot olish zarur. Unga savol berib va javob uchun joy ajratib, bu ishni bajarish mumkin. Javoblar erkin matn ko'rinishida ham, belginalgan kvadrat ko'rinishida ham taqdim etilishi mumkin. Formalar javoblar xilini har xil ko'rinishda ifodalashga imkon beradi. Eng asosiysi – qo'yilgan savolga konkret javob olishdir. Bunday sistemalash kelajakda olingan ma'lumotlarni kompyuter yordamida qayta ishlashni ta'minlash mumkin.

Demak, har bir anketa <FORM> va <G\*FORM> tegi bilan ramkaga solinadi. Bu teg ichida ikkita atribut (parametr) mavjud – METHOD va ACTION. Birinchisi, berilgan forma navbatdagi ish yuritish ishlariga uzatish uslublarini aniqlaydi va ikkita qiymatga ega bo'ladi: POST va GET. ACTION atributi esa anketa bilan bundan keyin nima ish qilish kerakligini aniqlaydi va ko'p hollarda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

<mailto : Sizning – E– mail - adres>

Bunda siz elektron pochta orqali jo'natilgan anketani olasiz. Anketa aloqida fayl sifatida keladi va sizdan qaysi direktoriy va qanday nom bilan yuklanishini so'raydi.

Forma <INPUT> va <SELECT> teglari yig'indisidan iborat. Ular mijoz tomonidan kiritilgan axborotning uslubini aniqlaydi. Quyidagi misolda teg <INPUT> strukturasi (mos atributlar bilan) ko'rib chiqamiz:

<INPUT TYPE "TEXT" NAME q «Mijoz nomi» SIZE q "30">

TYPE instruksiyasining TEXT qiymati kiritiladigan axborot erkin matn bo'lishini, NAME instruksiyasi esa kiritilajak uslub nomiga tegishli ekanligini ko'rsatadi.

SIZE (razmer) mijoz o'z nomini kirita oladigan maydonning maksimal uzunligini aniqlaydi.

Navbatdagi jadval javoblarning ba'zi bir uslublarini namoyishi qiladi:

INPUT qiymati	Mos uslub (stil)
TEXT	Matnli maydon
RADIO	Selektor tugmasi
CHECKBOX	Nazorat indikator
SUBMIT	Anketani jo'natish tugmasi
RESET	Anketani tozalash tugmasi

Teg <SELECT> mijoz taklif qilinayotgan ro'yxatdan so'zni (yoki so'zlar yig'indisi) tanlash paytidagi javob uslubini aniqlaydi.

Teg <TEXTAREA> forma ichida ko'p satrli matn kiritish uchun maydon yaratadi. Bu maydon brauzer darchasida gorizontaal va vertikal aylantirish tasmasi bilan to'g'riburchak ko'rinishda aks etadi.

Oxirida forma misolini ko'rib chiqamiz:

Faylni fifth.html nomi bilan saqlang va brauzer yordami bilan oching.

### 9-Mavzu bo'yicha xulosa

HTML gipermatn belgilash tili hisoblanib (dasturlash tili emas) uning asosiy qoidalari quyidagicha: har bir xarakat uning boshi va oxiridagi teglar bilan aniqlanadi; teglar va yo'riknomalar ichki buyruq hisoblanib brauzer darchasida ko'rinmaydi.

HTML teglari parametr va atributlarga ega. ular juft, ba'zida yolg'iz ko'rinishida bo'ladilar. Asosiy teglar: <HTML>, <HEAD>, <BODY>, <ADDRESS>.

Gipermatn xujjat, giperhavolalar WWW tizimining asosiy tushunchalaridir. Giperhavolaning ko'rsatkichlari so'z, so'z guruhi, tasvir bo'lishi mumkin. Havolalar absolyut va nisbiy bo'ladilar.

HTML tilida numerlangan va markerlangan ro'yxatlarni ifodalovchi maxsus teglar to'plami mavjud. Bundan tashqari aniqlash ro'yxat ham bor.

Brauzerlar bilan quvvatlanib turuvchi javdallar kuchli hisoblanib keng ko'lamda ishlatiladi. Freym va formalar ham qo'llashda ancha kulaylikka egadirlar.

#### Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. HTML – xujjatlarida jadval yaratish?
2. <TABLE> tegining atributlari (parametrlari)?
3. Jadval ichida maqulotlarni formatlashtirish?
4. Taxlangan javdallar?
5. Freymlar?
6. Freymnlarni qo'llash soxalari?
7. Freym strukturasi ta'rifining xususiyatlari?
8. «O'zgaruvchan freymlar»?
9. Freymlar to'plamining axamiyati?
10. <FRAMESET> teg – konteynerining asosiy atributlari?
11. HTML - forma - ?
12. Formaning asosiy axamiyati -?
13. <FORM> tegining atributlari ?
14. Elektron pochta mijoz va Web – serverning o'zaro xarakatini amalga oshirish?

### 10-Mavzu: Dreamweaver web muharriri va unda ishlash

Ajratilgan soat – 2

Asosiy savollar:

1. Dreamweaver MX dasturining imkoniyatlari
2. Dasturni o'rnatish va ishga tushirish

**Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** Macromedia firmasi, Palitralar, Choose Destination Location, WEBDav bayonnomasi, Site Report, Interfeys, Java Script stsenariylar, (Cascading Style Sheet), Java Script tilining sintaktik loyihalari, Belgilash kodlari.

“Dreamweaver web muharriri va unda ishlash” mavzusi bo'yicha darsning texnologik xaritasi

T.r.	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ullar
1	<b>Tayyorlov bosqichi:</b> * Maqsad: Macromedia Dreamweaver web muharriri va unda ishlash bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalarni egallash. * Vazifalar: - talabalarda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va	O'qituvchi



	<p>kengaytirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzuga oid tarqatilgan materiallarni, nazorat topshiriqlarini talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara orqali nazorat topshiriqlari qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini aniqlash;</li> </ul> <p>* Mazmun: Macromedia Dreamweaver web muharriri imkoniyatlari, dasturni o'rnatish, ishga tushirish va unda web sahifalar yaratish.</p>	
2	<p><b>Darsni tashkil etish bosqichi:</b>  Uslub: Og'zaki bayon qilish.  Shakl: ma'ruza mashg'uloti, kichik guruhlar va jamoada ishlash.  Vosita: tarqatma va taqdimot materiallari, videoroliklar  Usul: tayyor yozma materiallar.  Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish.  Baholash: Rag'batlantirish, reyting tizimi asosida baholash.</p>	O'qituvchi
3	<p><b>Mustaqil ishlash bosqichi:</b>  - munozara, aqliy hujum, mikroguruhda ishlash va boshqa metodlar orqali nazorat topshiriqlarini echishga yo'naltiriladi.  - talabalar nazorat topshiriqlarini hal qilish to'g'risidagi fikrlarini o'zaro muhokama qilishadi.  - o'zi va mikroguruh uchun yagona javobni tanlaydi.</p>	Talaba
4	<p><b>Natijalarni eshitish va tahlil qilish bosqichi:</b>  - talabalar va mikroguruh fikri tinglanadi, ularga aniqlashtiruvchi savollar beriladi.  - mikroguruhlarning javoblari to'g'risida talabalar fikri aniqlanadi.  - javoblar tahlil etiladi.</p>	O'qituvchi - talaba
5	<p><b>Yakuniy va baholash bosqichi:</b>  - talabalar bergan javoblardan ko'pchilik fikriga mos kelgani alohida ajratib olinadi.  - talabalarning nazorat topshiriqlarini echishdagi faolligi, intilishlari hisobga olingan holda baholanadi.  - yakuniy fikr aytiladi.  - mustaqil ish topshiriqlari beriladi.</p>	O'qituvchi

### 1-Asosiy savol bayoni:

Dreamweaver MX bu - nafaqat interfeysning tashqi ko'rinishi yangilangani, balki radikal texnologik yangilangan, gipermatnli belgilash tili imkoniyatlari kengaygan. Web-sahifa maketlarini yaratish uchun yangi ashyolar paydo bo'ldi; bu tizimga Flash ob'ektlarni qo'yish (integrirovana) buyruqlari qo'shilgan; bu esa kelajakda WEB uzellar bilan boshqarish va turli jamoaviy ishlarni loyihalashda rivojlanishga imkon beradi. Endi Dreamweaver MX bilan batafsil tanishib chiqamiz.

Belgili kodlar bilan ishlash vositalari sezilarli darajada rivojlandi. MX-versiyasi bu ixtiyoriy murakkablikdagi dastlabki matn bilan ishlash uchun kuchli bazaga ega bo'lgan gipermatnli dasturlashning to'laqonli qobig'idir. Asosiy imkoniyatlarini sanab chiqamiz:

- 1) Hujjatning oynasi endi har xil rejimlarda ishlashi mumkin. Design View (Rejim planirovki) rejimida, foydalanuvchi HTML sahifa maketini taxminan shunday ko'rinishda ko'rish mumkin. Code View (Rejim razmetki) rejimida esa hujjatning oynasida belgili matn sahifasining barcha deskriptorlari, stsenariylari va kommentariyalari tasvirlanadi. Dasturning bu rejimlari orasida kichik koordinatsiya mavjud. Kodlarni o'zgartirish maket modifikatsiyasiga olib keladi, vizual rejimda (tartibda) rejalashtirish yoki formatlashga o'zgartirish kiritishga olib keladi;
- 2) Dreamweaver tizimi qobig'iga barcha zaruriy qurilmalarga ega bo'lgan to'laqonli kodlar tahrirlagichidan iborat dastur integratsiya qilingan. Unda HTML hujjatlarining dastlabki

matnlari bilan ishlashni engillashtiruvchi vositalar: kiritilgan teglarning sarlavxalari, turli kodlarni rangli belgilash, tez qidirib topish vositalari aks etgan. Sintaktik noto'g'ri loyihalarni aniqlash, uzun qatorlarni avtomatik ko'chirish, avtokorreksiya rejimi yo'lga qo'yilgan. Dastur vositalari yordamida nafaqat gipermatnli sahifalarni, balki matnli ko'rinishiga ega har qanday hujjatlarni, dasturlar, stsenariylar, oddiy matnlar, XML belgili hujjatlar va boshqalarni tahlil qilish mumkin.

- 3) Belgilash kodlari bilan ishlashni ma'lumot paneli ancha oddiylashtiradi. Bu dastur ichiga qurilgan interaktiv ma'lumotnoma gipermatnli belgilash tilining barcha standart loyihalarni va u bilan bog'langan vositalarni: diskreptorlar, atributlar, ierarxik stildagi o'ziga xosliklarning deklaratsiyalari (Cascading Style Sheet), Java Script tilining sintaktik loyihalarni qisqa va lo'nda shaklda tavsiflaydi.

Tajribadan ma'lumki xatto eng tajribali, HTML tilini chuqur biladigan Web-ustasi ham bu til standartiga kiruvchi yuzlab kodlar va atributlarni eslab qolishga qodir emas. Ma'lumotlar paneli deskriptorni aniq va ravshan tavsiflab beradi, uning atributlari hamda ko'rib chiqish dasturining turli versiyalari bilan mos tushishi haqida ma'lumot beradi.

- 4) Java Script stsenariylar

Java Script dasturlash tilida yozilgan stsenariylardagi yashirin xatolarni aniqlash imkonini beradi. Bu vosita nafaqat hozirgi vaqtda WEB-dasturlash sohasida qo'llaniladigan ko'p sonli analizatorlar uchun qiyin bo'lmagan, sintaksis xatolarni aniqlashga qodir. Kodlarni tuzatish vaqtida dastur ichiga qurilgan nazorat nuqtalari va qadamba-qadam bajariladigan dastur ko'rsatmalari hamda o'zgaruvchilarning holatini nazorat vositalari mexanizmiga ega.

